

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOZOROV ASROR BOTIROVICH**

# **CHIZMATASVIR**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Bozorov Asror Botirovich**

# **CHIZMATASVIR**

Termiz davlat universiteti Kengashi tomonidan

60111200 (5110800) – Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi,  
60210500 – Rangtasvir (turlari bo‘yicha), 60210800 – Amaliy san‘at  
(turlari bo‘yicha), 60210400 – Dizayn (turlari bo‘yicha)” bakalavriat  
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun

O‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

“Bekshox print servis”

TERMIZ-2024

**UO‘K: 741(075.8)**  
**KBK: 30.11ya73**

**Bozorov.A.B //Chizmatasvir// “Bekshox print servis” nashriyoti 2024:118b**

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60111200 (5110800) – Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi, 60210500 – Rangtasvir (turlari bo‘yicha), 60210800 – Amaliy san‘at (turlari bo‘yicha), 60210400 – Dizayn (turlari bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bugungi kun talablarini hisobga olingan holda xorij adabiyotlari asosida tuzildi. *Qo‘llanma Termiz davlat universitetining 70 yilligiga bag‘ishlanadi.*

Darslik talabalarini “Chizmatasvir” fanining nazariy hamda amaliy asoslari bilan chuqur tanishtiradi. U olib boriladigan mashg‘ulotlarning mavzusi va mazmunini to‘liq o‘z ichiga qamrab olgan. O‘quv qo‘llanmada Rangtasvirda tasvirlashning qonunlari, tasvirlash qoidalarini chuqur o‘rganish ko‘zda tutilgan. Dastur asosida rejalashtirilgan dars soatlari boyicha amaliy ishlar vazifalari oddiydan murakkabga qarab tamoyili tarzida ishlanmasi ishlab chiqilgan hamda foydalanish uchun mahalliy va xorij adabiyotlari berilgan.

**Taqrizchilar:**

Dilshod MAMATOV

BuxDU “Tasviriy va amaliy san‘at” kafedrası professori, p.f.f.d. (PhP)

Anvar TURAKULOV

TerDU, “Milliy libos va san‘at” fakulteti dekani, dotsent v.b. p.f.n. (PhD),  
dotsent.

**Muallif:**

**Asror Bozorov**

TerDU “Badiiy grafika va dizayn” kafedrası o‘qituvchisi

*Ushbu o‘quv qo‘llanma, Termiz davlat universiteti rektorining 2023-yil 10-oktyabrdagi 366PO‘-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat etilgan.*

**ISBN 978-9910-733-51-2**

“Bekshox print servis” nashriyoti **2024**

## KIRISH

Yoshlarni tasviriy san'at sohasida barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'atga oid fanlar, xususan "Chizmatasvir" fani alohida ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi.

Jamiyat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli, ilmiy bilim, mehnat va kasb-kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruhiy sog'lom, jismonan yetuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor normalarini o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdordir.

Hozirgi zamon talabi avvalo, rivojlanib borayotgan ilm-fan taraqqiyoti va tajribalari hamda amaliy natijalarini chuqur o'rganib, ilm fanga dolzarb va o'ta ahamiyatli tomonlarini tatbiq etishni taqozo etmoqda. Ta'limda har doimgidek uzluksizlik va uzviylikni ta'minlab, millionlab axborotlar ichidan asosli va natijaviy nazariy hamda amaliy ma'lumotlarni olib kirish fanning taraqqiyotini belgilaydi. Shunday muhim jihatlarni inobatga olgan holda 60210500-Rangtasvir (dasgohli), amaliy san'at va dizayn ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalariga "Chizmatasvir" fanini o'rgatishda bugungi kun talabi asosida, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida, xususan "Chizmatasvir" fanining o'qitilishi va uning bugungi ahamiyatini o'rgangan holda qo'llanma yaratishni maqsad qildik.

Jamiyatda umuman hayotda har bir faoliyat aniq bir maqsadlar va natijalarga qaratiladi. Shunday ekan "Chizmatasvir" fani tasviriy san'atda qanday o'rin tutadi, fan o'z oldiga qanday vazifa va maqsadlar qo'yadi kabi dolzarb va o'rinli savolga asosli javob topish zarur.

Yangilangan pedagogik tafakkur va oliy ta'lim muassasalarida chizmatasvir r fanini o'qitishning badiiy ijodiy asoslari "Chizmatasvir" fanining talablari asosida ta'lim jarayonida ro'y bergan, berayotgan va bo'lishi muqarrar o'zgarishlarning asosiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirishga ehtiyoj tug'iladi.

Tasviriy san'at talabalarning ma'naviyatini, tafakkur dunyosini, badiiy didini va tasavvur olamini shakllantiradi. "Chizmatasvir" fani esa tasviriy san'atning asosi hisoblanadi. Fanning nazariy tomonlarini o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Chizmatasvir tasvirlash qonun qoidalarini mukammal egallagan talaba amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. Ayniqsa, chizmatasvir mashg'ulotlarida nazariya amaliyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi.

Pedagogik tadbirlar, tarbiyashunoslikka doir qarashlar faqat milliy asoslarga tayanilgandagina, ta'lim-tarbiya obyektlari va subyektlarining milliy xususiyatlarini hisobga olib ish ko'ra bilgandagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erishishi mumkin. Chunki pedagogik tadbir umuman odamlarga emas, balki muayyan millatga mansub odamlarga tatbiq etiladi. Muayyan millat dunyoga bugun kelgani yo'q va o'zining tarixiy umri davomida o'ziga xos ijtimoiy tajriba to'plagan, ma'naviy qadriyatlarini, joylashgan o'rni, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitga muvofiq ruhiyatlar tizimiga ega. Pedagogika singdirmoqchi bo'lgan sifatlarni ana shu tajribalar, qadriyatlar, psixologiyasidagi o'ziga xosliklar ustiga qursagina biror ijobiy natijaga erishadi.

Yuqoridagi fikrlarni yakunlab, shuni aytish joizki, respublikamizda tasviriy va amaliy san'at rivoji Kamoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti bitiruvchilari xisobiga to'lib bormokda. Soxaga kirib kelayotgan iqtidorli yosh rassomlar tajribali ustozlar bilan bir qatorda badiiy jarayon rivojini davom ettirishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Tasviriy san'at oliy rassomlik maktabi kasbiy maxorat va savodlilikni, dunyoqarashni shakllantirish kabi asoslar bazasini yaratadi. Bu ma'suliyatni bajarishda tasviriy san'at turlarining barchasida chizmatasvir asosiy rol o'ynaydi. Chizmatasvir nafakat san'at, xatto tekislik yuzasida shakllarning plastik tuzilishini tasvirlash, konstruktiv asosini anglash va fikrlashni o'rgatuvchi fandır.

Chizmatasvir borlikni, xar qanday kompozitsiya va loyixalashda xis, tasavvurni aks ettirish vositasidir.

Qo'llanma chizmatasvir o'quv fani dasturiga asosan, chizmatasvirni o'rganish soxasini qamrab olgan.

Qo'llanmadan maqsad chizmatasvirdan o'quv vazifalar darajasi sifatini yuqoriga ko'tarish. Chizmatasvir fani dasturi jahon taviriy san'ati realistik maktabiga asoslanib, bo'lajak rassomni naturani chuqur o'rganishiga imkon yaratadi. Naturadan chizmatasvir ishlash bosqichlari jarayonida asta-sekin naturani ishlash bilan uning badiiy jixatlarini o'rgatadi. Inson qomatini har tomonlama o'rganish an'anasi realistik maktab chizmataviri va zamonamizning san'at talablariga javob beraoladi. O'quv qo'llanma naturadan uzoq muddatli chizmatasvir ishlashga muxim o'rin berilgan. Chizmatasvirda shakllarni taxlil qilish va rassomga uni anglash imkoniyatini yaratadi.

Kitobda tusning axamiyati, chizmatasvir jarayoni bosqichlari, perspektiva va anatomiya bilimlarini doimo boyitish xaqida so'z yuritiladi.

Qo'llanmada qisqa muddatli chizmatasvir, xomaki chizmatasvir, yoddan ishlash, inter'er, ekster'er, teatr bezakli postanovka, o'quv ijodiy va mustaqil amaliyotga diqqat qaratilgan bo'lib, jami mashqlar ijodiy o'quv muassasalar tinglovchilarining yuqori darajada bilimni oshirish muxim xisoblanadi.

Insonni va tabiatni o'rganishga o'tgan asr rassomlari ko'rsatgan. Biz uchun ularning manbalarda yozib qoldirgan fikrlari bugungi kunda xam o'z kuchini yuqotmadi.


Tasviriy san'atda amaliyot va nazariyat xar doim kasbiy maxoratni oshirishni o'quv amaliyotida naturani chuqur urganishni, chizmatasvir texnikasini egallash va badiiylikni oshirishni nazarda tutadi. Qo'llanma Termiz davlat universitetinig 70 yilligiga bag'ishlanadi.

## **I BOB.**

### **1.1. Chizmatasvir tarixi.**

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Odamzot tabiat bilan muloqotga kirishib borgani sari uning sir asrorlarini o'zlashtirib unga munosabatini bildirib borgan. Yonib ko'mirga aylangan yog'och qalamchasi, tosh, suyak va shunga o'xshash narsalar bilan chiziklar xosil qilgan, o'z hayajon va fikrlarini ifodalay boshlaganlar.

Inson faoliyatlashib jamiyat rivojlana borgani sari rasm chizish asoslari ham murakkablashib borgan. Rasm chizish uchun endilikda yuzasi silliqlangan yog'och, papirius, mol terisidan tayyorlangan pergament va nixoyat qog'oz ixtiro qilinib ular ishning mazmuni va bajaradigan amaliga ko'ra tanlana boshlagan. Uyg'onish davriga kelib chizmatasvir mustaqil san'at turiga aylandi. Agar urta asrlarda yaratilgan qalamda ishlangan rasmlar shunchaki rassom, me'mor va boshqa san'atkorlar uchun yordamchi vosita bo'lgan bo'lsa, masalan bo'lajak asarning xomaki qoralamasi, bo'lajak binoning chizma loyixasi yoki tarxi va x.k. Bu davrga kelib esa chizmatasvir shu vazifasini saqlab qolgani xolda endilikda mustaqil san'at turi sifatida o'zida mustaqil g'oya va fikrlarni bayon eta boshladi. Shu san'atning taniqli ijodkorlari, rassom, haykaltarosh, me'morlar yetishib chiqa boshladi. Shu o'rinda italiyalik, germaniyalik rassomlar ijodi e'tiborga loyiq. Nemis Uyg'onish davrining so'nggi yirik vakillari Kichik Gans Golbeyn (1497-1543), Dyurir, Italian rassomlari Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo Buannorotti, Rafayel Santi, golland rassomlari Rembrand, Vermer kabi rassomlar qalamsurat ustasi sifatida mashxur bo'lib dunyoning eng yaxshi qalamkashlaridan biri xisoblanadi. Uning shu texnikada ishlagan portret va mavzuli suratlar chiziklarining ifodaliligi hamda nur va soya orasidagi kurashning nafis tasviri bilan xarakterlanadi. Gans Golbeyn turli rangli qog'oz va qalamlardan foydalanib shu san'atning ajoyib namunalarini yaratishga muvoffaq bo'lgan. Uning portretlari o'zining tashqi effekti bilan diqqatni tortadi. Rassom tasvirlanuvchining kiyimlari, uni o'rab turgan muxit va undagi buyumlarning xarakteri va fakturasini yuksak maxorat bilan ko'rsatadi. Fransuz rassomi Jan Fuks, rus rassomlari V.Serov, Bakst chizmatasvirlari ham e'tiborga loyiq. Ular qog'oz fakturasi, rangi, turli qalam



**1. a-rasm. Toshdagi tasvirlar.  
Sarmishsoy. Navoiy viloyati**

va uning kuchli jozibasidan unumli foydalanib chizmatasvirning nodir namunalarini yaratganlar. O'zbekistonda chizmatasvir san'atining yangi tarixi o'rta asrchilik bilan bog'lik va asosan xusnixat - kalligrafiya va naqqoshlik san'atining unsurlari – tabiat shakllarining soddalashtirilgan ko'rinishlarida, chizmatasvir K.Bexzod asarlarida namoyon bo'lgan bo'lsa ham, lekin uning keng ma'noda zamonaviy ko'rinishdagi shakli XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi.

Bu san'atning dastlabki ijodkorlari chekkadan kelgan yevropalik rassomlar edi. V.Velejevning Toshkent va uning atrofidagi manzaralarni aks ettiruvchi chizmatasvirlari, N.Karazin, S.Dudin va boshqa rassomlar ijodida etnografik tasvirlar shu san'atning dastlabki ko'rinishlaridan edi.

Chizmatasvirning O'zbekiston hududida rivojlanishi va keng quloqch yoyilishi 20 asrning boshlarida Toshkent, Buxoro, Fargona va boshqa shaharlarda birin-ketin ochila boshlagan zamonaviy maktablar, kasb-hunar bilim yurtlari, tasviriy san'at studiyasi va tugaraklar bilan bog'lik. Shu davrdan boshlab birinchi bor borliqni o'ziga qarab rasm chizish, mavjud xayotiy voqea va xodisalarning xaqqoniy tasvirini yaratish xarakati rivojlanib bordi.



**1. b-rasm. V.Serov. "Ayol" portreti.**



**1. v – rasm. J.Umarbekov. Qoraxitoy qishlog‘i. Ko‘mirqalam.**

Maxalliy rassomlarning birinchi avlodlari qalamda o‘quv mashqlarini ishladilar, dastgoxli chizmatasvir namunalarini yarata boshladilar. Ibroxim Davron, O‘.Tansiqboyev, B.Hamdamiy va boshqalarning shu boradagi asarlari shu davr izlanishlari natijasi edi. O‘zbekistonda yashab ijod qilgan A.Volkov, Usto Mumin (A.Nikolayev), Chingiz Axmarov va boshqalar shu san‘atning ajoyib namunalarini yaratib qoldirdilar.



**1. e-rasm R.Zyadullayev.**

**“Bobo” portreti**

O‘zbek chizmatasvirining yangi bosqichi 20 asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrga kelib chizmatasvirning akademik yunalishida asarlar yaratildi, dastgox chizmatasvir keng quloqch yoydi.

Baxodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Iskandar Voxidov, Alisher Mirzaev va boshqalar o‘z hissasini qo‘shmoqdalar. Hozirgi kunda yosh rassomlardan Dilshod Azizov, Bobur Ismoilov, Rustam Ziyodullayev kabi yetuk yosh musavvirlar chizmatasvirda buyuk ustozlar ishini davom ettirib kelmoqdalar.

## 1.2. Naturadan chizmatasvir ishlash.

Chizmatasvir tasviriy san'atning mustaqil turi bulishidan tashkari rangtasvir, gravyura, plakat, xaykaltoroshlik, amaliy bezak san'ati va boshqa san'atlarning asosi hisoblanadi.



*2 a- rasm I.Repin “Burloqlar volgada” asariga eskiz.*

Chizmatasvir yordamida bo‘lg‘usi asarning eng birinchi g‘oyasini chizmatasvir orqali mustahkamlanadi. Masalan, Repin “Volgadagi burloqlar” kartinasining murakkab kompozitsiyasi uchun eskizlarni xayoldan va naturadan qalam yordamida kompozitsiya variantlarini chizmatasvirda ishlagan. Shuningdek, kompozitsiyada qatnashayotgan personajlarni har birini naturadan portretlarini, qo‘l va oyoqlarini ham uzoq muddatli yoki qisqa muddatli xomaki qoramalarini ishlab kartinaga kiritgan.

Mikelanjelo Sikstin kapellasi shiftiga rospis ishlashda qomat xarakterlarini yordamchi chizmatasvir orqali jozibali xolatlarini topishga xarakter qilgan. A.Ivanov tomonidan bir necha yordamchi chizmatasvirlar tayyorlab, uz kartinasida betakror shakllar jozibali obrazi borligini ko‘ramiz.

Chizmatasvir qonun va qoidalarini egallash naturadan ongli ravishda ishlash natijasida o‘rganiladi. qalamn qog‘ozga tegkizilar ekan, real shaklni tushunib va sezgiga asoslanib, o‘ylab yuritilishi kerak.

O‘quv chizmatasvirida naturaning shakli, plastikasi, proporsiyasi va qurilishi haqida to‘liq tasavvur berilishi zarur. Natura yordamida shakllarni o‘rganish rassom ijodida katta imkoniyatdir. Bundan tashqari biz naturani idrok qilabilishimiz ham zarur.



## **2. b va v-rasmlar. I.Repinning asarlariga ishlangan eskizlari.**

Atrofdagi borliq narsalar haqiqatda bizga ko‘ringan kabi emas, masalan, paralel chiziqlar bir-biri bilan uchrashgandek, o‘tkir burchaklar goho o‘tkir, goho o‘tmas, aylana esa ellips shakl ko‘rinishida, qalam bo‘yi bino bo‘yidan baland va hakoazolarni chizmasvir perspekti va mashqlarisiz tushunish qiyin Perspektiva optik xodisalarni tushuntirishdan tashqari, balki rassomni shakllarni xar xil xolatdagi burilishlarini muxit (makonda)da tasvirlash usullari bilan qurollantiradi. Shuningdek, xar hil darajadagi masofada joylashishini tasvirlash usullarini ham tushunishga imkon yaratadi.

**Tayanch iboralar:** chizmasvir, natyurmort, shakllar, uy anjomlari, kompozitsiya tus, blik, shtrixlash.

### **Savollar:**

1. Qadimda odamlar nimalarda tasvir chizganlar?
2. Nimalarga rasm chizganlar?
3. O‘zbekistonlik rassomlar kimlar?
4. O‘zbekistonda chizmasvir sanday rivojlandi?
5. Chingiz Axmarov chizmataviri qanday?
6. Chizmasvir bilan kimlar shug'ullanadilar?
7. Taniqli rassomlardan kimlar kompozitsiya ishlashda chizmasvirdan foydalanganlar?
8. Chizmasvir asar ishlashda qanday rol uynaydi?
9. Xomaki chizmasvir nima?

## II BOB.

### 2.1. Chizmatasvir uchun ashyolar.

Chizmatasvir uchun ashyoviy vositalar; qog'oz, turli xildagi qalam turlari, rezinka (o'chirg'ich), ko'mir, pastel, pero va boshqa asbob uskunalar bilan chizmatasvir amalga oshiriladi.

*Qog'oz.* Chizmatasvirni o'rganish jarayonida; gazeta, gulqog'oz, chizmatasvir va chizmachilik qog'ozlarining xar biridan ustalik bilan foydalanishga xarakat qilmoq lozim. Gazeta, oboyi va buyumlar o'rash qog'ozi mayda zarrachali, yumshoq, tukli yuzalari bo'lib, ko'mir va pastel bilan ishlashga qulay.




### 3. a - rasm. O'ramli goznak qog'oz va formatli vatman (800x800 mm. list) qog'ozi.

Chizmatasvir va chizmachilik qog'ozi qalin, oq silliq yuzali va dag'al yuzadan iborat. Silliq qog'ozga pero va qalam bilan, dag'al qog'ozga esa qalam, kumir va bo'yoq bilan ishlanadi. Dag'al yuzali qog'oz bo'yoqni yaxshi saqlashidan tashqari, uzok muddat ishlash mumkin. Bundan xulosa qilsak, chizmatasvir va chizmachilik qog'ozi o'quv vazifalari uchun yaroqlidir. Har bir varaq qog'ozga faqat bir tomoniga ishlanadi. Qulay bo'lishi uchun qog'ozni yog'och planshetga tortib ishlash qulay hisoblanadi.

*Qog'oz tanlash.* Akvarel bo'yog'i bilan ishlash uchun tig'iz, qalin oq qog'oz, masalan, chizmachilik, vatman, yarim vatman va torshon (zernistiy) g'adir-budurli qog'oz kerak bo'ladi. Bunday qog'ozlarga akvarel bo'yog'ini qilcho'p bilan ishlash qulay, uni pichoqcha bilan tozalash, tirnash, keraksiz joylarini olib tashlash mumkin.(3 - rasm).

G'adir-budirli torshon qog'ozni silliq qog'ozga nisbatan yaxshi. Silliq qog'ozga bo'yoq tekis tusda yotadi, g'adir-budirli qog'ozga bo'yoq tus jihatdan har xil chuqurchalarga tuqroq, bo'rtgan joylari ochroq tusda bulib, tuslar va ranglar o'yini hosil bo'ladi.



**3 b - rasm. Chizmasvir uchun yog'ochli planshet va namlab tortilgan qog'ozli Yog'och planshet.**

Qog'oz tanlash tasvir xarakteriga qarab tug'ri tanlanishi kerak. Mayda g'adir-budirli qog'oz mayda masshtabli, yarim soya shakllar, nozik shakllar tasviri uchun mosdir. Yirik g'adir-budirli qog'oz ko'proq, fakturali va kuchli yoritilgan shakllar tasviri uchun ishlatiladi. Akvarel rangtasviri uchun eng ko'p tarqalgan chizmachilik qog'ozni hisoblanadi. Chizmasvir uchun qog'ozning vazifasi va sifatiga qarab; V, F, A, O markalarga bo'linadi.

V - badiiy ko'rgazma ishlari uchun;

F - gravyura tayyorlash, tush bilan ishlash uchun;

A - akvarel bo'yog'ida ishlash uchun;

O - ommaviy ishlar uchun;

Ular taxta varaqda va o'ramlarda bo'lishi mumkin. Taxta varaqli qog'oz tubandagi o'lchamlarda ishlab chiqariladi (mm); 210x297; 240x287; 420x594; 594x841; 640x878. O'ramli qog'oz ishlab chiqaruvchi bilan istemolchi kelishuviga qarab tayyorlanadi. Bunda qog'oz sillik shaklda chiqarilib buyurtmachining talabiga binoan mayda, o'rtacha va yirik g'adir-budurli, shuningdek rangli tusda tayyorlanishi mumkin.

Chizmachilik qog'ozidan tashqari eskiz qog'ozini akvarelda ishlash uchun yaroqli, shuningdek, qalam va ko'mirqalam bilan ishlash uchun xam yaroqlidir. Eskiz qog'ozini uz sifati bilan chizmachilik qog'oziga uxshash. Qog'oz ikki o'lchamda; 130x190 va 190x 270 mm.-da tayyorlanadi.

Akvarel qog'ozini o'rnida filtr uchun tayyorlangan qog'oz xar xil raqamli bo'ladi va shuningdek estamp qog'ozini xam ishlatish mumkin.

Tush bilan ishlashda ayniqsa foto qog'ozga tush yaxshi yotadi.

Grafika ishlari uchun yaltiroq va xira qog'oz xam qulay.

Akvarel rangtaviri qog'oziga quyilgan talablar quyidagicha:

1. Suvlangan qog'oz quritilganidan keyin deformatsiya bo'lmasligi;
2. Qog'ozni akvarel buyog'i bilan bo'yalganidan so'ng, quringanidan keyin dog'lar paydo bulmasligi;
3. Qog'ozni bir necha marta gubka (yoki paxta) bilan yuvib tashlagandan keyin erib ketmasligi va o'z sifati yuqotmasligi;
4. Bo'yoq qatlami yengil olib tashlanishi;
5. Qog'oz rangi oq bo'lishi va ko'p yillar davomida rangini uzgartirmasligi;
6. Qog'oz yuzasi qismi qatlami buyoqni yengil shimib olishi;
7. Qog'oz yuzasi xira bo'lib; mayda, o'rta, yirik g'adir-budirli va silliq bo'lishi;
8. Qog'oz qalamda ishlab o'chirg'ich bilan o'chirganda dumaloq shaklda titilmasligi kerak;

*Chizmatasvir qalamlari.* Qachonlardir qalam o'rnida qo'rg'oshin, kumush tayoqchalari bo'lib, yetarli darajada qog'ozda aniq shtrix izlari qoldirilgan. Bunday qalamlar bilan xomaki chizmatasvirlar bajarilib, Uyg'onish davridan bizga yetib kelgan. Shuning bilan birga italiyan qalami kuydirilgan suyak va usimlik yelimi bilan aralashtirib tayyorlangan. Bugungi kunda xam zamonaviy rassomlar italiyan qalamidan foydalanib kelmokdalar.

Qurg'oshinli va kumushli qalamlar XIX asrgacha ishlatilib kelingan.

Sangina va pastel tayoqchasini xam qalam deydi.

*Grafitli qalam.* Grafit qalami xaqida 1564 yilda mineral xaqidagi qo'lyozmalarda yozib qoldirilgan. Shu vaqtga kelib Angliyada, Kemberlenda grafit

konlari ochilishi bilan bog'lik bo'lib, grafitni qalamchalarga kesib ishlab olinganlar. Grafit qalamchalari qo'lni iflos qilib, tez sinib qolishi kabi kamchiligi bo'lgan. Shundan keyin grafit qalamchalarini tasmalar bilan o'rab, tugaguncha ishlatilgan.



### ***3-v rasm. Chizmatasvir uchun har xil qattiqlikdagi qalamlar***

XVIII asr oxirida chex I.Gartmurt grafitga loy aralashmasini qushib quydirish yo'li bilan qalam uchun sterjen (o'zak) tayyorlagan. Shu xolda bugungi kunda ishlatilayotgan zamonaviy grafik sterjenlarning har xil qattiqlikdagilari tayyorlangan.

Fransuz olimi N.Konte bir vaqtning uzida grafik sterjenini takomillashtirish bilan birga uni yog'och g'iloqga solib yelimlashni taklif etadi. Tez orada Yevropa mamlakatlarida qalam ishlab chikarish fabrikasi paydo bo'la boshladi.

Sterjenli qalam 18 sm. uzunlikdagisi 55 km. yoki 45000 so'z yozishini xisoblab chiqishgan. 1846 yili o'n yetti qattiqdik darajasidagi takomillashgan qalam ishlab chiqarilgan.

Xozirgi paytda qalam uch asosiy guruhi: qora grafikli, siyoh qalam va rangli qalamlar ishlab chiqariladi. Ular qattiq va yumshoq; T, MT, M, chet elda -N, NV, V xarflarda, oldingi raqam kursatgichi bilan jami 15 guruhda belgilanadi.

Qalamlarni maqsadli ishlatilishiga qarab maktab o'quvchilari uchun, devonxona, chizmachilik va chizmatasvir turlari (dunyo buyicha 370 ga yaqin turda va 70 dan ortik rangli qalamlar) ishlab chiqariladi. Xozirgi vaqtda Rossiyada "Konstruktor", "Orion", "Mayak", "Svetokopiya", "Lyumograf", "Arxitektor", "Smena", "Komsomoles" nomlarda qalamlar ishlab chiqariladi.

Qalam yumshoqlik darajasi M (myagkiy-yumshok) xarfi bilan belgilanib, 2M,

3M va boshqa turlarda. Katta M xarfidan oldingi son qalamni qattiq, yumshoqligini bildiradi.

Qattiq qalamlar T (tvoyordiy) xarfi bilan belgilanadi, 2T, T ga nisbatan qattiqroq, 3T, 2T ga nisbatan yanada qattiqroq va shu kabilarda.

Odatda chizmatasvir urtacha yumshoqlikdagi qalam bilan (TM yoki M) boshlanib, keyinchalik 2M va 3M nomerli yumshoqroq qalamda davom ettiriladi.

Qalam tanlash qog'oz sifatiga qarab va rassomning uz oldiga kuygan ijodiy vazifasiga bog'lik. Masalan, tez ishlanadigan xomaki chizmatasvir uchun yumshoq qalam ung'ay, uzok muddatli chizmatasvir yarim vatman qog'ozga T yoki TM qalam bilan shtrixlashni boshlash mumkin. Silliq qog'ozga yumshoq qalam, g'adir - budirliroq qog'ozga o'rtacha yumshoqlikdagi 2M qalamida ishlash ungay bo'ladi



*3-e rasm. Retush qamlari.*

Oddiy qalamlardan tashqari "Retush" qalami xam ishlab chiqarilib, italiya qalamini eslatadi. "Retush"

Turt nomerda: №1-juda yumshoq, №2-yumshok, №3-urtacha qattik, №4-qattik turlari mavjud. "Retush" qalami sterjeni maydalangan qayin daraxti kumiri, loy va uncha ko'p bulmagan gaz kurumi aralashmasidan tayyorlanadi.

"Retush" yog'li qora rang beradi va yaxshi qoraytirish xususiyatiga ega. Bu qalamlar uzoq muddatli chizmatasvir uchun yaroqsiz bulib uchirgichda uchirilgan joyini retush bilan ishlab bulmaydi. "Retush" qalamida bajarilgan chizmatasvirni fiksativ bilan mustaxkamlash shart emas. "Retush" qora qalamidan tashqari yana "Jivopis" 2T, 4M markali rangli qalamlar xam ishlab chiqariladi. Rassomlik amaliyotida karton ishlashda (kompozitsiya uchun yordamchi chizmatasvir) "Markirovochniy", "Stolyarniy" qalami grafiki uzunligi bilan qulay hisoblanadi.



### ***3. d-rasm. Retush qalamida ishlangan o‘quv ishi.***

*Italiya qalami.* Italiya qalami chizmatasvir uchun mujallangan qalam turlaridan biri xisoblanadi. Asosiy farqlaridan biri uta xira kora bulib, qog‘ozni shtrixlashga ungay. Italiya qalami portret va yalong‘och odam qomati chizmatasvirini ishlashda foydalaniladi.

*Chizmatasvir kumiri.* Rossiyada pusti olingan majnun tol shoxchalarini quritib, xavosiz kuydirilib kumirqalam tayyorlanadi. Kuydirish 300 gradus temperaturada 3-5 soat davom etadi.

Chizmatasvir kumirini uzingiz xam tayyorlashinigz mumkin. Buning uchun mayda shoxcha tayoqchalarini balandroq konserva bankasiga tik joylashtirib xavosini kamaytirish maqsadida qum bilan tulgaziladi va olovda kuydiriladi. Kuydirish jarayoni 3-5 soat davom etadi va keyin banka idish bir sutka davomida ochmasdan sovutiladi.

Yaxshi kuydirilmagan tayoqcha kulrang iz qoldirib qog‘ozni tirnashi mumkin.

Chizmatasvir kumiri iliq qoramtir rangda bulib, xolstga, qog‘ozga, kortonga yengil yotadi. U tuq qoradan och-kulrang tulgacha iz qoldiradi.

Chizmatasvir kumiri tayokchalari uzunligi 110 mm. va diametri 4 mm. -da 50 donadan qutichaga joylashtirib ishlab chiqariladi.

*Presslangan chizmatasvir kumir qalamchasi.* Rossiya korxonasi tomonidan presslangan chizmatasvir kumir qalamchasi xam ishlab chiqariladi.

Uni qayin daraxtini kuydirib juda mayda kukuni (kuli) (50% dan 72%), qolgani loy (26% dan 50%) gaz kurumi (3-8%) va biroz ultramarin (3-5%) aralashtirib tayyorlanadi. Kuydirish esa 500-800 gradusda 2-4 soat davom ettirilib, xar xil qattiklikda tayyorlash mumkin. Tusi tarkibiga karab uzgaradi.



Presslangan kumir tabiy kumirga nisbatan qoramtir tus beradi.

Presslangan kumirni bir tomonlama 45 gradus burchak ostida utkirlanib, nozik va yug'on chiziqlar chizish mumkin. Presslangan kumir tayoqchasi uzunligi 110 mm, diametri 8 mm bulib quti chada 10 donadan ishlab chiqarilaqdi.

### **3 f-rasm. Pista ko'mir qalamchalari**

Ko'mir qalamdam chizmatasvida asosan eskiz, qoralama chizishda foyda foydalaniladi. Ko'mir qalamni tol, tut, uzum daraxti novdasidan uy sharoitida tayyorlashimiz mumkin. Bunda darax novdalarini 8-10 sm uzunlikda kesib olinib so'ngra uni metall idishga solib ustidan qum yoki tuproq bilan to'ldiriladi sababi novdaga havo kirmasligi kerak.

Ish jarayonida maxsus uchirgich bilan qog'oz yuzida dumalatib uchirish mumkin. Kumirni qog'ozga ishqalash mumkin emas. Vaqt utishi bilan presslangan kumirda bajarilgan chizmatasvir qorayadi. Kumir bilan ishlashda g'adir-budirli qog'ozdan foydalanganda kumirni yaxshi ushlab qoladi.



**3 c-rasm. Sousda ishlangan o'quv ishi.**

*Sous.* Sous uch tusda: qora, kulrang va jigarrangda ishlab chiqariladi. Sousda quruq va namli usulda chizmatasvir bajarish mumkin.

Sous bilan akvareldan foydalangan kabi qilchupda xam bajariladi. U rangli va qora tushga uxshash.

Sous qalamcha shaklda 56 mm., diametri 11-13 mm., qutichada 10 donadan ishlab chiqariladi.

*Sangina.* Sangina shiddatli jigarrangda bulib, qalamchaga uxshashdir. Sangina qalamchasi iliq qizilyoki qoramtir -jigarrang tus beradi. Sanginada ishlash kumir bilan ishlash kabi qullaniladi. Sangina “grizayl” texnikasida ishlashda yaxshi (bir rangda xilma-xil tuslanishlar mavjud). Sangina paxta bilan qog‘ozga ishqalab nafis va tiniq tusqatlamlari xosil qilish mumkin.

*Pastel.* (frans. pastel — xamir) — rasm ishlashda foydalaniladigan g‘ ilofsiz yumshoq, rangli maxsus qalam bo‘lib; Pastel bilan rasm chizish usuli; shuningdek, shu usulda ishlangan san’ at asari hisoblanadi. G‘ adir-budur qog‘ oz, karton, gruntlangan mato, teri, pergamentga chiziladi, bo‘ yoq qatlami purkagich bilan fiksativ sepib mustahkamlanadi. Shtrixlardan keng foydalanish Pastelni fafikaga yaqinlashtiradi. Taxminan 15-asrning 2-yarmida yuzaga kelgan, 17-asrdan tasviriy an’ analari kuchaydi. Nafis va jozibali usuli, mayin bezagi rassomlarni o‘ ziga jalb qiladi. J. Fuke, J. Sharden, E. Delakrua, E. Mane va boshqa rassomlarning asarlari mashhur. O‘ zbekistonlik rassomlardan R. Ahmedov, J. Umarbekov, B. Jalilov va b. P. da samarali ijod kiladi. Pastel yumshoq nafis rang va tushlarda qalamcha shaklida buladi. Pastelning xarakterli tomoni xira nafis ranglar bulib, buyoqda rangtasvir ashyolarida bunday natijaga erishib bulmaydi.

Pastel qog'oz yuzasida yomon saklanadi va ozgina tashqi ta'sirda uchib ketadi. Shuning uchun pastel bilan g'adir-budirli qog'ozga ishlanadi (masalan, filtrli qog'ozga).

Pastel bilan ishlangan chizmasvir fiksativ-(qotiruvchi) bilan mustaxkamlanadi, ammo uz koloritini, mayin tusini yuqotadi.

Pastel kulrangli va tusli bulib, silindr qalamcha kurinishida: uzunligi 65 mm, diametri 9-10 mm, tuplamda 25, 50,



**3 i - rasm. Sous**

126, 146, 185, dona, shuningdek, tuplamda bir xil rang va tusda 10 donadan ishlab chiqariladi. 25 donalik tuplam uz ichiga faqat asosiy ranga qushimcha yarim tusli qalamchalari qushiladi.

**Tayanch iboralar:** chizmasvir, ashyolar, qog'oz, qalam, italiya qalami, kumir, sous, sangina, pstel.

**Savollar:**

1. Chizmasvir ashyolari nimalar?
2. Qog'ozga qanday talablar quyiladi?
3. Qog'ozning qanday turlari mavjud?
4. Qog'ozning qanday markalari bor?
5. Qalamning qanday turlari bor?
6. Grafikli qalam nima?
7. Kumir qalami qanday tayyorlanadi?
8. Sangina va sousning farsi nimada?

## 2.2. Yordamchi ashyolar.



4 a - rasm. Flomaster.

Pastel qalamchalari bilan ishlash uchun pastelni ushlab turuvchi tag (asos)ini tayyorlash zarur.

Xozirgi vaqtda tag vazifasini: torshon qog'oz, vatman, filtr qog'oz, silliqdash qog'oz (shkurka - kumkogoz) 00, 000 mayda nomerlari, rulonda va taxtacha kurinishda ishlab chiqariladi, gruntli xolost, karton va maxsus gruntlangan chizmachilik qog'oz. Qog'oz yuzasi imkon darajada g'adirbudirli bulishi kerak va pastel qalamini tukilishiga

yul quymasligi lozim.

Chizmachilik qog'ozini gruntlashda kleysterdan foydalaniladi. Uni tayyorlash uchun 5-6 kism kraxmalni 10 kism suv bilan aralashtiriladi va qog'ozga surkaladi.

### *Flomaster*

Flomaster bilan chizmasvir ishlash grafik-rassomlar orasida keng tarqalgan.

Flomaster fitil ruchkasida pero urniga fetrdan ishlangan qalamchaga tez kuriydigan maxsus siyox uzluksiz kelib turadi va xar kandy tomonga xarakat qilganda qog'ozda iz qoldirish imkoniyatiga ega.

Flomasterda chizmasvir bajarish uchun bir necha rangdagi, fetri xar xil yugonlikdagi turidan foydalaniladi.

Flomasterni siyox bilan tuldirib turish uchun maxsus tipografiya buyog'i, pinen va toluola suyukligi eritilib ishlatiladi. Bu maxsus siyoxlar; qora, qizil, kuk va binafsha ranglari mavjud. Shuningdek, flomaster fetrini yuvib turish uchun maxsus eritma ishlab chiqariladi. Bu eritma tarkibi teng miqdorda toluola va pinendan iborat.

Rezinka (uchirgich) yumshoq xili (qalam uchun) grafit kalam shtrixlarini uchirish uchun va qattik siyoxni uchirish uchun turlari buladi.

Koalam uchirgichi yumshok bulib, 6M va 5M yumshok grafit shtrixlarni va kumirdabajarilgan chizmasvirni uchirish uchun ishlatiladi.

Urtacha yumshoqlikdagi uchirgich qolgan grafit qalam izlarini uchirishga xizmat qiladi.

Rezinka bir tusli rangda va ikki qatlamli: shakli – tugʻri burchakli, uchburchakli, romba shaklida, dumaloq va boshka turlarda buladi. Rezinkani bir tomonini qiya kesib, nozik joylarni uchirishga qulay qilinadi.

Rezinka (uchirgich) bir necha raqamda ishlab chiqarilib ulchamlari bilan farq qiladi. Tugʻri burchakli rezinkalar № 1 va № 2 ok va tuq kulrangdagilari maktab uquvchilari uchun.



Korxonadan ishlab chiqilgan rezinkalar orasida qattiqlari xam uchrab turadi. Bunday rezinkalar


**4 b-rasm. Oʻchirgʻich.**

sifatini yaxshilash uchun uni 1-2 sutkaga benzinga yoki 3-4 sutkaga kerosinga yoki № 2 eritma (razbavitel)ga solib quyiladi.

Keyin rezinkani eritmadan chiqarib tozalanadi va issik suvga 1-2 soat solib quyiladi, ana shunda benzin va kerosin xidi yuqoladi. Rezinka biroz vaqt oʻtgandan keyin yana qattiq boʻlsa, uni almashtirish lozim. Chizmatasvirida iloji boricha yumshoq oʻchirgʻichdan foydalanish lozim. Chunki qattiq oʻchirgʻichdan foydalanish qogʻoz sifatiga salbiy taʻsir qiladi hamda qogʻoz yuzasida dogʻlar hosil qiladi.



**3. v- ra sm. Chizmatasvir ashyolari: qalam, qalam chiqargich, bloknot, oʻchirgʻich.**



**4 g-rasm. Pero**

Doskalar standartga ko'ra asosan ikki turda: uzunasiga quyilgan taxtali (1-turi) va ko'ndalangiga qo'yilgan taxtali ishlab chiqariladi (11- turi).

Doskalar o'lchami:  
 1350x900x25, 1000x650x20,  
 750x500x20, 550x350x15mm.da  
 yog'ochdan ishlab chiqariladi.

Bundan tashqari o'quvchilar uchun 203 x 288mm yoki 244 x 334mm faneradan qilingan ramka shaklida xam ishlab chiqariladi.

*Pero. Chizmatasvir uchun metall, qamish, qushlar patidan perolar ishlatiladi. Qamish perosi "qalam" (shark mamlakatlarida) nomi bilan ma'lum. XIX asr urtalarigacha goz pari (pat)dan yasalgani ko'p tarqalgan.*

Pero bilan ishlangan chizmatasvirga shtrixlar uslubi xarakterlidir. Metall pero (XIX asardan)da nozik va ravon chiziqlar chizish mumkin. Qamish perosidagi chiziqlar shiddatli xar xil xarakterda bo'lib, yengil o'zgaruvchidir. Qamish perosi g'oz pati perosiga texnika jixatidan yaqin bo'lib, imkoniyati chegaralangan. G'oz pati perosi akvarel rangtasvirida detallashtirish uchun yaxshi asbob xisoblanadi.

Chizmatasvir uchun pero uchi nozik chiqarilgan bo'lishi kerak. G'oz va qamish pero tayyorlash namunisi 4 g, d - rsmda keltirilgan. Qush patidan peroni ishga tayyorlash muhim bosqichi uni toblash. Buning uchun patni qumga solib 60 gradusda kizdirilganda pero qattikroq va egiluvchan bo'ladi. G'oz perosi bilan

A.S.Pushkin buyuk asarlarini yozishdan tashqari turkum portretlar ishlagan. Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra 50 dan ortiq portret xomaki chizgilar yaratgan. Metall peroning ixtiro qilinishi dunyo yozuv san'ati tarixida muxim rol o'ynadi. 1818 yili Germaniyada qog'ozga yozish uchun po'lat pero yaratildi.

1828 yili Germaniyada po'lat peroni g'oz perosiga moslab ruchka sifatida ishlatila boshlandi. Chizmatasvir amaliyotida po'lat pero keng qo'llanila boshlandi. Peroda ishlash texnikasi uchun egiluvchan po'lat, qalin, silliq pero va perodan yaxshi oqib tushadigan tush zarur. Agar pero uchi o'ta o'tkir bo'lsa, ayniqsa g'adir - budir

qog‘ozga chizish noqulaylikni keltirib chiqaradi.



**3-rasm. Chizmatasvir vositalari.**

Chizmatasvir uchun perolar ichida maktab o‘quvchisi uchun №11 va №86 “Soyuz” nomlisi keng tarqalgan. Ular bir-biriga o‘xshash, ammo №11 pero №86 ga nisbatan qattiqroq.

№23 pero unchalik bosilmasa xam ravon chiziqlar qoldiradi. Chizmatasvirda aniq vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan aloxida pero xisoblanadi.



**4 e-rasm. Peroda ishlangan natyurmort.**

№98 “Soyuz” perosi uchida ikkita kesikcha bulib, faqat yog‘on bir xil chiziq chizish mumkin. Chizmatasvir bajarish uchun yaxshirog‘i №201 “Soyuz” perosi xisoblanadi. Bu pero bilan va shuningdek, gelli ruchkalar xam mavjud bo‘lib, nafis, nozik va yog‘on chiziqlar chiziladi. Chizmatasvir uchun yaxshi silliq qog‘oz, fotoqog‘oz va xira qog‘ozlar xisoblanadi. Chizmatasvir uchun klassik instrument qamish perosi xisoblanadi. Bu peroda Rembrant, Botichelli, Pizanello, Frans Gals va boshqa rassomlar ishlagan. Xozirgi vaqtda xam grafik rassomlar va chizmatasvirchilar uchun uz qadrini yuqotmagan. Bunday perolarni qamishdan, bambukdan, shuningdek, pishgan bug‘doy va sholi poyasidan tayyorlanadi. Bu peroda chiziqlar yengil va enli chizish imkoniyatiga ega. Qamish perosi uchun

quvvatliroq qismini tanlab, o'tkir pichoqda burchak ostida kesiladi va ikki yon tomoni 4 g - rasmdagidek kesib, uchini ikkitaga bo'linadi. (4 d - rasm).

**Tush.** *Tush pero yoki kilcho 'p bilan chizmatasvir ishlashda keng qo'llaniladi.*

Tush gaz qurumi, spirt eritmasi, shelaka, glitserin, shakar, safro va antiseptikalardan tayyorlanadi. Suyuq tushdan tashqari qalamcha ko'rinishida xam ishlab chiqariladi.

Tushning muxim xususiyati o'ta qoraligida bo'lib, akvarel bo'yog'i bu darajada qora emas. Shuningdek organik bo'yoqlar asosida rangli tushlar ishlab chiqariladi. Rangli tush suyuq eritma va pastasimon ko'rinishda bo'lishi mumkin. Pastasimon tushga uch barobar suv qo'shib eritilib ishlatiladi.

Tush bilan ishlash akvarel texnikasi kabi ishlanadi. Ba'zi rassomlar chizmatasvir ishlashda aralash texnikadan foydalanib, tushni akvarel bilan va boshqa ashyolardan foydalanadilar.

Qora tushni suv bilan aralashtirishda uning rang tusi uzgartirilib qoradan kumushsimon kulrangacha xosil qilish mumkin.

Tush quriganidan keyin suvda erimaydi, chunki uning tarkibida shellak spirtli eritmasi bo'lib, faqat spirtida eriydi.

**Sepiya.** *Sepiya chizmatasvir uchun ashyo sifatida qo'llaniladi va ishlash texnikasi akvarelga uxshash. Sepiyaning tabiiy rangi, kulrangsimon - jigarrang bo'lib, tiniqligi bilan ajralib turadi. Suniy sepiya tabiiy sepiyadan har xil tuslari bilan ajraladi.*


**Tayanch iboralar:** ashyolar, flomaster, tush, sous, sepiya, pero, chizmatasvir,.

### **Savollar:**

1. *Chizmatasvir ashyolari nima?*
2. *Flomasterning qanday turlari bor?*
3. *Tushning qanday turlari mavjud?*
4. *Qog'ozga qanday talablar quyiladi?*
5. *Sepiyaning qanday turlari mavjud?*
6. *Peroning qanday turlari bor?*
7. *Tush nima?*

### 2.3. Chizmatasvir elementi va vositalari.


**Chiziq.** Qog‘oz yuziga tortilgan chiziq yoki chiziqcha chizmatasvirning asosiy elementlaridan hisoblanadi. U vazifasiga qarab xar xil xarakterga ega bo‘lishi mumkin.



5. a, b - rasm. Chiziq turlari

Chiziq yassi, bir xilda bo‘lib, xech nimani ifodalamasligi mumkin. Bunday xolatda chiziq yordamchi vazifasida bo‘lishi, ya‘ni u nisbatlarni belgilashda, natura chegaralarini xomaki chizmatasvirida belgilashi mumkin. Chiziqlar qalam yordamida goh noziklashib, goh yog‘onlashib, goh umuman uzilib kurinmas tuslarda hosil qilinadi. Ba‘zan qalam kuchining boricha to‘q qoramtir tusi xosil bo‘ladi. (5 a, b, v - rasm).

Ayniqsa Mikelanjelo chizmatasvirida erkak kishining yalong‘och qomati tasviridagi jozibali chiziqlar nisbati bunga misoldir. Har xil xarakterdagi chiziqlar rassomga plastik va makon vazifalarini yechishga katta yordam bergan. Qalamni kuchli bosish bilan qomatning yuqori qismi uzoqlashuvini ko‘rsata olgan.



5 v-rasm. Shtrixda tuslar nisbati.

Chizmatasvirning xar bir chizig‘i anatomiya va plastika tomonidan asoslanib tasvirlangan.

V.Serovning “Balerina Anna Pavlova” portretida chiziqlar jozibali go‘zal chizmasvirni yaratgan. (5 f - rasm).



**5 f - rasm. V.Serov. “Ballerina Anna Pavlova” portretei.**

Havaskor rassom chizmatasvirda chiziqlar yordamida murakkab shakllar yaratish mumkinligini sezmay, odatda yassi, shartli va bir xil chiziqlar bilan shakl, toshlar va daraxtlar chegaralarini bir xil chiziqlar bilan ishlab, shaklni, yorug'likni, muxitni xosil qila olmaydi. Muxit, makonni tavirlashda e'tiborsizlik bilan ishlab, fakat shakllar tashqi chegarasiga e'tibor beradilar xolos.

Uni mexanik nusxasini ko'chirib, kontur chiziqlar orasini yorug' va soya dog'lar bilan tuldiradilar.

Yassi chiziqlar san'atda o'z vazifasiga ega. U rangtasvir-bezak ishlarida; devoriy rangtasvirda, mozaykada, vitrajda, dastgoxli va kitob grafikasida, plakatda va jami yassi xarakterga ega bulgan asarlarda ishlatiladi.

Yassi va fazoviy chiziqlar orasidagi farqni avvaldan anglab olib, ularni keyinchalik chizmatasvirda xar xil elementlarini aralashtirib yubormaslik kerak.

Chizmatasvirning asosiy elementi-bu liniya (chizik) va shtrix.


Liniya - bu qalamning qog'ozdagi uzoq xarakatidir. Shtrix esa qisqa chiziq. Chiziq mustaqil axamiyatga ega bulishi mumkin. Shtrix boshqa shtirxlar yig'indisi bilan uyg'unlashadi.

3. a - rasmda chiziqning asta sekin shtrixga aylanishi kursatilgan; A - chizik; B - shtrix.

Bu o'tish bosqichlari chizmatasvirda qalamning badiiy vosita sifatida dinamik va egiluvchanligi haqida guvohlik beradi.

Chiziq va shtirxning vazifasi.

Chiziq shaklni chegaralaydi, shtirx esa tus va yorug'lik xosil qiladi. Shuningdek chiziq va shtrixlar uz vazifasini almashtiradi yoki bir-birini to'ldiradi. (6 a - rasm).



**6 a - rasm. Shtrixlar.**

Chiziq ko‘p roq tasvirning mustaqil elementi xisoblanadi. U shakl chegarasini aniqlaydi. Chiziq uzunligi qog‘oz tekisligiga nisbatan xar xil bo‘lishi mumkin. Shtrixning asosiy vazifasi-dog‘, tus va yorug‘likni aks ettirib ko‘p xolda mustaqil vazifasi va sifati uning soni bilan aniqlanadi.



**6 b - rasm Shtrixovka.**

Chiziqning shtrixdan farqi shundaki shtrix qog‘oz yuzasida qo‘l harakati va holati kabilarning yig‘indisiga bog‘liq<sup>1</sup>.

Shtrixlangan dog‘ chizmatasvir o‘ziga yarasha shartlilik xisoblanadi. Shtrixlar yig‘indisi qora va oq ko‘rinish yaratib xar xil taasurot xosil qiladi.

Shtrix ta‘siri xar xil bo‘lib uning yog‘onligi va xarakteri oq qog‘ozda joylashuviga bog‘liq. Shtrixlar guruhi darajasi juda ko‘p bo‘ladi.

### *Shtrixovka*

Bu usul shtrixlar orqali tus berishdir. O‘tkir qalamni uch barmoqda ushlab, tezlik bilan bir-biriga yaqin, uzoqda yoki bir-biri bilan bog‘lab ingichka shtrix chiziqlarda amalga oshiriladi. Shtrixlar Yo‘nalishi vertikal, gorizontal va qiya burchak ostida shakllar yuzasini, uning stukturasini, shaklini, o‘lchamini va

<sup>1</sup> А.Е.Хитров. РИСУНОК. Ленинград

boshqalarni tasvirlash mumkin. Shtrixlar yo'nalishi tasvir elementlarini ko'rsatishga xizmat qilib, u narsalar shaklni va o'lchamini nigoximsizda uzgartirishi mumkin. Burchak ostidagi shtrixlar tasiri nigoximizda kuchli bulmasligi mumkin. Shunga qaramasdan ung qo'l bilan yengil ishlangan shtrixlar ko'p xollarda ishlatiladi. Uni qo'l harakati bilan o'ngdan yuqoriga, chapdan pastga shtrix chiziqlar paralelligini saqlagan xolda bir xil tusda va bir xil intervalda chiziladi. Bunday shtrixlashni parallel deyiladi. Ko'ndalang shtrixlarni bir necha qatlam parallel shtrixlar yordamida amalga oshiriladi. Shtrixlar yo'nalishi xar bir qatlami yengil o'zgartiriladi, natijada romb shaklidagi setkalar xosil qilinib shtrixlangan xarakatli qomat xosil bo'ladi. (6 b - rasm). Chap tomonga qiyalashtirilgan shtrixlash kam xollarda ishlatiladi, chunki o'ng qo'l bilan shtrixlash qiyinchilik tug'diradi.


Bir xil tusli shtrixlar qatlamlarini xosil qilish uchun ochroq qismiga yana bir qatlam, tuqroq shtrixlar bilan amalga oshirish mumkin.

*Tushyovka.* Bu usulda shtrixlarni bir-biriga yaqin, qo'shilishi natijasida xosil qilinadi. Odatda grafit qalam uchining yon tomonini yotqizib soya beriladi.

***Chiziqdan foydalanish usullari.*** Tasvirlanayotgan qomat qismini atrof fonidan ajratib chiziq bilan chegaralab ko'rsatish chizmatasvirda muxim axamiyatga ega. Chizmatasvirni chiziqli tasvirlashda katta imkoniyat mavjuddir. Faqat chiziqlardan foydalanib, chizmatasvirga tus bermasdan shakl chegarasini ifodalashdan tashqari, shaklni makondagi xolatini, xajm va yuza xarakterini ochib tasvirlash mumkin.

Bir xil tutash kontur chiziqlar jozibasiz tasvirlansa, go'yo nutqda ovozni past va baland qilmasdan gapirgandek zerikarlidir. Chiziqlar xar xil tusda; o'ta qoramtir yoki o'ta oqargan, nozik va yog'on, silliq tutash va uzik-uzik bo'lishi mumkin. (6 g,d - rasm).

Chiziqlar xarakteri o'zgarishi albatta tasodifan bo'lmasligi kerak, u natura bilan aloqador bo'lishi zarur. Chizmatasvirni yanada jozibaliroq bo'lishida chizmatasvir vositalaridan nursoya muxim rol o'ynaydi. Nursoya shakl rel'efini chiqarishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Chiziqli chizmatasvirda rassomlardan Golbeyn, Dyurer, Engr, David chiziqlardan foydalanib ajoib asarlar yaratganlar. Rembrand va Repin chizmatasvirda nursoya ishlatib yorqin namunali tasvir ishlaganlar.



**6 v - rasm. Shtrix turlari va tuslar.**

“Chizish fakat oddiy kontur emas, balki ifodalash, plan, tus berishdadir. Chizmatasvir - bu rangtasvir tarkibining to‘rt dan uch qismini tashkil etadi” deb “chizmatasvir” so‘zini XIX asrning Rafaeli Fransuz rassomi Engr tushintiradi.



**6 f-rasm. Rubens ” O‘smir portreti”**



**6 g-rasm. Leonardo da Vinchi ”eskiz”**

Bu tushuntirishdan ma’lumki chizmatasvirni faqat kontur bilan tasvirlash kamlik qiladi, shaklning tashqi chegarasini belgilashdan tashqari uning xarakterini, rel’efini to’laqonli ochib berishda chizmatasvir va rangtasvirda tus berish nursoya orqali erishiladi.

**Tayanch iboralar:** chiziq, chizmatasvir, tus, shtrixovka, V.Serov.

### **Savollar:**

1. *Chizish nima?*
2. *Mikelanjelo chizishlardan qanday foydalangan?*
3. *V.Serov chizishlardan qanday foydalangan?*
4. *Chizishning qanday turlari bor?*
5. *Shtrixlash qanday amalga oshiriladi?*
6. *Shtrixlashda tus qanday amalga oshiriladi?*
7. *Tushyovka qanday amalga oshiriladi?*
8. *Yevropada saysi rassomlar chizishlardan foydalanib asarlar yaratganlar?*

### **2.4. Tus va faktura.**

Chizmasvirda oq-qora monoxromligi tusni tabiiy beraolish imkoniyatiga ega. Oq qog'oz yuzasida qora qalam shtrixlari vositasi yordamida tasvir xosil qilinadi.

Chizmasvirda qalam bilan xar xil xarakterdagi shtrixlarni qarama - qarshi joylashtirib (to'g'ri, egri, uziq - uziqva boshqalar) amalga oshiriladi. Shuningdek shaklning fakturasi va ashyoviyliigi ham bajariladi. *6b -rasm* yuqori qatorda doiralarni ko'ramiz. Ular bir xil shtrixlarning oralig'i xam bir xil masofada burchak ostidagi tug'ri chiziqlar yordamida amalga oshirilgan. Bunda tuslar bir xil ko'rsatilgan.

Ikkinchi qatorda: chiziqlar bir xil masofada joylashgan va ular bir xil burchak ostida, ammo yug'onligi xar xil. Natijada tuslar xar xil kurinishda.

Keyingi qatordagi uchta doirachalarda tug'ri chiziq bir yug'onlikda, xar xil burchak ostida va bir xil masofada tuslar esa bir xil.

5 *b - rasmda* tus bir xil, ammo shtrix chiziqlar xar xil kurinishda.

Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qatorda oqdan qoragacha tusda shtrixlangan tasvir ko'rsatilgan. Bundan ma'lumki shtrix chiziqlar turiga qarab xar xil faktura va tus xosil qilishi mumkin.

*a, b - rasmda* qarama - qarshi yo'nalishdagi shtrix chiziqlar yordamida amalga oshirilgan tus va fakturalar ko'rsatilgan.

6 *v - rasmda* kontur chiziqlarining qalamni xar xil kuch bilan bosish natijasida amalga oshirilgan chiziqlar ko'rsatilgan.

Oddiy chiziqlar perspektivada uzoqlashgan sari ingichgalashgan xolati va har xil yog'onlikdagi gorizontalar yordamida tekislik xosil qilingan. Shunigdek vertikal shtrixlar yordamida fazoviy muxit xosil qilingan. Uchta manzaraga e'tibor bersak ular fazoviy muxiti xar xillikka ega ekanligini ko'ramiz.

Nursoya yordamida tekislikda predmetga shakl beriladi va xajm xosil qilinadi.




*6.i-rasm.*

Nursoya shaklning chiziqli proeksiyasi bilan bir qatorda chizmatasvir asosini tashkil qiladi. Perspektivada konturni aniqlasa, nursoya yordamida relefni yoritilgan va qoramtir joylarini fonga nisbatan tarqalishini belgilaydi. Xaykaltaroshlikda yasash bilan, rangtasvirda esa nursoya yordamida xajm beriladi.

Leonardo da Vinchi nursoyaning dargasi xisoblanadi, u nursoya qonunlari xaqida ko'p qimmatli fikrlar yozib qoldirgan. "Soya o'z chegarasi darajasiga ega, buni kim bilmasa uning tasviri relefli bo'lmaydi". - deb yozadi.

Yorug'lik nuri predmetning xar xil yuzasiga tushar ekan, u notekis tarqaladi. Yuzaning bir qismi katta yorug'lik, boshqasida kam, uchunchisida yorug'lik nuri deyarlik tushmaydi. Yorug'lik kuchi yuzaga qanday burchak ostida tushishiga bog'liq.

Eng kuchli yorug'lik tekislik yuzasiga yorug'lik nuri perpendikulyar (tik) tushganda hosil bo'ladi. Lampachirok, sham va suniy yorug'lik manbalaridan tushayotgan yorug'lik kuchi uning masofasiga bog'liqdir. Yorug'lik manbai uzoqlashgan sari yorug'lik kuchi kamayadi, yaqinlashgan sari esa kuchayadi, yorqin yoritiladi. Nursoya shakl relefini ko'rsatishidan tashqari predmetni o'rab turgan fazoviy bo'shliqni ham ko'rsatishga imkon beradi.



**7 a-rasm. Geometric shakllar “shar”**

Uzoq masofada soyalar yo'qoladi, ya'ni ko'rinmas tus oladi. (7 a, b, v, g - rasm).


Nursoya chizmatasvirda qoramtir soya va yorug'lik qismi chegarasini ifodalaydi.

Nursoyani rassomlar kompozitsiyaning asosiy vositalaridan biri sifatida foydalanadilar.

Rembrand nursoyaning buyuk ustasi xisoblanadi. Uning asarlarida nursoya shakl formasini fazoda ifodalashda kuchli vositaga aylandi. Rangtasvir uchun cheksiz imkoniyatlar ochildi. Rembrand kartinalarida yorug'lik butun bo'shliqni qamrab olgan. Yorug'lik predmetlarni yoritishda tovlanib yaltiroq, shaklni jami qismini o'rab, kontur chiziqlarini yumshatadi va eng chuqur joy (plan)lariga kirib boradi. Rembrand asarlarida tomoshabinni kerakli joyga yo'naltirayotganday, diqqatini yo'llaydi, muhim qismini ajratadi, rassom g'oyasini muhim qismini ikkinchi darajali qismidan ajratib ko'rsatadi.

Nursoya chizmatavsirda ham, rangtasvirda ham bir xil axamiyatga ega bo'lib,

katta ro'l o'ynaydi. Nursoya san'atini o'rganish; tabiatda, predmetlar o'ramida kuzatish orqali erishish mumkin.



**7 b-rasm. Kub.**

“Nur va soya effektini o'rmonda, qishloq xovlilarida, shahar tomlarida, kunduz, kechasi kuzatib o'rganmas ekan, bunday rassom o'z faoliyatini to'xtatishi kerak, u xech qachon manzarachi rassom bo'la olmaydi” - deydi Didro. Nursoya va tus.Shakl ko'rinishi uning yoritilishi bilan aniqlanadi, u shaklni idrok qilinishidan tashqari uni chizmatasvirda aks ettirish uchun xam zarur.


Yorug'lik shakl bo'ylab tarqalar ekan uning rel'efi xarakteriga bog'liq bo'lib, xar xil tuslar xosil qiladi, ya'ni, eng oq tusdan uta qoramtir tuslarda kurinadi.Shunday qilib nursoya tushunchasi hosil buladi.

Nursoya ma'lum yorug'lik manbayini nazarda tutadi va shaklni bir xil rangda yoritadi. Masalan, kubni yoritilishini ko'rganimizda, uning yorug'lik manbayiga qarab turgan tomoni eng kuchli yoritilib oq rangda, qarama - qarshi tekisligi esa soyada, yarimsoya yorug'lik manbayining xar xil burchak ostida yoritilishida xosil bo'ladi, refleks-soya tomoniga yorug'lik nurining qaytib yoritilishida xosil bo'ladi, blik-yoritilgan tekislikning bir qismi bo'lib, yorug'lik manbayining yorug'lik kuchi xisoblanadi (asosan qiyshiq tekislik shakllarda ko'rinadi) va nixoyat shakldan tushayotgan soya. (7. a - rasm).

Yorug'lik nuri kuchining qamayishini, yorug'lik dog'lari shaklda joylashishining ketma-ketligi quyidagicha: blik, nur, yarimsoya, refleks, shaxsiy soya, shakldan tushayotgan soya.

Yorug'lik shakl ko'rinishini aniqlaydi. Har qanday shakl o'z xarakteriga ega. U to'g'ri va qiyshiq tekisliklardan yoki ularning nisbatlarida chegaralanadi.

Agar shakl qirralardan iborat bo'lsa, yorug'lik kuchi ozgina bo'lsa xam uning chegaralari aniq ko'rinadi. Agar shakl dumaloq yoki sharsimon (silindr, shar) bo'lsa, uning soya va yoritilgan qismi asta sekin bir-biri bilan tutashgan xolatda, ayniqsa o'ta to'q soya qismi yoritilish qismiga yaqin joylashadi, shakl soya chegarasida refleks paydo bo'ladi. Refleks yoritilgan qismidan to'q, soya qismidan ochroq ko'rinishda, ammo yoritilgan qismidan xech vaqt oq tusda bo'lmaydi. Masalan, shardagi refleks yorug' qismidagi yarimsoyadan to'qroq.



**7 v-rasm. Geometrik shakllar (prizma).**

Gurux geometrik shakllar postanovkasida yorug'lik manbayidan xar xil masofada joylashganida chapdan tushayotgan yorug'lik kuchi uzoqlashgan shakllarda o'z kuchini yuqotaboshlaydi.


Yorug'lik manbayiga yaqin joylashgan shakllarda yoritilgan va soya kontrasti kuchayadi, uzoqlashgan sari kontrast kamayadi.

Yuqorida faqat oq rangdagi gips shakllar haqida fikr yuritildi. Xaqiqatda esa tabiat, liboslar, yumshoq yorug'lik, keskin nursoya ko'rinishi chizmatasvirchi oldida bir qator vazifalarni oldiga suradi. Bularni yechishda faqat nursoya orqali yechish imkoniyati bo'lmaydi.

Shuning uchun chizmatasvirda rangtasvir termini - *tus* kirib keldi.

Masalan, kuk va sariq bir xil yoritilgan muxitda bittasi oqimtir, ikkinchisi tuq kurinishda. Och va tuq tus yordamida rangli kiyimlar, yuz, soch, kuz va boshqalarni rang xarakteristikasini kursatish mumkin. Masalan, sariq soyada kuk rumolni, binafsha kuylak, ok fartuk, kora tufflilar farkini tus orkali natura xarakterini tula ochib berish mumkin. Yoki portretida oq tanli va qora tanli kiyofani fon yordamida tus

nisbatlarida yechish mumkin. Natura rangi nursoya tushunchasini keltirib chikaradi.




**7 f-rasm. Portret.**

Tus nisbatlari xar doim o'zgaruvchan. Ular atrof-muxit va tasvirchidan shakllar uzoqlashgani sari o'zgarishi mumkin.

Nursoya va tus tushunchasi umumiy tushunchaga birlashtirilib, shartli nur kuchi deb ataymiz. Bunda tekislikni yoritish nur darajasi predmet shaklini xosil qiladi. Bu xolatda tasvirchidan yoritish manbayi uzoqligi, nurning burchak ostida tushishi, yuza rangi muxim rol o'ynaydi.

Naturada yoritilish nisbatlarini tug'ri aniqlash va uni chizmatasvirda tug'ri kursata olish - bu chizmatasvirda tus nisbatlariga amal qilishdir. Natura chizmatasvirida tus nisbatlariga amal qilishda ularning nixoyatda rang-barangligini esdan chiqarmaslik kerak. Qog'ozning oq tusi va shakl chizmatasviridagi eng tuq qoramtir qismi orasidagi nisbatlarini tug'ri topish muhim axamiyatga ega. Tavirda tus nisbatlari shartli ravishda belgilanmog'i kerak. Ana shundagina naturadagi tus nisbatlari saqlanib tekislikda shakl tasviri xosil qilinadi. Tasvirchi oldindan tus masshtablarini aniq belgilab olishi, ya'ni oq qismi va eng qora qismi (qalam, kumir)ni bir - biriga bo'lgan nisbatini aniqlab olishi lozim. Yorug' - soya asosiy nisbatlari orasidagi tus dog'lari gammasini belgilab olinadi.

Qoramtir joylarini ishlash qalam yoki ko'mir qoraligini xisobga olib, biroz tus berish imkoniyatini zaxirada qoldirish kerak. Aks xolda kerakli joylarini qoraytirish zaruriyati bo'lsa, uni amalga oshirib bo'lmaydi.



**7 c-rasm.L.Davinchi.” Perespektiva.**

xosil kilish rangtasvir ishlashda xam katta yordam beradi. Ranglarda xam ularning tus nisbatlarini to’g’ri ko’rsatish muxim xisoblanadi va bo’lajak rassomga ishlarida muvoffaqiyat keltiradi.



**7 g-rasm.L.Davinchi “Angora jangi” asariga ishlangan eskiz.**

**Nursoya va tus munosabatlari.** Jism va jussalarning xajmli shakli va ashyosi inson nigoxi tomonidan eng avvalo buyumning nur-soya xamda rang chegaralari vositasida qabul qilinadi. Shuning uchun xam tekislikda naturaning xaqqoniy tasvirini, makon va xajmni xosil qilish uchun buyumning perspektiv yechimlaridan tashqari xar bir shaklning nur-soya hamda tus munosabatlarini xam to'g'ri aks ettirish lozim.

Har bir xajmli shakl qiyshiq yoki tekis geometrik yuzalar bilan chegaralanadi, ular esa uz navbatida yoritilish jarayonida turli yorug'lik sharoitlariga tushib qoladi: buyumlarning turli yuzalariga tushayotgan nurlar ularni bir maromda yoritmaydi. Yuzaning ba'zi qismlariga ko'proq, ba'zilariga esa kamroq nur tushadi.

Buyum yuzasining yorug'lik darajasi o'zgarishi avvalambor uning nur tushayotgan manba bilan oraliq masofasiga bog'liq bo'ladi: yuzadan yorug'lik manbasi qanchalik uzoq bo'lsa, uning yuzasi shunchalik oz yoritiladi. Aksincha, yorug'lik manbasi qanchalik yaqin bulsa, uning yoritilishi shu kadar kuchli bo'ladi. (7 i - rasm).



Buyum yuzasidagi yorug'lik darajasini his qilish jismning tomoshabin bilan oraliq masofasiga xam **7 i - rasm. Tus nisbatlaridagi chizmatasvir.** bog'liq bo'ladi. Tomoshabin kurilayotgan buyumdan uzoqlashgan sari uning ranglari sekin-asta xiralashadi, soya joylar rang-tus esa oqarib boradi<sup>2</sup>.

Yuzaga yorug'lik nurining tushish burchagi xam tabiiy ravishda buyumning yorug'lik darajasi uzgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, jismga ro'paradan tik, ya'ni perependikulyar tarzda tushayotgan yorug'lik nurlari jismning eng kuchli yoritilgan qismi sanaladi. Yorug'lik nurlari yuzaga nisbatan qiyalashgani sari buyumga nurlar shu qadar kam yetib boradi va uning yoritilish darajasi

---

<sup>2</sup>Б.В.Иогансон. ЖИВОПИСЬ.

kuchsizlanadi.

Jismning yorug'ligi yuzaning o'ziga xos fakturasi xamda rangiga xam bog'liqdir: silliq va yaltiroq yuza g'adirroq va yaltiroq bo'lmagan yuzaga nisbatan ko'proq yorug'likni aks ettiradi. To'q rangdagi yuzalar esa yorug'lik nurlarini kuchli qabul qilgani sababli yorug'likni kam qaytaradi.

**Tayanch iboralar:** chizmatasvir, tus, yorug'lik, faktura, nursoya, shakllar, shtrixlash, soya, blik.

### ***Savollar:***

- 1. Tus nima?*
- 2. Tus qanday amalga oshiriladi?*
- 3. Nursoya nima?*
- 4. Nursoyaning chizmatasvirdagi roli qanday?*
- 5. Soya turlari qanday?*
- 6. Shaklda nur va soya turlari qanday?*
- 7. Shaklda nursoya va tus qanday belgilanadi?*
- 8. Nursoyada yoruzlikning roli qanday?*
- 9. Nursoya munosabatlarini qanday tushunasiz?*

### ***2.5. Chizmatasvir ishlash metodi.***

*Qog'oz yuzasida chuqurlikni sezish.*

Chizmatasvir ishlashdan oldin qog'oz yuzasini uch o'lchamda tasavvur qilish chizmatasviri ishlangan buyumni uch o'lchamda yaxlit joylashtirilgan xolatini ko'rabilish muxim ahamiyatga ega.

Chizmatasvir ishlayotganda qog'oz yuzasi haqida o'ylamaslik kerak. Qog'oz bo'shlig'ida tasvirning haqiqiy ko'rinishini uch o'lchamda aks ettiraolish haqida fikr yuritish lozim.

Katta chuqurlikka ega bo'lgan chizmatasvirni ishlashda birinchi plandan boshlanadi. Chunki oxirgi plan ishlangandan keyin birinchi plan shakllarini yetarli darajada tasvirlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Qog'oz tekisligida tasvir chuqurligini hosil qilish yo'llarini izlashdan oldin xona

ichini tasvirlash kabi, ya'ni, xonaning to'rt devori va pol, ship (potolog)ni esdan chiqarmasdan tasvirlash lozim.

#### *Tasvirda yaxlitlik.*

Biz bir harakat bilan chizmasvir ko'raolmaymiz. Biz g'ishtlar yordamida imorat qurganday asta sekin chiziklar, nuqtalar va dog'lar yordamida amalga oshiramiz. Qog'oz yuzida qalam harakatida umumiy g'oyaga bo'ysundirib naturaning yaxlit chizmasvirini xosil qilamiz. Chizmasvir ishlash jarayonida naturaning jami qismlariga katta e'tibor berib, har bir shtrix o'z o'rnida bo'lishini nazorat qilib borish lozim.

Tasvir ishlash chog'ida mayda qismlarini umumiy qismlarga mos ravishda diqqat bilan ishlab yaxlit shakl muhitini yaratish talab etiladi. Aks holda bitta qismida qo'yilgan xato boshqa jami qismlariga ta'sir qilib tasvirning yaxlitligini buzilishiga olib keladi.

Gurux komatlarni chizishda aloxida bir qiyofa yoki qomatni tasvirlash bilan ovora bo'lmasdan jami qomat yoki kiyofalarni bir-biri bilan bog'lab katta qismlarga bo'lib undan keyin mayda qismlarga ishlov beriladi.

Guruxlar tekislikda joylashuvi planlarda bo'lganida chiziqlar yordamida chuqurlik muxitini aks ettirishni esdan chiqarmaslik kerak.


#### *Shakl kurilishi.*

Chizmasvir ishlashdan oldin naturaning fazoviy muxitini, konstruktiv va dinamik xolatini aniqlab olish, ular shaklini, hajm tekisliklarini aniqlab boriladi. Natura chizmasvirini ishlashda qog'oz tekisligida shaklni ko'rish haykaltaroshlikda, arxitekturada qurilish ishlari kabi natijaga erishish kerak.

Naturadan chizmasvir ishlashda odam qiyofasi, manzara yoki natyurmort bo'lishidan qat'iy nazar uning shakl tuzilishi tasvirlanishi kerak. Unda plastik yechimi, massa yoki hajm ritmi, nursoya nisbati, hajm nisbati, shakl funksiyasi, muskullar harakati va boshqa kabilar bo'lishi mumkin. Bu mazmundagi talablar tomoshabin uchun tasvirning o'zagi bo'lishi kerak.

Naturadan chizmasvir ishlash metodi shunday bo'lishi kerakki, naturasiz ham ongimizda yaxlit tasavvur qilaolishimiz lozim. Odam qiyofasini chizishda uning

oyog'ini tasvirlayotib bosh qismi joylashishi va uni tasvirini unitmaslik kerak. Oldindan naturada eng asosiy muhim narsani ko'rish kerak bo'ladi<sup>3</sup>.



**8 a-rasm. Portret ishlashning konstruktiv bosqichi**

*Uch ulchamlilik. Hajm. Shakl*

Har qanday shakl hajmi uch o'lchamda aniqlanadi; uzunligi, eni va chuqurligi bilan. Uning hajmi deganda yuza chegaralarining uch o'lchamligi tushuniladi. Shakl bu tashqi ko'rinish, shaklning tashqi chiziqlari.

Tasviriy san'at shakl hajmi bilan ish olib boradi. Masalan, kubni tasvirlashda faqat uning ko'ringan tomonidan tashqari, ko'zga ko'rinmagan tomonlarini ham xisobga olmasdan tasvirlash mumkin emas. Kubni to'la idrok qilmasdan uni ko'rish ham, tasvirlash ham qiyin. Shaklni to'g'ri tasavvur qilmay uni tasvirlash bir tomonlama bo'lib qoladi. Chizmatasvir ishlashdan oldin shaklni to'la tushunish uchun naturani hamma tomonidan aylanib kuzatish zarur. Boshni fas (old) tomonidan ishlash uchun uni albatta profil tomonidan ham kuzatish lozim. Bosh biroz  $\frac{3}{4}$ (to'rt dan uch qismi) burilgan holatida quloqni ishlashda uning ko'rinmagan ikkinchi qulog'ini ham tasavvur qilmoq kerak. Burun tushgan ko'zni ishlashda uni to'la tasavvur qilish, faqat shtrix chiziqcha bilan belgilab chegaralanmaslik kerak. Tasvirchiga naturani hamma nuqtadan kuzatib va fakat bitta nuqtadan chizishni tavsiya etiladi. Oddiy shakllarda chizmatasvir ishlash qoidalarini egallab, keyinchalik murakkabroq shakllarni tasvirlash tavsiya etiladi. (8 a, b - rasm).

<sup>3</sup> Абдирасилов.С.Ф. Тасвирий санъат ва уни уқитиш методикаси. "ИЛМ ЗИЁ". Т.: 2011.



### **8 b - rasm. Odam boshining uch kurinisdagi chizmatasvirlari**

Shakl konstuksiyasi yoki qurilishi deganda uning qismlari joylashishida o‘zaro bog‘liqligi anglanadi. Konstruksiya tushunchasi hamma shakllarga xos bo‘lib, tabiat va inson qo‘li bilan yaratilgan oddiy va murakkab shaklar dunyosi kiradi. Rassom atrofidagi shakllarni faqat nursoya, tasodifiy xolatini ko‘rmasligi kerak. Shakl qurilishida uning qonunga muvofiq tuzilishini topish lozim. Bu qobiliyat naturadan ishlash jarayonida asta-sekin rivojlantiriladi. Shakllarni o‘rganishda tuzilishi murakkabroq naturani tasvirlash rassomni chizmatasvirga ongli ravishda yondoshishini talab qiladi. Ayniqsa inson qomati qurilishi qiziqarli. Uni tug‘ri tasvirlashda plastik anatomiya bilimi katta yordam beradi.

**Tayanch iboralar:** chizmatasvir, o‘cho‘lchamlilik, chuqurlik, yaxlitlik, shakllar, kompozitsiya, tus, blik, shtrixlash, nisbatlar, hajm.


#### **Savollar:**

1. Qog‘oz tekisligida chuqurlik nima?
2. Yaxlitlik nima?
3. Shakl surilishida qanday talablar bor?
4. Uch o‘lchamlilik nima?
5. Hajm nima?
6. Hajm bilan shaklning farqi nimada?
7. Hajm qurilishida nimaga e‘tibor berish kerak?

## 2.6. Ko‘zni yo‘lga qo‘yish.

Chizmatasvir dasturida talabani borliqni haqqoniy tasvirlashni o‘rgatish vazifasi qo‘yilib, naturani har tomonlama o‘rganish metodiga asoslanadi.

Dasturda oddiy geometrik shakllardan murakkab shakllarga (natyurmort, peyzaj, hayvonlar) va eng murakkab odam qomatini tasvirlashni o‘z ichiga oladi.



*Inson bosh suyagi.*

Dastur vazifalari metodik jixatdan ketma-ketlikda bo‘lib, yil sayin bosqichma-bosqich murakkablashadi.

Nafaqat o‘quv vazifalari murakkablashadi, unda chizmatasvir sifatiga qo‘yilgan talablar ham oshib boradi. Shunday qilib talabada kasbiy bilim va ko‘nikma sistemali boyitiladi, tasvirlash texnik usullari rivojlantiriladi.

Chizmatasvir dasturi talabani naturani ongli tasvirlashga bo‘lgan munosabatini tarbiyalaydi. Talaba shakllar qurilmasini va chiziqlar, nursoya va tus vositalari yordamida tasvirlashni bilishi kerak.

Shakllarni analiz qilib o‘rganishda uni kuzatishni ham bilishi kerak. “Tasvirlashni o‘rganish-bu ko‘rishni ham o‘rganish demakdir, ko‘rish esa-tushinmoq demakdir”, - deb yozadi N.N.Ge.

Shuning uchun dasturda aytilganidek, “Chizmatasvirga o‘rgatishning muxim vazifasi - talabani makondagi shaklni tasvirlash va ko‘rish qobiliyatini rivojlantirishdir”.

Ko‘rish qobiliyatini tarbiyalash deganda rassomchilik pedagogikasida “ko‘zni yo‘lga qoyish” termini bilan aniqlanadi. Ko‘rish va tasvirlash-bu shaklni uch o‘lchamda ko‘rish yoki rassomlar tilida “hajmli” ko‘rish demakdir. Hajmli ko‘rish nima degani? Hamma odamlar ko‘zi normal bo‘lsa, shakllarni hajmda ko‘radi. Bunday masala shundaki talabada shaklni hajmli ko‘rilib, tasvirlash usulini tushunish nisbiy jihatdan tarbiyalashni nazarda tutiladi. Ikki o‘lchamli tekislikda uch o‘lchamli shakllar tasvirini yaratish vazifasi turadi. Shakl ko‘rilishini tushunish

asosida uni tasavvurimizdagi muhitda (joyda) ko‘rishimiz, tasvirlashimiz kerak. Shuning uchun talaba oldida turgan qog‘oz tekisligiga derazadan ko‘ringan fazoviy muhit singari tasavvur qilib, shaklni nursoya va tus vositalarida ko‘rishi zarur.

Natijada talabada nursoya va tus shakl ko‘rilishida muhim vosita ekanligi uning ongiga asta-sekin singdiriladi. Shu bilan birga naturaning ahamiyati haqida tushuncha paydo bo‘lib, qog‘oz tekisligida shaklni tus yordamida aniq ko‘rilgan tasviri hosil bo‘ladi.

Talaba biroz vaqtdan keyin hajmli tasvirning vazifasini tushuna boshlaydi. Anashu vaqtdan boshlab chizmatasvir jarayonida ongli munosabat paydo bo‘lishi mumkin.

O‘quv chizmatasviriga asosiy talab-naturani aniq tasvirlashdadir. Naturani aniq, to‘g‘ri o‘lchamlarini topish bilan amalga oshiriladi. Ko‘z chamalashni tasvirlashda, ya‘ni, natura nisbatlarini xatosiz aniqlash qobiliyatini oshirishda ko‘zni yo‘lga qo‘yish muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa chuqurlikni o‘lchashda ko‘z chamalashini rivojlantirish muhimligini ta‘kidlash lozim.

Ko‘zda o‘lchash naturadan ishlash jarayonida ko‘rgazmali usullar orqali tarbiyalanadi.

Doimo chizmatasvirda aniq ishlash talabi talabada o‘z ishiga javobgarlikni, naturani diqqat bilan tahlil qilishni, sezishni ham tarbiyalaydi.


Naturadan aniq ishlashni rivojlantirish keyinchalik hayoldan, naturasiz ishlashni ham mukammallashtiradi. Bu esa kompozitsiya ustida ishlash uchun ham muhim.

Ko‘rish xotirasini rivojlantirish uchun yiliga ikki-uch marta xotiradan ishlash vazifasini ikki soatdan oshirmagan holda ishlashni taklif etiladi. Bunday chizmatasvirni takrorlash asosan navbatdagi chizmatasvir vazifasini ishlab tugatilgandan keyin, xotiradan ishlash vazifasini takrorlash kerak.

Chunki undan yaqin bo‘lsa talaba o‘z chizmatasvirini xotiradan takrorlashi mumkin. Bu maqsadda, ya‘na naturani bir necha daqiqa ko‘rsatib, keyin xotiradan ishlashni taklif qilish ham yaxshi natija beradi.

Ko‘zni yo‘lga qo‘yish muhim qism hisoblanib, talabada naturani yaxlit ko‘rish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Talaba chizmatasvir jarayonida naturani yaxlit

ko'ra bilishi va uni birichi darajali qismlarini ko'ra olishi zarur. Chizmatasvir ishlashda qomat yaxlitligidan detallarga, detallardan yana yaxlit ko'ra bilishni mashq qilish muhim hisoblanadi.



**8 v-rasm. Odam tanasi proporsiyasi.**


Shaklni ko'rish va proporsiyasini aniqlash, nursoya va shaklga tus berish chizmatasvirda bir vaqtning o'zida amalga oshirishni talab qiladi. Shuning uchun "yaxlit ko'rish"ga juda katta ahamiyat beriladi.

Shunday qilib talabada "shaklni ko'ra bilish va makonda tasvirlash qobiliyati" uning ko'zini "qo'yish" obraziga mos bulishi kerak.

U shaklni hajmda ko'ra bilish va "shaklli tasvirlash"ni o'rganishi lozim. (9 a, b - rasm).

Talabadan chizmatasvirda aniqlikni talab qilib, unda ko'z o'lchovini rivojlantirish, ya'ni, chiziqli va hajmli nisbatlarni ko'zda aniqlash qobiliyatini o'stiriladi.

Bundan tashqari talabani yaxlit ko'rishni, ya'ni, detal bilan ishlashda har doim ko'z oldida shaklni yaxlit ko'rish, ularni bir-biri bilan taqqoslash va yaxlitlikka bo'ysundirishni o'rgatish kerak.




**9 a - rasm. Odam boshi proporsiyasi (nisbat).**

## *Proporsiya (mutanosiblik)*

Chizmatasvir ishlash jarayonida proporsiyani his qilish asosiy elementdan biri hisoblanadi. Tasvirlanayotgan shakl qismlarini bir-biriga nisbatlarini ya'ni, masalan, bo'yi eniga nisbatan, kichik shakl katta shaklga nisbati kabilarni to'g'ri saklashni amalga oshiradi.

Chizmatasvirda masshtabni saqlagan holda naturadan katta yoki kichik nisbatda qog'oz yuzasida tasvirlash imkonini beradi.



### **9 b-rasm. Odam qomati proporsiyasi (nisbat).**

Odam boshini ishlash uchun uning yuz qismidagi shakllarni gorizontal chiziqlar bilan belgilab enini, balandligini xoxlagan o'lchamda ishlash mumkin. Bu o'lchamga nisbatan qolgan qismlari nisbati to'g'ri aniqlanishi kerak. Odam boshi masshtabi oldindan aniqlanib olinadi. Proporsiyada adashmaslik uchun bosh va yuz qismi oldindan o'lchamlarda va keyin o'lchamlari maydaroq nisbatlari aniqlanadi. (10 a, b, v -rasmlarga qarang).


Proporsiya nisbatlarini, ayniqsa odam bosh (portret)i tasvirida xatolikka aslo yo'l qo'yilmaydi. Bunda ozgina xatolikka yo'l qo'yilsa odam boshi naturadagiga o'xshashlik va harakter buziladi. Shuning uchun proporsiyani o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Qism o'lchamlarini o'zaro aniqlash qonunlari mavjud. Bu qonunlar chizmatasvir ishlashda katta rol o'ynaydigan vosita bo'lib, xatolikka yo'l quymaslikka yordam beradi. Masalan, ko'z oralig'i burun kengligiga tengligini bilib qo'yish foydali. Buni hisobga olib naturada ko'z oraligi

qanchalik uzoq yoki yaqin ekanligini aniqlash yengil. Shuningdek odam qomati buyi bosh qismi bo'yi nisbati  $1/7$

-  $1/8$  marta joylashishi mumkin. Qo'llarini gorizontal xolatga chuzganda uning uzunligi odam qomati bo'yiga teng.

Odam qomati nisbatiga ko'ra 8. - rasmda ko'rgazmali qilib ko'rsatilgan.

Ayol qomati proporsiyalari erkak qomatiga qaraganda biroz o‘zgacha, ko‘krak qafasi ensizroq, tas qismi kengroq. Katta yoshdagi kishiga nisbatan yosh bolaning boshi gavdaga qaraganda katta va hakozi.



**9 v- Leonardo da Vinchi. Inson yuzi praporsiyasi.**

Oldingi rassomlar odam qomati proporsiyasini chuqur o‘rganib, uning garmonik qurulishi qoidalarini izlaganlar. Bular orasida birinchi navbatda eramizdan oldingi V va VI asr xaykaltoroshlarini aytish mumkin. Shuningdek

Uyg'onish davri rassomlaridan Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Dyurerni aytish mumkin.


Mikelanjelo chizmatasvirida qomat proporsiyasi (10- rasm) sakkiz qismga bo‘linishida har bir qismi bosh kattaligiga teng qilib ko‘rsatilgan. Birinchi qism - bosh, ikkinchisi - jagning pastidan ko‘krak bezigacha, uchunchisi

- ko‘krak bezidan kindigacha, turtinchisi - kindikdan tas pastigacha, beshinchisi

- tas pastidan sonning o‘rtasigacha, oltinchisi - sonning o‘rtasidan tizzagacha,

yettinchisi tizzadan ikra muskulining pastigacha, sakkizinchisi - ikra muskuli pastidan tovongacha. Sakkiz bosh bo‘yi baland qomatlarda qo‘llash mumkin. Past


bo‘yli qomatlarda esa yetti bosh kattaligiga mosdir. Proporsiyani aniqlashda har xil qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin. Ulardan biri optik aldanish hisoblanib, masalan, bir xil oq va qora dog‘larni idrok qilishda oq katta, qora esa kichikroq ko‘rinada. Shuning uchun proporsiyani saqlashda qoramadan boshlab, ayrim detallariga hajmini ishlov berib tasvirlashda teng olib boriladi. Bunda qism o‘lchamlarini bir-biri bilan taqqoslab, oldindan belgilangan masshtabda davom ettiriladi.



*9 c-rasm.*

Proporsiyani aniqlashda ko‘prok ishlangan detallar yoki jozibali farqlari ahamiyatliligi kattaroq bo‘lib ko‘rinsa, xuddi shunday o‘lchamdagi detallar yaxshi ishlanmagani kichikroq bo‘lib ko‘rinadi. Chizmatasvirchi naturadan ishlayotib shuni esdan chiqarmasligi kerakki, bir xil uzunlikdagi gorizontal chiziq vertikal chizikka nisbatan uzunroq ko‘rinishdadir.

Qadim zamondan rassomlarda ko‘z (nigox) yordamida o‘lchamlarni va proporsiyani sezish, aniq topishiga katta e‘tibor berilgan. Bu masalaga Leonardo da Vinchi ko‘p diqqat qaratgan. Masalan, yerga qoziq qoqib undan uzoqlashganda masofa necha marta qoziq bo‘yi joylashishini aniqlash mashqini maslahat bergan.



**10 a-rasm. Shakllarning qisqarib ko‘rinishi.**


***Perspektivada shakllar.***

Tekislikda shakllarni haqqoniy tasvirlash uchun bizga ko‘rinayotgan predmetlar shaklini tasvirlashda uning xarakteriga va xususiyatiga; qurilishi (tuzilishi)ga, proporsiyasiga, hajmiga, ashyoligi (material)ga, makonda joylashuviga katta e‘tibor berish kerak. Qog‘ozdagi tasviri tomoshabinga shunday imkoniyat berishi kerakki, u tasvirni ma‘lum bir nuqtadan va ma‘lum yorug‘likdagi xaqiqiy holatdagiday seza olsin.

Aks holda tasvir haqqoniy bo‘lmaydi. Odatda bizning ko‘zimizga shakllar qaysi ko‘rinishdaligini aniqlab olishimiz va tasavvur qilishimiz kerak. Ba‘zilar o‘ylaydiki, biz predmetlar shaklini, uning aniq rangini qanday bo‘lsa shunday ko‘ramiz deyдилar. Bu unchalik to‘g‘ri emas.

Agar ko‘cha o‘rtasiga chiqib qarasak, ko‘cha bizdan uzoqlashgan sari kichrayib toraygandek bo‘lib ko‘rinadi. Ammo aslida ko‘cha eni bir xil. Tramvay relslari aslida paralel bo‘lib, ko‘zimizga uzoqlashgan sari kesishayotgandek ko‘rinadi. Simyog‘ochlar va odamlar bizdan uzoqlashgan sari kichrayotgandek. Binolar ham uzoqlashgan sari kichrayib ko‘rinadi. Katta masofadagi predmetlar yassi ko‘rinishda bo‘lib, chegara chiziqlari va detallari deyarlik noaniq ko‘rinishdadir. Shakllar ko‘rinishidagi o‘zgarishlar ma‘lum qonunga bo‘ysunadi, ya‘ni predmetlar makonda bizning ko‘zimizga ko‘rinishi bilan bog‘liq. Bu qonunni o‘rganuvchi fan perspektiva

deb ataladi. (10 g, d, e - rasmga sarang).



**10 b-rasm. Interyerda buyumlar perespektivasi.**

Chizikli perspektiva qonunlarini bilish odam portretini yaratishda yuzdagi shakllarni to'g'ri tasvirlashga imkoniyat beradi.


Chizikli perspektiva nazariyasi maxsus chizma geometriya kursida to'la bayon etiladi. Ammo naturadan chizmasvir ishlash jarayonida ularni to'la amalda qo'llanilmasligi mumkin. Har doim naturadan predmet chizmasvirini ishlayotganimizda, masalan, paralel chiziqlar uchrashuvi nuqtasidan foydalana olmaymiz. Chunki perspektivani to'g'ri ko'rish uchun chizmasvir qog'oz tekisligidan ancha uzoqda uchrashuv nuqtalarini ko'ra olmaymiz. Shuning uchun biz faqat kuzatish perspektivasining ayrim elementlari ustida, ya'ni, natura (odam boshi)dan chizmasvir ishlash uchun zarur bo'lgan bilimlarga to'xtalamiz.

Perspektivani to'g'ri ko'rish uchun chizmasvir qog'oz tekisligidan ancha uzoqda uchrashuv nuqtalarini ko'ra olmaymiz. Shuning uchun biz faqat kuzatish perspektivasining ayrim elementlari ustida, ya'ni, natura (odam boshi)dan chizmasvir ishlash uchun zarur bo'lgan bilimlarga to'xtalamiz.

*Perspektiva.* Ish yakunida chizmasvirchini perspektiva amaliyoti asoslari bilan tanishtirishni lozim topdik. Perspektivadan foydalanib shakllar guruxini, xonalar ichini yoki katta maydon (manzara)ni chizmasvirini ishlash mumkin. Perspektiva - bu geometrik - grafika metodi bo'lib, ko'z setchatkasida tasvir xosil qiluvchi hisoblanadi.

Perspektiva qurilishi yordamida tekislik yuzasida uch o'lchamli tasvir xosil bo'ladi.

Biz shakllarga bir ko'zimiz bilan qaraganimizda oldinda turgan shakl o'lchami katta, uzoqdagisi esa kichrayib ko'rinishini aniqlaymiz.



**10 v-rasm. Tabiatda buyumlarning qisqarishi.**

Ko'zimizga ko'ringan narsalar orasida ikki paralel chizikni tahlil qilsak haqiqatda ular paralel, ammo ular uzoqlashgan sari bir nuqtada kesishadi.

Agar ochiq dalada turganimizda ufq chizig'i gorizont bilan bir nuqtaga tushadi. (10 g,d,e - rasmlar).


Agar har bir gorizont paralel chiziklar o'z gorizont nuqtasida uchrashsa, ko'zimiz balandligidan pastda joylashgan shakl chiziklari gorizont chizigiga ko'tariladi, ko'zimiz balandligi bilan tenglari esa gorizont chizigiga tug'ri keladi, ko'zimiz balandligidan yuqori joylashganlari gorizont chizigiga pastlashadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, biz har xil masofada turgan odam qomatini chizganimizda (agar ularning buyi bir hil bo'lsa) boshi gorizont chizigiga tenglab chizamiz. Ularning oyoqdari esa bizga yaqin turganlari eng pastda va eng uzoqdagilari esa gorizont chizigiga yaqin joyda bo'ladi. (10 v,c - rasm).

Amaliyotdan ma'lum bo'ladiki fazoviy bo'shliqda chiziqlar uchrashuvini chizish yengil, yordamchi quruvchi chiziqlarsiz shakllarni uch o'lchamda tasvirlashni imkoni yoq.

Paralel chiziqlar chuqurlikka yaqinlashgan sari masshtabi ham o'zgaradi. Masalan, agar stolning yarmini aniqlash kerak bo'lsa, biz uni qog'ozdagi chizmatasvirni ikkiga bo'lib qo'yaolmaymiz. Chunki yarmisi yakindagiga nisbatan kichik bo'lishi kerak. Bunda shunday bo'lish usulini topish kerakki perspektiv qisqarishidan bog'liq bo'lmasin. Stolning diogonal chiziqlarining kesishuv nuqtasini

topib, perspektivadagi aniq qisqargan yarmini aniqlashimiz mumkin<sup>4</sup>. (10 a,b,c - rasmlar).



**10 c - rasm. Perspektivada odam qomati.**


Qo'llanmada chizmasvirchi amaliyotida uchraydigan shakllar xolatini jami ko'rinishini tushuntirish qiyin. Bizning vazifamiz - chizmasvir ishlash sistemasini tushuntirish, har xil shakllarda qo'llay olish va uni tasvirlashdan iborat.

Qo'llanma chizmasvir ishlash sistemasini o'z amaliyotida qo'llashni tavsiya etadi.

*Kuzatish perspektivasi elementlari.* Predmet shaklini idrok qilish perspektiv qisqarishi ko'rinishidan ko'ra oldindan bizga ma'lum bo'lgan shakl tuzilishiga bog'lik. Shuning uchun bilamizki bizning ko'zimizga paralel chiziklar uzoqlashgan sari o'zaro kesishadi. Ammo haqiqatda esa paralel chiziklar kesishmaydi. Ko'zimiz bilan kuzatgan narsa boshqa, xayoldan esa boshqacha idrok qilamiz. Malakaga ega bo'lmagan chizmasvirchi xona devorlarini, pol, potolog, deraza, devorga osilgan kartina ishonchli xolda bu xamma predmetlarni tug'riburchakda qabul qiladi. Aslida esa ko'z paralel chiziqlarni tug'riburchak chegaralaridagi paralel chiziqlarni uzoqlashgan sari kesishuvini, to'g'riburchaklarni-trapesiyada va turtburchaklarni har xil turlarini ko'radi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Современная энциклопедия. 2000.

<sup>5</sup> 1га ОобГьегд. Куи Уогк.2008.



**10. i - rasm. Perspektivada odam boshinig sismlar uolati.**

Bunday muxim idrok qilishda predmetlarni naturadan ishlashda ko‘p xatoliklarga yul qo‘yadilar.

**Tayanch iboralar:** ko‘zni yo‘lga qo‘yish, chizmatasvir, perspektiva, ko‘rish nuqtasi, shakllar, tus, qomat.

**Savollar:**

1. Ko‘zni yo‘lga qo‘yish nima?
2. Yaxlit ko‘rish nima?
3. Proporsiya (mutanosiblik) nima?
4. Nisbatlar nima uchun kerak?
5. Odam qomatini ishlashda nisbatlar qanday amalga oshiriladi?
6. Perspektiva nima?
7. Shakllar perspektivada qanday suriladi?
8. Perspektivada gorizont (ufq) chig'izi nima?

### III. BOB.

#### 3.1. Oddiy natyurmort chizmatasviri.

Oddiy natyurmort uchun ashyo va buyumlarni tanlash ancha murakkab jarayon. Chunki mavzuli natyurmortda narsalarni qo'yilmaga joylashtirish va uni yoritish katta e'tiborni talab qiladi.

O'quv vazifalari uchun qo'yilma (*pastonovka*) bo'lsa ham mavzu asosida natyurmort qo'yiladi. Atrofimizdagi narsalar inson mehnati natijasida yaratilgan bo'lib, insonlar bilan bog'liq. Shakllarni insonlardan ajratishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday natyurmort shakllar to'plamidan tashkil topgan bo'lib, insonning narsalarga bo'lgan munosabati va his tuyg'usini aks ettiradi. Yu.I.Pimenovning "Kutish" natyurmortida deraza oldida gushagi olingan oddiy telefon tasvirlangan bo'lib, insonning jo'shqin olami, hayot faoliyatini tomoshabinga ko'rsata olgan. Bu misolda malakali rassom ijodini ko'rish mumkin. O'quv jarayonida ijodiy vazifalarni talabalar ishida chegaralanmasligi lozim.



*11.a - rasm. Yu.Pimenov. Natyurmort*

Birinchi natyurmort qo'yilmasida murakkab vazifalarni yechish talablari maqsadga muvofiq emas. Shunday bo'lsa ham narsalarni natyurmort uchun tanlashda e'tiborsizlik qilmaslik kerak.

Buyumlarni natyurmort uchun ashyolar tanlash mavzu bilan uzviy bog'liq. Buyumlarni tanlashda shakllar xarakteri, kattaligi, rang kuchi, material (ashyo) va yuza fakturasi katta rol o'ynaydi. Kattaroq shakl yonlariga maydaroq shakllarni joylashtirilsa natyurmort qiziqarli bo'ladi.

Natyurmort postanovkasida shunga ahamiyat berish kerakki, u chiroyli va

jozibali bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Bir necha variant hosil qilib, har xil nuqtadan qarab bittasiga to'xtash kerak. Yoritishda esa shakllar bir-birini to'sib qolmasligi lozim.

11 b - rasmdagi natyurmort oshxona stoliga qo'yilgan bo'lib; to'qilgan idish savat, loydan yasalgan ko'za, oq xaltachada un yoki tuz va ikkita mato drapirovka bilan to'ldirilgan. Bittasi fon o'rnida devorga osilgan, ikkinchisi esa stolning chap tomonida dasturxon o'rnida ko'rsatilgan. Yoritilishida chiroq shunday qo'yilganki savatning soyasi ko'za shaklini yanada aniq ko'rinishini ta'minlagan, oq xaltachani ko'proq yoritgan.



***11 b-rasm. Natyurmort.***

Natyurmortga mavzu tanlashda, narsalarni saralash, ularni joylashtirish va natyurmortni yoritish umuman postanovka yoki kompozitsiya deb ataladi. Keyin natyurmort chizmatasviri kompozitsiyasi ustida ishlash, ya'ni chizmatasvirni qog'ozda joylashtirish bosqichi boshlanadi. Bu vazifani hal qilish uchun oldindan bir necha qoralama bajariladi. Qoramalardan eng yaxshisini tanlab chizmatasvir uchun qanday format qog'oz tanlash va eniga yoki gorizonta, uzunligiga joylashtirish aniqlanadi.

Natyurmortga har xil yuzali buyumlar qo'yilishi mumkin. Masalan, xira yuzali, yaltiroq yuzali va har xil ashyolardan; ya'ni, mato, metall, loy, chinnidan ishlangan idishlar qatnashganda blik (yaltirok joyi) oq rangi shakldan farqini tus berishda

aniqlik bilan ishlash lozim. Umuman chizmatasvirda tus berish vazifasi eng muxim jarayon hisoblanadi.

Tus berish bosqichida eng qoramtir shaklan boshlab yengil shtirx tuslaridan foydalanib bajarish lozim. Ozgina bo'lsada hatolikka yo'l qo'yilsa chizmatasvirni kutilmaganda xunuk oqibatga olib keladi. Ayniqsa blik bilan oq rangli joyini yoki qora shaklni soyalar bilan adashtirish tus nisbatlarini buzilishiga olib keladi. Chizmatasvirda tus berishni muvoffakiyatli xal qilish uchun ko'p mashq qilish kerak. Har xil natyurmortlar qo'yishda asta-sekin murakkablashtirib borilsa maqsadga muvofik bo'ladi. (11 a, b, v - rasm).



**11 v - rasm. Natyurmort pastonovkasi**

**Tayanch iboralar:** chizmatasvir, pastonovka, natyurmort, shakllar, uy anjomlari, kompozitsiya, qoralama, tus, Yu.Pimenov.

**Savollar:**

1. Oddiy natyurmortni gipsli pastanovkalardan farqi nima?
2. Oddiy natyurmort nimalardan tashkil topgan?
3. Yu.Pimenovning "Kutish" natyurmortida nimalar mavjud?
4. Natyurmortga qanday talablar qo'yiladi?
5. Natyurmort uchun shakllar tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
6. Natyurmortda matolarning roli qanday?
7. Oddiy natyurmortda tuslar qanday aniqlanadi?

### 3.2. Odam boshini konstruktiv yechimi.

Chizmatavirga o'rganishda oddiydan murakkabga o'tish metodik jihatdan o'rinli talab hisoblanadi. Shuning uchun odam boshi tuzilishini o'rganishda antiq haykallardan keng foydalaniladi. Antik gipsli haykallar aniq ishlangan qismlarini o'rganish pastki kurs talabalari uchun uslubiy qo'llanma sifatida qimmatli ahamiyatga egadir. Bosh shakli tuzilishi va qismlarini bir- biri bilan bog'lanishi, murakkab hajm qurilishi munosabatlarini chizmatasvir yordamida o'rganish kelgusi ishlariga katta yordam beradi.

Konstruktiv ishlash asosan chizmatasvirda shakl va qiyofalarni yirik qismlarga bo'lib ishlash tushiniladi. Bunda ekorshe haykalidek shakl tuzilishini qismlarga bo'lib chiqiladi va keyingi bosqichlarda ular bir-biri bilan birlashtiriladi.


11 a - rasmda kursatilganidek bajarish chizmatasvirda konstruktiv ishlashda shakl qismlarini his qilish rassom mahoratini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, boshqa shakl va qiyofalarni ham konstruktiv ishlash bosqichi talab etiladi. Bu jarayon tasvirlanuvchining shakl tuzilishini va ularning bog'lanishini his qilishga yordam beradi.

Jonli odam boshi chizmatasvirini o'rganish boshlangich amaliyoti bo'lib keyingi kurslarda jonli odam qiyofasini har xil ko'rinishlarda o'rganishga zamin yaratadi.

Bu jarayon rassomni aniq tasvirlashni, ko'zni chiniqtirishni, intizomga va estetik didini oshirishga xizmat qiladi, uni tarbiyalaydi. Tasvirlash jarayonida jonli odamlarni ishlashda, yuz tuzishi, burun, lab, ko'z, soch, tana tusini ko'rsatish kabi talablar amalga oshiriladi. Jonli odam boshini chizishda talaba bir qancha murakkab shakllar tuzilmasidan eng muximini ajratib olish vazifasi turadi.

12 a- rasmda ko'rsatilganidek odam boshi qismlarini nisbatini aniqlash maqsadida yengil chiziqlar bilan burun, ko'z, lab, yanaq suyaklarini belgilash va boshni ikki qismga bo'luvchi o'q chiziq ko'rsatilgan. Ana shunday qurilish chiziqlari yordamida yuz tuzilishi aniqlanadi.

12.a - rasmda ko'rsatilganidek odam boshini ishlashda yuz qismi shakllarini oldin konstruktiv qismlarga ajratib chiqish ko'rsatilgan. Keyingi bosqichda tus nisbatlarini saqlagan holda ishlab yakunlanadi. (12 a, b, v -rasmga qarang).




***12.a-rasm.Odam boshini ishlashda konstruktiv qismlarga bolish.***

Odam boshini ishlashda ustoxona sharoitida quyilmani devorga yaqinroq joyda va chiroqni yuqoridan chaproqda qiyalashtirib yoritish bosh qismlarini aniq ko‘rishga yaxshi imkon yaratadi. Suniy yoritilishda yorug' va soyalari, yarimsoya, reflekslar o‘zgarmaydi, bu esa uzoq muddatli ishlashni osonlashtiradi. Tabiiy yorug'likda kam kontrstda, soyalar harakatda bo‘lib, uzoq muddat ishlashni qiyinlashtiradi. Hamma tomondan yaxshi ko‘rinishi uchun pastonovkani urtaroqqa vagorizont chizig’idan yuqoriroqqa joylashtirish lozim. Asosiy vazifani bajarishdan oldin tanishuv uchun xomaki chizgilar ishlash yaxshi natija beradi. (12 a - rasm).Jonli odam boshini naturadan ishlash jarayoni alohida bosqichlardan iborat: *birinchi bosqichda* boshning o‘rta chizigi xolati, burilishi, yon tomonga egilishini aniqlab qog'oz tekisligiga joylashtiriladi.

Bosh tasvirini tekislikka joylab, yuz qismlarining asosiy o'lchamlari; jag'dan peshona do'ngligigacha, qoshdan burunning pastigacha, burun asosidan jag'gacha bo'lgan o'lchamlar belgilanadi. Ko'z chuqurchasining o'rni, qoshning tepa yoyi, yanaq suyagining chekkalari, quloq chuqurchalari va boshqalar ko'rsatiladi.

Yuz qismidagi burun, lab, yanaq suyaklari, jag'ning yuqori va pastki o'lchamlari, boshning vertikal chizig'iga nisbatan burilishiga bog'liq bo'lib qismlari perspektivada qisqaradi. Bularni naturada sinchiklab kuzatganimizda birinchi va orqa plandagilarni chiziqlar yordamida aniqlaymiz. Gorizontal (ufq) chizig'i pastda bo'lsa; burun, yanaq, peshona, jag'larning vertikal tekislikdagi qisqarishini ko'rishimiz mumkin. (12 a, b - rasm).



**12.a,b,g rasm.Odam portreti.yuz qismlarning birbiriga nisbatlari**

Bosh pastga egilgan bo'lsa yuqoridagilarning aksi holatini kuzatamiz.

Boshning rakurs holatini tayyorgarliksiz chizmatavirini ishlash qiyinchilik tug'diradi. Chunki shakl tekisliklari qisqaradi va tomoshabinga yakinlashgan shakll ulchamlari kattalashadi. Bosh gavda bilan bo'yin orqali garmonik bog'langan. Bo'yin silindr shaklga ega bo'lib, gavda bo'yin yog'onligida chegarasining ikkita paralel chiziq chizib aniqlash orqali bog'lanadi. Bundan tashqari bosh chap yoki unga burilgan bo'lsa, bo'yinning asosiy muskullar holati ham shunga yarasha o'zgaradi.

Ish jarayonida masshtabni o'rganish, ko'zni chiniqtiradi, qo'shimcha. usullarini

qalam yordamida tug'ri chizik bilan aniqlanadi. Ishlash jarayonining boshidan oxirigacha naturadagi katta hajm o'qini, mutanosiblikni sezish ko'zni chiniqtiradi. Boshning uzoqlashuvida asosiy qismlari qisqarishini umumiy hajmda kuzatib ko'rush jarayonida qayta-qayta tekshirib, aniqlab borish lozim. Naturani yaqqol tassavur qilish ko'zni mashq qilish natijasida erishish mumkin.

*Ishning ikkinchi bosqichida* boshni chiziqli ko'rushdan keyin shakllarga tus beriladi. Tus berishda eng qoramtir qismidan boshlanadi va tus nisbatlarini saqlagan holda yengil tuslab davom ettiriladi. Yoritish manbasiga yaqin shakllar soyasi tuqroq, uzoqdagilari esa biroz xiraroq ko'rinishda bo'ladi.




***12. v -rasm. Odam boshi konstruktiv surilishi va chizmatasvirni bosqichlari tusdaq ishlash.***

Boshning yoritilgan qismida anatomik jixatlari (bosh suyagi, mushaklar) aniqroq ko'rinadi. Shakldan shaklga o'tib ularni bir-biri bilan bog'lashni bilish uchun bosh suyaklari va mushaklarini yaxshi tassavur qilmoq kerak. Busiz naturani aniq tasvirlash asosini hal qilish mumkin emas.

Odam boshini ishlash paytida uning yoniga anatomik boshni qo'yish (masalan, G udon yoki Donatello haykallari) yaxshi natija beradi. Boshning suyak va muskullari orasidagi bog'likni bilib olish uchun yordam beradi. Boshning qurulmasini chizib o'rganish faqat o'quv darslaridagina emas, balki mustaqil uzoq muddatli chizmatasvirda ham plastik va konstruktiv tuzilishini amalda ishlab borish zarur<sup>6</sup>.

---

<sup>6</sup> Рисунок и живопись. "ИСКУССТВО" Москва.1968.



**12. g -rasm. Odam boshi konstruktiv surilishi va chizmatasvirni tusda ishlash bosqichlari.**

Boshning dumaloq (tuxumsimon) shaklini va uning alohida qismlarini ishlashda shuni esda tutish kerakki shakl berishda ortiqcha qoraytirishlardan holi bo'lishi lozim.

Boshning qurulmasida harakter va harakatini aniqlab, qismlarini umumlashtirib tugatiladi. Chizmatasvirda boshning qurulishini qayta-qayta nisbatlarini tekshirib yaqqol ko'rinish shaklida tasvirlanadi. (12 b, v, g - rasm).

Tasvirdagi shaklning obrazini, mukammal go'zalligini, uning badiiy qimmatini beraolish kerak.

**Tayanich iboralar:** odam boshi, gorizont chizigi, chizmatasvir, shakllar, tus, bosh suyagi, burun, lab, ko'z, soya.

**Savollar:**

1. Odam boshi qanday shakllardan iborat?
2. Odam boshi shakl tuzilishi qanday?
3. Gorizont chizig'i nima?
4. Odam yuz tuzilishi qanday shakllardan iborat?

5. *Odam boshini qog'ozga joylashtirish qanday amalga oshiriladi?*
6. *Gipsli boshni ishlash nima uchun kerak?*
7. *Odam boshini ishlashda perspektiva qanday aniqlanadi?*
8. *Odam boshini ishlash bosqichlari qanday?*



### **3.3. Odam bosh suyagi va ekorshe orqali odam boshi yechimi.**

*Odam bosh suyagi (cherep).* Plastik anatomiya fanida bosh suyakni anatomik, morfologik yoki antropologik farqli o'laroq o'rganadilar. Shunga qaramasdan antropologik kuzatishlar rassomlarga boshning shaklini va yuz tuzilishini chuqur tahlil qilishga imkon yaratadi. Shuningdek, gipsdan ishlangan ekorshe haykali chizmatasvir ishlab maxoratni oshirishga yaqindan yordam beradi. Ekorshe haykali yordamida bosh shakl tuzilishini tekisliklarga bo'lib aniqlash va yuz tuzilishini, jinsini, nisbatlarini bir-biriga bog'likligini anglashga qulay hisoblanadi.

Bosh suyak genetik qismdan: miya (peshona qismi), orqa miya qismi, yanoq va boshqa suyaklar; yuz qismida esa yuqori va pastki jag'lar, burun suyagi, ko'z chuqurchasi, yanoq o'simtasi va boshqalar hisoblanadi. Bosh suyagining yuz qismi kichrayishi va miya qismining kakttalashuvi hayvondan odam bosh suyagining evalyusion o'sishi tendensiyaga asoslanadi.

13.a - rasmda odam bosh suyagini uch ko'rinishda ishlash ko'rsatilgan. Bosh suyakni ham ekorshe haykaliga o'xshatib qismlarga bo'lib chiqish va uch holatini ishlash mavjud bo'lib, portretda muxim bo'lgan har xil ko'rinishlari tasvirlangan.

Rassomchilikda bosh suyakni o'rganish keyinchalik portret va odam qomatini tasvirlash uchun yordam beradi. Insoning xarakterini ochib berish, kasbini, jinsini ko'rsatish imkoniniosil qiladi. Keyinchalik boshqa har xil ko'rinishdagi odam boshini ishlashda amaliy vazifalarni bajirishga zamin yaratadi. Chunki portret janri taviriy san'atda eng murakkab janr hisoblanadi. Rassom odam boshini har xil holatlarda chizmatasvirini ishlash uning maxoratini oshiradi. Kelajakda portret ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.



**13. a-rasm. Odam bosh suyagi fotografiyasi va uch ko‘rinishda bajarilgan chizmatasviri.**

*Odam bosh suyagi va ekorshe orqali odam boshi chizmatasvirini ishlash bosqichlari:*


1. Ekorshe haykalini qog'ozga joylashtirish;
2. Ekorshe haykalini ishlash.
3. Ekorshe haykalini yengil chiziqlarda perspektiv xolatini aniqlash;
4. Ekorshe haykalini yengil chiziklarda yuz tuzulishi nisbatlarini aniqlash;
5. Ekorshe haykalini yengil chiziklarda tus yechimini aniqlab ishlash;
6. Ekorshe haykalini tus yechimi nisbatlarini saqlagan holda yakunlash;
7. Bosh suyakni qog'ozga joylashtirish;
8. Bosh suyakni yengil chiziqlarda ko‘rish; Bosh suyakni yengil chiziklarda tus yechimi nisbatlarini saqlagan holda yakunlash.

### 3.4. Odam boshining birlamchi qismlariga ishlov berish.

Odam bosh suyagi evolyusiyasi yoshiga, jinsi va millatiga bosh suyagi shakliga qarab konstruktiv uzgarishi rassomlar oldida ko‘p qirrali rang-baranglikni xosil qiladi. Bu bosqichda bajariladigan vazifalar ko‘rsatilgan. Bu bosqichda odam boshi tuzilishi va konstruktiv qismlarga ajratib belgilash aniqlangan.



*13.b –rasm.*



*13.v- rasm Erkak kishi portreti.*

Shuningdek, yuz tuzilishi, ko‘z, burun, lab, yonoq suyaklari nisbatlarini aniq

belgilab chiqilgan. Keyingi bosqichda esa yengil shtrixlar bilan tus berish amaliyoti bajarilgan. Umuman odam boshi (portreti)ni ishlash shu tarzda amalga oshiriladi.

Bu jarayonda ko'p mashq qilgan rassom kelgusida yaxshi portretchi bo'lib yetishishi mumkin. (*13 a, b, - rasmga qarang*).

Portret yaratishda bosh suyagini ko'rishdan tashqari bir qator muxim xarakterini ochib berish rassomdan moxirlikni talab qiladi.

*Odam boshini birlamchi kismlarga ishlov berish bosqichlari:*

1. Odam boshini qog'ozga joylashtirish;
2. Odam boshini qismlarga ajratib ashlash;
3. Odam boshini yengil chiziqlarda nisbatlarini aniqlash;
4. Odam boshini yengil chiziqlarda perspektiv xolatini aniqlash;

**Tayanch iboralar:** odam boshi, nisbat, qismlar, qog'oz, chizmatasvir, shakllar, kompozitsiya, tus, blik, shtrixlash.

#### **Savollar:**

1. *Odam boshi ishlashning boshqa postanovkalardan farqi nima?*
2. *Odam boshi yuz qismi nimalardan tashkil topgan?*
3. *Odam boshi holati qanday aniqlanadi?*
4. *Odam boshining yuz qismini ishlashda qanday talablar qo'yiladi?*
5. *Odam boshi yuz qismini shakllari nisbatlari qanday aniqlanadi?*
6. *Odam boshini ishlashda tus nima?*
7. *Odam boshini ishlashda perspektiva qanday rol o'ynaydi?*

### **3.5. Odam boshini uch kurinishdagi chizmatasvir.**

Odam boshini uch kurinishida ishlash tasviriy san'atda muxim hisoblanib, odam boshini har qanday ko'rinishda ishlashda uchalasi ham tasvirlanuvchiga o'xshash bo'lishini ta'minlash asosiy maqsad qilib olingan. Ana shunday mashqlar chizmatasvir maxoratini yanada oshiradi. Bulajak rassom uchun o'ta zaruriy amaliyot hisoblanadi.

Odam boshini ishlashda bir tekislik yuzasida uchta boshni kompozitsiyali qilib qog'ozga joylashtirish talab etiladi. Har bittasi yaxshi ko'rilgan, shuning bilan birga

tugallanish darajasi har xil bo'lishi mumkin. Bir bosh tavrini tekislikda ajratib, qolganlari esa unga yordamchi sifatida umumlashtirilib ifodalanadi.

1-kursda odam boshi chizmatasvirini ishlash umumiy qonunlar bilan tanishib, anatomiya bosh suyagi asosida uch xil ko'rinishda tasvirlashni amalda bajarib o'rganiladi. Yuz mushaklari va qismlarini tirik odam boshini ishlash bosqichlari boshqa odam boshi kabi chizmatasvir ishlash bilan bir xildir. Bosh chizmatasvirini ishlashdan oldin uning kompozitsiyasini qog'oz yuzasida yengil chiziklar yordamida kompozitsiyasini izlash lozim. Kontur chiziqlari yordamida boshning burilish xolatlarini, bosh ulchamlari nisbatlarini aniqlanadi. Keyin yordamchi chiziqlar o'tkazib bosh qismi tuzulishini belgilab chiqiladi. O'q chiziq yordamida burun asosi, lab va jag'ning pastki qismi aniqlanadi. Vertikal chiziq orqali boshning burulishi, egilishi va gorizont chiziqqa nisbatan xolati belgilanadi. Undan keyin boshning hamma shakllari (yuz, yonoq, jag', peshona usti) va perspektiv qisqarishlarini aniqlab, diqqat bilan peshona do'ngligi, ko'z chuqurchasi, burun old va yon tekisligi, burun qanotchalari, yanoq suyaklari va pastki jag' tekisliklari aniqlanib joylashtiriladi.

Yuzning hajm, harakter va nisbatlarini aniqlab, yengil shtrixlar yordamida nur-soya belgilanadi. Boshni hamma tomonidan ko'zatib uning yuz xarakteri aniqlanadi. Undan keyin nur-soya, reflekslarni aniqlab tuslari kuchaytiriladi, ortiqcha chiziqlar olib tashlanadi va umumiy xolatga buysundiriladi. Chizmatasvir ishlash jarayonida talaba diqqatini boshning nisbat (proporsiyalar)iga, kompozitsiya va xarakteriga qaratilishi kerak. Talaba naturani har xil burilishi xolatida kuzatishni, bosh tekisliklarini, muhitdagi xolatini, qismlarini o'zaro bog'likligini, uyg'unligini, yuz muskullarini nur-soya va tus, qismlari plastik yechimini, umumiy holatga buysundirish (yaxlitligi)ni aniqlay bilishi kerak. Odam boshini uch ko'rinishda ishlash uchun oldin bir ko'rinishi alohida bajarib, qolgan ko'rinishlari uchun o'z o'rnini boshqa joyga o'zgartirishi kerak bo'ladi. (*15-rasm*).

15-rasmda ko'rsatilgan chizmatasvirlarda bajarilish uslublari, dastxati, vazifalar dasturga muvofiqdir va badiiy realizm maktabi talabiga mos hisoblanadi.



**13.c-rasm.**

*Odam boshi uch ko‘rinishdagi chizmatasvirini ishlash boskichlari:*

1. Odam boshi uch ko‘rinishini qog'ozga kompozitsiya bo‘yicha joylashtirish;
2. Odam boshini uch ko‘rinishi xolatlarini aniqlash;
3. Odam boshi uch ko‘rinishini yengil chiziqlarda ishlash;
4. Odam boshi uch ko‘rinishini yengil chiziklarda perspektiv holatini aniqlash;
5. Odam boshi uch ko‘rinishini har birida yengil chiziqlarda yuz tuzulish nisbatlarini aniqlash;
6. Odam boshi uch ko‘rinishining har birida yengil chiziqlarda tus yechimini aniqlab shtrixlash;
7. Odam boshi uch ko‘rinishini har birida tus nisbatlarini saqlagan holda ishlab yakunlash;

**Tayanch iboralar:** odam boshi, uch ko‘rinish, qog'oz, chiziq, chizmatasvir, portret, yuz shakllari, kompozitsiya tus, shtrixlash.

### ***Savollar:***

- 1. Odam boshini uch ko'rinishda ishlash pastanovkasining farqi nimada?*
- 2. Odam boshini uch ko'rinishini ishlashda qanday joylashtiriladi?*
- 3. Odam boshini uch ko'rinishda ishlashda bosh holati qanday aniqlanadi?*
- 4. Odam boshini uch kurinishda nur-soya qanday amalga oshiriladi?*
- 5. Odam boshi holati qanday aniqlanadi?*
- 6. Odam boshini tus yechimi qanday bajariladi?*
- 7. Odam boshini uch ko'rinishda tuslar qanday aniqlanadi?*

### ***3.6. Xarakterli odam boshi.***


Xarakterli odam boshi chizmatasvirini o'rganishda oddiydan murakkabga o'tish metodik jixatdan o'rinli talab hisoblanadi. Chunki bunday odam chexrasi murakkab bo'lib psixologik portretga o'xshashdir. Shuning uchun odam boshi tuzilishini o'rganishda keng foydalaniladi. Yuz tuzulishining murakkabligi o'zgacha xususiyatga ega bo'lib rassomdan kuzatuvchanlikni, diqqatni talab etadi. Chexrasi aniq ishlangan qismlarini o'rganish pastki kurs talabalari uchun uslubiy qo'llanma sifatida qimmatli axamiyatga egadir. Bosh shakl tuzilishi va qismlarini bir-biri bilan bog'lanishi, murakkab hajm qurilishi, yorug'lik va nur-soya munosabatlarini chizmatasvirda o'rganish katta yordam beradi.

16 a - rasmda xarakterli keksa odam boshi tasvirlangan bo'lib yoritish manbayi pastdan qo'yilgan. Bunda an'anaviy yoritishga nisbatan yuz shakllari o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi va kelgusida kartina qaxromonlarini ishlashda katta rol o'ynaydi. Bunday quyilma akademik chizmatasvir dasturidan o'rin olgan bo'lab, rassom bilimini, maxoratini oshirishga yordam beradi. Portretida inson xarakterini ochib berish asosiy vazifa hisoblanadi.

Odam boshi chizmatasvirini o'rganish boshlangich amaliyoti bo'lib keyingi kurslarda jonli odam qiyofasini o'rganishga katta zamin yaratadi. Bu jarayon aniq tasvirlashni, ko'zni chiniqtirishni, rassomni intizomga va estetik didini oshirishga xizmat qiladi, tarbiyalaydi. Tasvirlash jarayonida jonli odamlarni boshini ishlashda yuz tuzilishi, ya'ni ko'z, burun, lab, jag', peshona kengligi, soch, tana tusini,

xarakterini kursatish kabi talablar amalga oshiriladi.

Jonli odam boshini chizishda talaba bir qancha murakkab shakllar tuzilmasidan eng xarakterli tomonini ajratib olish vazifasi turadi.



**13.f-rasm. Suniy yorug'likda tasvirlangan odam portreti.**

Odam boshini har xil xolatini ishlashda ustoxona sharoitida postanovkani devorga yaqinroq joyda va chiroqni yuqoridan chaproqda qiyalashtirib yoritish bosh qismlarini aniq ko'rishga yaxshi imkon yaratadi. Suniy yoritilishda yorug' va soyalari, yarimsoya, reflekslar o'zgarmaydi, bu esa uzoq muddatli ishlashni osonlashtiradi. Hamma tomondan yaxshi ko'rinishi uchun postanovkani o'rta va gorizont chizig'idan yuqoriroqqa joylashtirish lozim. Asosiy vazifani bajarishdan oldin xomaki chizgilar ishlash odam xarakterini aniqlashda yaxshi natija beradi. (16 a - rasm).

Naturadan ishlash jarayoni aloxida bosqichlardan iborat:

A. *Birinchi bosqichda* boshning o'rta chizig'i xolati, burilishi, yon tomonga egilishini aniqlab qog'oz tekisligiga joylashtiriladi. Bosh tasvirini tekislikka joylab, yuz qismlarining asosiy o'lchamlari; jag'dan peshona do'ngligigacha, qoshdan

burunning pastigacha, burun asosidan jag'gacha bo'lgan o'lchamlar belgilanadi. Ko'z chuqurchasining o'rni, qoshning tepa yoyi, yanaq suyagining chekkalari, quloq chuqurchalari va boshqalar ko'rsatiladi.



**14.a - rasm. Odam boshini uch bosqichga bo'lib chizmatasvirini ishlash.**

Yuz qismidagi burun, lab, yanaq suyaklari, jag'ning yuqori va pastki ulchamlari, boshning vertikal chizigiga nisbatan burilishiga bog'lik bo'lib qismlari perspektivada qisqarish mumkin. Bularni naturadan sinchiklab kuzatganimizda birinchi va orqa plandagilarni chiziklar yordamida aniqlaymiz. Gorizontaal chizigi pastda bo'lsa, burun, yanaq, peshona, jag'larning vertikal tekislikdagi qisqarishini ko'ramiz. (14.a - rasm).

Boshning uzoqlashuvida asosiy qismlari qisqarishini umumiy hajmda kuzatib ko'rush jarayonida qayta-qayta tekshirib, aniqlab borish lozim.

Naturani yaqqol tassavur qilish ko'zni mashq qilish natijasida erishish mumkin.

B. *Ishning ikkinchi bosqichida* boshni chiziqli qurishdan keyin shakllarga tus beriladi. Tus berishda eng qoramtir qismidan boshlanadi va tus nisbatlarini saqlagan xolda yengil davom ettiriladi. Yoritish manbasiga yaqin shakllar soyasi to'qroq, uzoqdagilari esa biroz xiraroq ko'rinishda bo'ladi.

Boshning yoritilgan qismida anatomik jixatlari aniqroq ko'rinadi. Shakldan shaklga o'tib ularni bir-biri bilan bog'lashni bilish uchun bosh suyaklari va mushaklarini aniqlamoq kerak. Busiz naturani mazmunini tasvirlash asosini hal qilish mumkin emas<sup>7</sup>.

Boshning suyak va muskullari orasidagi bog'likni bilib olish uchun ularni

---

<sup>7</sup> Бобомуротов З. ^аламтасвир - рангтасвир. Ук. кулланма. -Т., “Илм зиё”. 2017. 95 б.

belgilash zarur. Boshning qurulmasini chizib o‘rganish faqat o‘quv darslarida emas, balki mustaqil plastik va konstruktiv tuzilishini amalda ishlab mashq qilish zarur.

Boshning dumaloq (tuxumsimon) shaklini va uning aloxida qismlarini ishlashda shuni esda tutish kerakki shakl berishda ortiqcha qoraytirishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Boshning qurulmasida xarakter, yoritilish xolati va xarakterni aniqlab, qismlarini umumlashtirib tugatiladi. Chizmatasvirda boshning qurilishini qayta-qayta tekshirib yaqqol ko‘rinish shakli tasvirlanadi. (*16 a, b - rasm*).

Tasvirdagi shaklning obrazini, mukammalligini go‘zalligini, uning badiiy qimmatini beraolish kerak.

Uzoq muddatli chizmatasvir ishlashdan tashqari bir qog‘oz tekisligida 2-3 burilishdagi bosh tasvirini ishlash tavsiya etiladi. Uzoq muddatli chizmatasvir kompozitsiya vazifalari uchun ham muxim. Boshning fazodagi xolatlarini aniqlab, keyin esa qog‘oz tekisligida ishlanadi. Har 25 - 30 minutdan keyin ko‘rish nuqtasi va gorizont chizigini aniqlab, navbatma-navbat chizmatasviri naturadan ishlanadi.

Har xil nuqtadan boshning qurilmasi tashki shakllarning qisqarishi, egilishi va burilishi konstruktiv asosiga bog‘lik bo‘lib chizmatasvirda moxirlik va his qilgan holda ifodalanadi.

*Xarakterli odam boshi chizmatasvirini ishlash bosqichlari:*

1. Xarakterli odam boshini qog‘ozga joylashtirish;
2. Xarakterli odam boshi xolatini aniqlash;
3. Xarakterli odam boshi yengil chiziqlarda ko‘rish;
4. Odam boshi yengil chiziqlarda perspektiv xolatini aniqlash;
5. Odam boshida yuz tuzulishi nisbatlarini aniqlash;
6. Odam boshida tus yechimini aniqlab shtrixlash;
7. Odam boshi tus yechimini shtrixlab tus nisbatlarini saqlagan xolda ishlab yakunlash;

***Tayanch iboralar:*** xarakterli odam boshi, chizmatasvir, bosqichlar, yuz shakllari, kompozitsiya tus, shtrixlash, bosh suyagi, burun, bo‘yin.

### ***Savollar:***

- 1. Odam boshi shakli nimadan iborat?*
- 2. Odam boshi shakl tusi va yuz shakl tuzishi qanday?*
- 3. Odam boshi shakli holati qanday aniqlanadi?*
- 4. Odam boshi shakli qanday shakllardan iborat?*
- 5. Odam boshini ishlashda tus qanday amalga oshiriladi?*
- 6. Odam boshi shaklini ishlash nima uchun kerak?*
- 7. Odam boshini ishlashda nimaga e'tibor berish kerak?*
- 8. Odam boshini ishlashda perspektiva qanday aniqlanadi?*
- 9. Boshni ishlash bosqichlari qanday*

### ***3.7. Odam boshini yelka qismi bilan chizmatasviri.***


Bu vazifani amalga oshirishda qiyofachini tanlanganligiga bog'lik bo'ladi. Qiyofachini tanlashda uning uziga xosligi, xarakteri, yuz detallarining aniqligi va plastikasi qiziqarli bo'lishi zarur. Quyilmani qo'yishda. Yorug'lik tushishini shunday taqsimlash kerakki, uning o'ziga xos tomonlarini; qomat xolati va boshning gavdaga nisbatan burilishi, egilishi xolatlari aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

16-rasmda odam boshi yelka qismi bilan chizmatasviri ko'rsatilgan. Odam boshining yelka qismi bilan bog'likligini ko'rsatish asosiy maqsad qilib olingan. Odam boshini yelkaga nisbatan ko'rsatish va bo'yin qismi qanday bog'likligini amalga oshirish bajarilgan. Bunda odam boshining xolati, bo'yinning gavda bilan birlashishiga katta e'tibor beriladi va bosqich talablariga binoan bajarilgan.

Quyilmani quyishda qiyofachining tabiiy xolatini aniqlab, uning o'zi odatdagi xolatidan foydalanib quyishga harakat qilish kerak. Qiziqarli va yaxshi qo'yilgan qo'yilma talabalar tomonidan ixlos bilan ishlanib, vazifani bajarishda yaxshi natijaga erishishini ta'minlaydi. Qiyofachining libosi boshni yelka bilan ishlashda chalg'itmasligi, qomat shakllarini yaxshi ko'rinishini ta'minlashi kerak.

Odam boshi yelka qismi bilan qo'yilmasi fonida xalaqit beruvchi narsalar bo'lmasligi qomatning xolat siluetini yaxshi ko'rinishini ta'minlashi va asosiy qomatni chalg'itmasligi zarur. Agar odam qomati och tUSDagi fonda bo'lsa, uning

siluet xarakteriga katta e'tibor berish vazifaning muvoffaqiyatini ta'minlashda muxim vositalardan biridir. Uning yuzini uzoqdan ko'raolmasakda, siluet xarakteridan tanish bo'lgan kishini tanishimiz mumkin bo'ladi. (17 - rasm). Bosh bilan bo'yin orqali garmonik bog'langan. Bo'yin silindr shaklga ega bo'lib, bo'yin yug'onligi chegarasining ikkita vertikal paralel chiziq chizib aniqlash orqali aniqlanadi. Bundan tashqari bosh chap yoki unga burilgan bo'lsa gortan va bo'yin muskullar xolati ham shunga yarasha o'zgaradi.



**14.b-rasm. Odam boshini yelkasi bilan tasviri.**

Vazifani bajarishga kirishishdan oldin qiyofachidan qoralama ishlab o'rganishda qomatning umumiy xarakterini chizmatasvir kompozitsiyasini ko'rishida katta yordam beradi. Chizmatasvir ish boshidan bosh qurilishini va shakl xolatiga diqqat qaratilib, qiyofachining xarakterli detallariga urg'u beriladi.

Buyuk rassomlar portret asarlarini sinchiklab o'rganish mumkin. Golbeyn portretlarida esa; birida katta ko'zlar, ikkinchisida keng va og'ir pastki jag'lar,

uchunchisida o‘tkir uzun burunli insonlarni ko‘ramiz. Rassom insonni tasvirlar ekan, umumiy shakllar orasida xarakterli, o‘ziga xos detallarni topa olgan. Odam boshini ishlashda muxim qismlarini ajratib har xil darajada tasvirlash muxim rol o‘ynaydi. Masalan, Chistyakov portretida boshni ishlash xaqida shunday deydi. - “Ko‘z va ko‘z qorachig‘ini diqqat bilan aniq, tirikday jonli ishlang, burun va lablarni ham puxta ishlang, qolganlarini biroz yumshoqroq ishlang” Buni “Odam boshi yelkasi bilan”ga tatbiq qilib, bosh qismi va gavdani aniq ishlash lozim, libosni esa erkinroq ishlash mumkin.

Odam boshini ishlashda ko‘z muxim ahamiyatga ega. Ular ham bosh kabi katta ahamiyatga ega bo‘lib, betakror individual xarakterlidir. Ko‘z orqali yoshini, xarakteri ochib beriladi. Inson xarakterini jozibali ochib berishda ko‘z qarashliri xolatiga bog‘liq. V.Serov, A.Abdullaev, R.Axmedov portretlari talabalar uchun kurs vazifasini bajarishiga misol bo‘la oladi.

*Odam boshini yelka qismi bilan chizmatasvirini ishlash bosqichlari:*

- 1. Odam boshini yelka qismi bilan qog‘ozga joylashtirish;*
- 2. Odam boshini yelka qismi bilan quyilma holatini aniqlash;*
- 3. Odam boshini yelka qismi bilan shakllarini yengil chizg‘ichlarda ishlash;*
- 4. Odam boshini yelka qismi bilan yengil chizg‘ichlarda perspektiv holatini aniqlash;*
- 5. Odam boshini yelka qismini yengil chizg‘ichlarda yuz tuzulishi nisbatlarini aniqlash;*
- 6. Odam boshini yelka qismini yengil chizg‘ich’larda tus yechimini aniqlab shtrixlash;*
- 7. Odam boshini yelka qismi bilan quyilmasini tus yechimini shtrixlab tus nisbatlarini saqlagan holda ishlab yakunlash;*

### 3.8. Psixologik ayol boshi.

Chizmatavirga o'rganishda odam chexrasining psixologik xolati portret janrida muxim ahamiyatga ega. Shuning uchun odam boshi tuzilishini o'rganishda har xil kiyimlardan foydalanish chizmatasvirida keng o'rin olgan. Inson bosh qismida shakl tuzilishi murakkab shakllar qurilishi munosabatlarini chizmatasvirida psixologik xolatni o'rganishga katta yordam beradi.

Odam boshi chizmatasvirini o'rganish amaliyoti keyingi kurslarda har xil xolatdagi odam xarakterini o'rganishga katta zamin yaratadi.

Bu jarayon aniq tasvirlashni tarbiyalaydi. Tasvirlash jarayonida jonli odam boshini chizishda bir qancha murakkab shakllar tuzilmasidan eng muximini ajratib olish vazifasi turadi.

14. v- rasmda ayol boshi chizmatasvirida tasvirlanuvchining bosh qurilmasi, nisbatlar yordamida aniqlanib, bosh suyagi, mushaklari keksa odamga xos xarakterda bajarilgan. Odam boshini ishlash bosqichlariga itoat qilgan xolda chizmatasvir bajarish amalga oshirilgan. Odam boshi keksa ayolning uzoqlarga tikilib xayol surayotgan xolati ko'zi orqali ifoda etilgan.

Qo'yilmani hammada odam boshini ruxiy xolatini ishlash jarayoni aloxida bosqichlardan iborat: *birinchi bosqichda* boshning o'rta chizik xolati, burilishi, egilishini aniqlab qog'oz tekisligiga joylashtiriladi. Bosh tasvirini tekislikka joylab, yuz qismlarining asosiy o'lchamlari; peshona do'ngligi, qoshdan burunning pastigacha, burun asosidan jag'gacha bo'lgan o'lchamlar belgilanadi. Ko'z chuqurchasining o'rnini va qurilmasi, qoshning quyugligi, qoshni tepa yoyi, yanoq suyagining qurilmasi, quloq chuqurchalari, soch ko'rinishi va boshqalar aniqlanib ko'rsatiladi. Yuz qismidagi burun, lab, yanoq suyaklari, jag'ning yuqori va pastki o'lchamlari, boshning vertikal chizigiga nisbatan burilishiga bog'lik bo'lib qismlari perspektiv xolati aniqlanadi. Bularni naturada sinchiklab kuzatganimizda birinchi va orqa plandagilarni chiziqlar yordamida belgilaymiz. Gorizontaal chizig'i pastda bo'lsa; burun, yanoq, peshona, jag'larning vertikal tekislikdagi qisqarishini aniqlaymiz<sup>8</sup>. (14.v - rasm).

---

<sup>8</sup> ПИСУНОК. "ИСКУССТВО". Москва. 1965.



***14.v- rasm. Ayol boshi chizmatasviri.***

Shuning bilan birga jagning pastki qismi, burun asosi, koʻzning yuqorigi qismi gorizontall tekisligi kattalashadi. Bosh pastga egilgan boʻlsa yuqoridagilarning aksi xolatini kuzatamiz.

Chizmatasvirda nisbatni oʻrganish koʻzni chiniqtiradi, qoʻshimcha usullarni qalam yordamida toʻgʻri aniqlanadi. Ish jarayonining boshidan oxirigacha naturadagi hajm oʻqini, mutanosiblikni saqlash zarur.

*Ishning ikkinchi bosqichida* boshni chizikli qurushdan keyin shallarga tus beriladi. Tus berishda eng qoramtir qismidan boshlanadi. Yoritish manbasiga yaqin shakllar soyasi toʻqroq, uzoqdagilari esa biroz xiraroq qurinishda bajariladi.

Boshning yoritilgan qismida anatomik jixatlari aniqroq koʻrinadi. Shakldan shaklga oʻtib ularni bir-biri bilan bogʻlashni bilish uchun bosh suyaklari va

mushaklarini inchiklab kuzatish zarur.

Odam xarakterida psixologik xolatini ishlash paytida bosh suyakni yaqinroqqa qo'yish yaxshi natija beradi. Boshning suyak va muskullari orasidagi bog'likni bilib olish uchun bosh suyagi orqali aniqlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Boshning qurulmasida xarakter va xarakatni aniqlab, qismlarini nur-soya ku'rinishini umumlashtirib tugatiladi. Chizmatasvirda boshning qurulishini qayta-qayta tekshirib yaqqol ko'rinish shakli xosil qilinadi.

*Psixologik ayol boshi chizmatasvirini ishlash bosqchlari:*

1. Psixologik ayol boshini qog'ozga joylashtirish;
2. Psixologik ayol boshi xolatini aniqlash;
3. Psixologik ayol boshini yengil chiziqlarda nur-soyani belgilash;
4. Psixologik ayol boshini yengil chiziqlarda perspektiv xolatini aniqlash;
5. Psixologik ayol boshini yengil chiziqlarda yuz tuzulishi nisbatlarini aniqlash;
6. Psixologik ayol boshini yengil chiziqlarda tus yechimini shtrixlab ishlash;
7. Psixologik ayol boshini tus yechimida shtrixlab nisbatlarini saqlagan xolda chizmatasvirni yakunlash;

**Tayanch iboralar:** ayol, psixologiya, chizmatasvir, shakllar, kompozitsiya, nisbat, perspektiva, tus, bosqichlar, quyilma.

**Savollar:**

1. *Psixologik holat nima?*
2. *Tus va shakl tuzishi kanday?*
3. *Psixologik holat qanday aniqlanadi?*
4. *Odam boshi qismlari nisbatlari qanday aniqlanadi?*
5. *Boshni ishlashda perspektiva qanday aniqlanadi?*
6. *Boshni ishlash bosqichlari qanday?*


### 3.9. Tekshiruv vazifasi.

Odam boshi chizmatasvirini o'rganish boshlangich amaliyoti bo'lib, keyingi vazifalarda jonli odam boshini rakursda ishlashga zamin yaratadi.

Bu jarayon aniq tasvirlash jarayonida jonli odam boshlarini ishlashga nisbatan, uning ko'z, burun, qosh, lab, yanoq suyak shakllarin qurilishi va tusini rakursda kursatish kabi talablar amalga oshiriladi. Jonli odam boshini chizishda bir qancha murakkab shakllar tusulmasidan iborat bir fazifalarni bajarish lozim bo'ladi. Naturadan ishlash jarayoni aloxida bosqichlardan iborat: *birinchi bossichda* boshning o'rta chizig'i xolati, boshni burilishi, egilishi qisqarishini aniqkab qog'oz tekisligiga joylashtiriladi. Bosh tasvirini tekislikka joylab, yuz qismlarining asosiy o'lchamlari; jag'dan peshona do'ngligigacha, qoshdan burunning pastigacha, burun asosidan jag'gacha bo'lgan perspektivada nisbat o'lchamlari tepa yoyi, yanoq suyagining chekkalari, o'ng va chap qismlar, quloq chuqurchalari va boshqa xolatlar aniqlab qog'oz rasm tekisligiga joylashiriladi. Odam portetini ishlayotganimizda garizont tekisligi, hajmlar, tekisliklar, konstruksion qurilish, kompozitsion joylashuv, perespektiva, rakurs kabi tasviriy san'at qunun-qoidalariga amal qilish talab etiladi.



**14.c-rasm. Ayol kishining partretining ishlanish bosqichlari.**



**15.a-rasm. Qo‘li bilan ishlangan ayol potreti.**

Bosh tasvirini tekislikka joylab, yuz qismlarining asosiy o‘lchamlari; jag‘dan peshona do‘ngligigacha, qoshdan burunning pastigacha, burun asosidan jag‘gacha bo‘lgan perspektivada nisbat o‘lchamlari belgilanadi. Ko‘z chuqurchasining o‘rni, qoshning tepa yoyi, yanoq suyagining chekkalari, o‘ng va chap qismlar, quloq chuqurchalari va boshqa xolatlar aniqlab ko‘rsatiladi.

Boshning vertikal chizig‘iga nisbatan burilishiga bog‘liq bo‘lib yuz qismlari perspektiv qisqarishi aniqlanadi. Bularni naturada sinchiklab kuzatganimizda burun va jag‘ shakllarini chiziqlar yordamida aniqlaymiz. Gorizontal chizig‘i pastda bo‘lsa; burun, yanoq, peshona, jag‘larning vertikal tekislikdagi qisqarishi mumkin. (19 a - rasm qarang).



**15. b - rasm. Odam boshi rakursda.**

Shuning bilan birga jag'ning pastki qismi, burun asosi, koʻzning yuqorigi qismi gorizontall tekisligi kattalashadi.

- rasmda boshning rakurs xolatini tayyorgarliksiz chizmatavirini ishlash qiyinchilik tugʻdiradi. Chunki shakl tekisliklari qisqaradi va tomoshabinga yaqinlashgan jag' oʻlchamlari kattalashadi<sup>9</sup>. Bosh bilan boʻyin orqali garmonik bogʻlangan. Boʻyin silindr shaklga ega boʻlib, boʻyin yogʻonligi chegarasining ikkita vertikal paralel chiziq chizib aniqlash orqali aniqlanadi.

Ish jarayonida nisbatni oʻrganib, qoʻshimcha qismlarini qalam yordamida tugʻri chiziq bilan aniqlanadi. Ish jarayonining boshidan oxirigacha naturadagi katta hajm oʻqini, mutanosiblikni sezishga qaratiladi.

Bosh qismining uzoqlashuvida asosiy qismlari qisqarishini umumiy hajmda kuzatish jarayonida qayta-qayta tekshirib, aniqlab borish lozim. Naturani yaqqol tassavur qilish mashq qilish natijasida erishish mumkin.

*Ishning ikkinchi bosqichida* boshni chizikli qurushdan keyin shakllar tusi aniklanadi. Tus berishda eng qoramtir qismidan boshlanadi va tus nisbatlarini

---

<sup>9</sup> Узбекистан санъати. “Шарк” нашр.Т.; 2001.

saqlagan xolda yengil tuslanadi. Yoritish manbasiga yaqin shakllar soyasi to‘qroq, uzoqdagilari esa biroz xiraroq ko‘rinishda bo‘ladi.

Boshning yeritilgan qismida anatomik jixatlari aniqroq ko‘rinadi. Shakldan shaklga o‘tib ularni bir-biri bilan bog‘lashni bilish uchun bosh suyaklari va mushaklarini yaxshi tassavur qilmoq kerak. Boshning suyak va muskullari orasidagi bog‘likni bilib olish uchun ularni boshning qurulmasini chizib o‘rganish ham plastik va konstruktiv tuzilishini ishlab borish zarur.

Boshning dumaloq shaklini va uning aloxida xolatidagi qismlarini ishlashda shuni esda tutish kerakki shakl berishda ortiqcha qoraytirishlarga yo‘l ko‘ymaslik lozim.

Boshning qurulmasida xarakter va xarakatni aniqlab, qismlarini umumlashtirib bajariladi. Chizmatasvirda boshning qurulishini qayta-qayta tekshirib yaxlit ko‘rinish shakli tasvirlanadi. (*19 a, b - rasm*).

Tasvirdagi shaklning obrazini, xarakterini tasvirlash kerak.

Uzoq muddatli chizmatasvir ishlashdan tashqari qisqa muddatli chizmatasvir ishlash ham maxoratni oshirishda muxim hisoblanadi.

Har xil nuqtadan boshning qurilmasi tashki shakllarning qisqarishi, egilishi va burilishi konstruktiv asosiga bog‘liqlik bo‘lib chizmatasvirda moxirlik va xis qilgan holda ifodalash zarur.

**Tayanch iboralar:** rakurs, bosh, ko‘z, qosh, lab, egilish, bo‘yin, chizmatasvir, shakllar, tus, shtrixlash.

#### **Savollar:**

- 1. Rakurs nima?*
- 2. Rakursda shakl tuzilishi qanday?*
- 3. Rakursda perspektiv qisqarish qanday?*
- 4. Rakursda gorizont chizig‘i baland bo‘lganda shakllar holati qanday?*
- 5. Rakursda gorizont chizig‘i past bo‘lganda qanday amalga oshiriladi?*
- 6. Rakursda odam boshini ishlashda nimaga e‘tibor berish kerak?*
- 7. Bosh qismini ishlashda nimaga e‘tibor berish kerak?*
- 8. Rakursda odam boshini ishlash bosqichlari qanday?*

## IV BOB.

### 4.1. O‘quv - ijodiy amaliyoti.

Chizmatasvir –o‘quv ijodiy amaliyoti shakliga tasviriy san’atda muxim o‘rin beriladi. Plenerda ishlash imkoniyatidan foydalanish chizmatasvir texnikasida ishlash imkoniyatini oshiradi. Tabiatdan haqqoniy tasvirlashda chizmatasvir vositalari rassomni shakllanishiga yordam beradi. Talabalar amaliyotda tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlar (kunduzgi xolat, kechkurungi xolat, bulutli kun, tun, yil fasllaridagi o‘zgarishlar)ni kuzatadilar. (15 a-rasm).



*15.a– rasm. Zarisovka.*

O‘quv-ijodiy amaliyotining maqsadi talabalar bilimini boyitish, ijodiy kuzatishni oshirish, keyinchalik mustaqil ishlashga tayyorlashdir. Pastki kurslar amaliyot raxbar-pedagog raxbarligida qiziqarli tabiat va har xil mehnat sharoiti jarayonida o‘tkaziladi. Bunga qishloq va ishlab chiqarish tumanlarida amaliyot o‘tilishi yaxshi natija beradi. Odamni va tabiatni tabiiy xolatda o‘rganish asosiy vazifa bo‘lib oladi. (15. a,b,v,g,d,e-rasmlar).

Plenerda vazifalar bajarishda talaba chizmasvir ishlash ketma-ketlik metodikasiga suyangan xolda tekislikda tanlangan binoning kompozitsiya qurilishidan mayda qismlarini ishlashga xarakat qiladi. Chizmasvir vazifasi o'lchami bino xarakteriga qarab qog'ozning (A.O) choragi (A4) yoki yarim (A2) format atrofida tanlash mumkin. Amaliyot-o'quv jarayoninig davomi hisoblanadi. Chizmasvirga kuniga 3 soat va 2 soat mustaqil ish uchun ajratiladi. Vazifalar ishlashda kurslar bo'yicha ketma-ketlik va murakkablashuvi tavsiya etiladi.



**15.g-rasm. Plenerda shahar eskizi.**

Ishni oddiy narsalardan, masalan, alohida turgan daraxt tanlanishi mumkin. Bu vazifa qalamda bajariladi. Shuningdek po'lat va qamish perolardan ham foydalansa bo'ladi. Vazifani bajarishda ma'qul keladigan nuqtadan ufq chizig'i tanlanadi va natura orasidagi masofa ham shaklni qurishga mos bo'lishi kerak. Keyin esa daraxt tasvirini qog'oz teksiligida nisbatlarini saqlagan xolda joylashtirishni tasavvur qilmoq lozim. Ufq chizig'i balandligini aniqlab daraxt shoxlarining perspektivada qisqarishini, siluetini xisobga olib daraxtga tus yordamida tugallangan shakl beriladi. Bu vazifa daraxtning konstruktiv tuzilishi, shakllarining ritmi, tanasining yer bilan bog'liqligi xaqida tushuncha beradi. Nisbatlarni aniq belgilash ishning muxim

prinsipidir. Agar bir guruh daraxtlarni ishlash lozim bo'lsa avvalo uni formatga to'g'ri joylashtirish juda muhim hisoblanadi.

Vazifada katta manzara muxitini yashil o'simliklar, bino shakli va boshqa plastik komponentlar bilan bog'lanishini topish zarur. Bunda toshlar, suv, binolar qurilishi va boshqa komponentlar bo'lishi mumkin. Chizmatasvirni bajarishda yordamchi qoramalar ishlab shakllar tasviri ustida ish olib borilsa ish jarayonini boyitadi. Murakkab vazifaga ko'p planli manzara bo'lishi mumkin. Talaba uchun fazoviy muhit, xavo tinik qatlami, har xil plandagi shakllar to'plami xaqida tushunchaga ega bo'ladi. Manzara tasvirini ishlashda uning planlarida past-tekis adirlar, qoyalar, tog'lar, o'rmonlar, tekisliklar, daryo, ko'llar va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

Kurs vazifalarida odamni manzarada o'rganish muxim o'rinda turadi. Natura xarakterini o'rganishda uni har xil nuqtadan qoramalarini ishlash zarur. Shuning bilan birga odam qomatining qurilishini, yoritilishini va hajmini o'rganish vazifasi turadi. Siluet-tasvirlash usullaridan biri bo'lib, yorug'lik va soya kontrasti bilan boyitish tushunchasidir. Natura bilan ishlashda refleks tushunchasi, shakl ashyoviyligi va boshqalarda tasviriy san'at savodxonligini o'rganish asosi hisoblanadi. Chizmatavirda odam qomatini tasvirlash ob'ekti muhim hisoblanib, qandaydir mashg'ulot bilan aloxida bo'lishi qiziqarli obrazni yaratadi.



**15.d-rasm. Plenerda odam portreti qoramasi.**

Kursdan kursga o'tib borish bilan vazifalar murakkablashib boradi. Plenerda

ishlashning navbatdagi bosqichida portret (qo‘li bilan) manzara bilan bog‘lik holda ishlanadi. Bu postanovkada kompozitsiya yechimi va planlarda tus bog‘likligi ishlanadi. Bu talablar manzarada 2-3 qomat guruhi va quyoshda yoritilgan odam qomatini ishlash uchun ham taaluqli. (20 v - rasm).



**15.e – rasm.Odam boshi tasviri.**

Bu vazifalar qisqa va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Uzoq muddatli chizmatasvirda 2-3 qomat guruxini ishlash tavsiya etiladi. Bunday vazifadan maqsad kompozitsiya ko‘rishni chizmatasvirda va qoramada siluettlarni ma’lum darajada yorug‘likda tashqi ko‘rinishini haqqoniy xarakterini, xolatini kursatishdir. Talaba ish jarayonida yoritilish prinsiplarini va uning qonunlarini o‘rganishi kerak. Kuzatish natijasida xavo muxiti bulutli, quyoshli kunlarda tus va rang to‘yinganlik darajasini tasavvur qilib unga e’tibor bilan tasvirlanadi. Odamlar xakteri rang-barangligidan tashqari chizmatasvirda uning makonini, muhitini, ob-xavo xolatini, kun vaqti va boshqalarni ko‘rsatish lozim. Xira yorug‘likda shakllar o‘z chegaralarining ko‘rinishi kamayadi, bo‘lajak rassom bularni naturada ko‘rib chizmatasvirda aks ettirshi kerak.

Uzoq muddatli chizmatasvirda odam qomati detallariga chuqurroq, katta e'tibor bilan yondoshib, plener sharoitida tasvirlash vazifasi turadi. Tasvirlash uchun har xil yoshdagi odamlardan foydalanish Odamlar xarakteri rang-barangligidan tashqari chizmatasvirda uning makonini, muxitini, ob-xavo xolatini, kun vaqti va boshqalarni ko'rsatish lozim. Xira yorug'likda shakllar o'z chegaralarining ko'rinishi kamayadi, bo'lajak rassom bularni naturada ko'rib chizmatasvirda aks ettirshi kerak.

Uzoq muddatli chizmatasvirda odam qomati detallariga chuqurroq, katta e'tibor bilan yondoshib, plener sharoitida tasvirlash vazifasi turadi. Tasvirlash uchun har xil yoshdagi odamlardan foydalanish mumkin. Qisqa muddatli vazifalar uchun 2-3 qomatlarni ishchi xolatida; dalada, zavod maydonchalarida, o'rmonda, qurilish va boshqa xolatlarda chizmatasvir qoramalarini bajarishni ham o'z ichiga oladi.

Bunda gurux qomatlarining kompozitsiya qurilishi, qomatlar o'zaro aloqadorligi va ularni atrof muxit bilan bog'lash kabi muxim vazifalarni hal qilish amalga oshiriladi.

Amaliyot har doim ferma dalalarida, tog' yon bagirlarida, qishloqlarda, shaxarlarda, zavod va fabrikalarda, ayniqsa go'zal tog' manzaralarida o'tkazilishi yaxshi natija beradi. Talabalar xayotiy voqealarni, mehnat jarayonlarini, ishlab chiqarish shakllarini kuzatib, kelajakda kompozitsiya uchun ashyolar to'playdilar va xotira bazasini kengaytiradilar.

Muzeyda nusxa ko'chirish amaliyotidan keyin talabalar chizmatasvir bo'yicha mustaqil amaliyotga kirishadilar. Bu amaliyotda vazifalar odam tasviri bilan bog'liq bo'lib, ishchi, dehqon, xarbiy, ilmiy xodim kabi mehnatkashlarni tasvirlash nazarda tutiladi. Shuningdek, zavod va fabrika interyerlari, odamlar, mehnat qurollari bilan shug'ullanayotgan insonlarni ishlash tavsiya etiladi. Naturadan chizmatasvir ishlashdan tashqari kompozitsiya ustida ishlash ham zarur. Naturadan ishlangan chizmatasvirni keyinchalik litografiya, ofort, linogravyura bosmalarini oq-qora va ranglarda bajarish mumkin. Mustaqil amaliyotda tasvirlash uchun qiziqarli obrazdagi shakllar va qomat chizmatasvir uchun tanlanadi. Yuqori kurs talabalari uchun tasvirlanayotgan odam portretida ruxiy xolat, manzarada odamlar guruxini plastik o'zaro bog'liklik yechimi katta axamiyat kasb etadi. Yuqori kurs talabalari yakka

tartibdagi raxbar tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida ishlaydilar. Bo‘lajak malakaviy ishi uchun ashyolar yig‘ishga katta ahamiyat beriladi. Chizmatasvir asari uchun mo‘ljallangan shakl va qomatlar aniq mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Bo‘lajak asar eskizi (kuzatish orqali) asosi chizmatasvirda va qoramada (kompozitsiya qurilishi) ishlanadi. Buning uchun tanlangan asar mavzusiga aniq muxitni topish, natura (odamlar)ni xarakterini o‘rganish zarur. Chizmatasvir mazmun jixatdan xaqqoniy va mahorat bilan tugallangan bo‘lishi kerak<sup>10</sup>.

Yozgi amaliyot paytida qoramaga aloxida ahamiyat beriladi. Ular kuzatish qobiliyatni o‘stirib, kompozitsiyada fikrlash, ko‘z chamalash, masshtab, plastika sezishni rivojlantiradi. Qoramada odamlar harakati va ayrim voqealar tasviri yaratiladi.

Mustaqil ish asosida har kuni chizmatasvir bajarish har doim tinimsiz amalga oshirilishi lozim. Talabani hayot voqealarining muhim tomoniga yo‘naltirish zarur.

**Tayanch iboralar:** chizmatasvir, natyurmort, shakllar, uy anjomlari, kompozitsiya tus, blik, shtrixlash.

#### **Savollar:**

1. *Plener nima?*
2. *Plenerda nimani urganish mumkin?*
3. *Plener usul amaliyoti nima?*
4. *Usul amaliyoti qanday amalga oshiriladi?*
5. *Usul amaliyotida nimalarga e‘tibor berish kerak?*
6. *Usul amaliyoti qayerlarda bajarilishi mumkin?*
7. *Plenerda qoramalar nima?*
8. *Plenerda etyudlar nima?*
9. *Yozgi amaliyot bajarish vazifalari nimadan iborat?*

---

<sup>10</sup> Рисунок и живопись. “ИСКУССТВО”. Москва.1968.

#### 4.2. Uzoq muddatli chizmatasvirdan keyin xotiradan ishlash.

Chizmatasvir rassomning nafis qurolidek, ya'ni borliqni o'rganish vositasi, shuning bilan birga cheksiz rang-barang xaqiqatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Har bir rassom dunyoni bilish, fikrlash va ijod qilishda chizmatasvir yordamida amalga oshiradi. Talabani rassomchilikda erkin, mahorat bilan xotiradan chizabilish vazifasi badiiy ta'lim maktabining asosiy maqsadidir. Xotiradan ishlash vazifasi 1-2 kurslarda uzoq muddatli postanovkalarda amalga oshiriladi.

Natura chizmatasvirini o'rganishda uning tuzilish nisbatlari, konstruksiyasi xotiradan ishlash vazifalarida ham o'zaro bog'liq bo'lib ajralmas qismi hisoblanadi.

Agar talaba bosh suyagini ishlab turib uning tuzilish moxiyatini bilmasa, qismlarini bir-biri bilan bog'lamasa, xarakterini sezmasa chizmatasvirni uzoq ishlab tasviriy san'at vazifalarida jonli odam boshini muxitda xotiradan ishlay olmaydi.



**16.a-rasm.I.E.Repin. eskiz.**

Xotiradan aniq va realistik ishlangan chizmatasvir rassomning xotiradan uzoq muddat tinimsiz mashq qilish va uning bilimi natijasidir. Xotiradan ishlashda kuzatuvchilik qobiliyatini rivojlatirish usullari va har xil metodikasi: ustoxonada har kuni qoralama ishlash va anatomiya darsida pedagog yordamida, ko'chada qo'shimcha mustaqil chizmatasvir, hayvonot bog'i va bozorda, o'qigan adabiyotidagi

qiyofa va odamlar guruxi, dam olish bog'larida, inter'erda va shu kabi joylarda har kuni chizmasvir mashqlari, kuzatish orqali xotirani rivojlantiradi. (21 - rasm).

Talaba jonli naturadan uzoq muddatli chizmasvirda hamma detallarini ishlab tugatgandan keyin oxirgi ikki soatida postanovkaning bosh qismini xotiradan ishlashi ham yaxshi natija beradi.

Talaba natura boshini qaysi rakurs yoki tomondan ishlagan bo'lsa, shu xolatni xotiradan ishlaganida yaxshi natijaga erishadi, boshning burilishi ozgina bo'lsada o'zgarsa qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Chizmasvirda naturadan ishlash talabi qanday bo'lsa, xotiradan ishlashda ham shu bosqich va qonun - qoidaga bo'ysunish kerak. Xotiradan chizmasvir ishlashga kirishishdan oldin boshning burilishi va egilishi, xarakterini ochib beradigan nuqtadan qog'oz tekisligiga joylashtirishda yengil chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Proporsiya va mayda qismini butun umumiy qismiga bo'lgan nisbatlarini aniqlash, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki anatomiya va perspektiva qonunlari qurilishini aniqlash zarur.

Jonli odam boshi shakli o'ziga xos xarakterini hisobga olgan holda nur- soya va tus beriladi. Masalan, erkak kishining boshi baland peshonasi, keng bosh suyagi, qosh usti dungligi, chuqur joylashgan qora ko'zlari, yanoq suyagini bo'rtishi, uzun burun, qalin lablari, og'ir jag'lari va boshqalari. Har doim chizmasvir ishlash jarayonida anatomiya bilimlariga tayanish lozim. Ba'zan naturada boshni tasvirlashda peshonadagi ajinlar va yaltiroq (blik)joylari ko'p uchraydi. Peshona suyagi beshta tekislikdan iborat, boshning egilishi va burilishi gorizont chizigiga nisbatan perspektiv qisqarishini talaba umumiy xarakterini nazarga olsa boshni chizaoladi. Keyingi ishlar ham shu kabi davom ettiriladi. "Sen chizayotganingda doimo fikrla, - deydi rassom Chistyakov, - go'yo uch tomondan ko'rinishda chizayotganingdek". Jonli natura xarakterini o'zlashtirayotgan talaba faraz qilishi uchun keng imkoniyat ochib beradi. Chizmasvir mahorati erkin ishlash uchun tasviriy san'atga katta ixlos va bilim kerak bo'ladi. Chizmasvirni yosh rassom uchun hamma vaqt va hamma joyda, uning tabiiy talabi va ehtirosi bo'lib qolishi kerak.

**Tayanch iboralar:** chizmasvir, natyurmort, shakllar, uy anjomlari, kompozitsiya tus, blik, shtrixlash.

### ***Savollar:***

- 1. Odam boshi nimlardan tuzilgan?*
- 2. Odam boshini ishlashda nimlarga e'tibor berish kerak?*
- 3. Odam boshini hollati qanday aniqlanadi?*
- 4. Odam boshini ishlash bosqichlari nimlardan iborat?*
- 5. Xotiradan ishlash nima?*
- 6. Xotiradan ishlash nima uchun kerak?*
- 7. Xotiradan ishlash qanday amalga oshiriladi?*
- 8. Xotiradan ishlashda qanday ashyolar qulay?*

### ***4.3. Chizmatasvirni o'rganish jarayonida nusxa ko'chirishning ahamiyati.***

Taniqli keksa rassomlar asarlaridan nusxa ko'chirib o'rganish qadim zamonlardan qo'llanib kelingan. XIV asr oxirida Chennino Chennini yosh rassomlarga maslaxat berib shunday deb yozgan: "Buyuk rassomlar yaxshi asarlaridan qay birini topa olsang undan har doim nusxa ol va undan baxramand bo'lgin".

Nusxa ko'chirish usuli erta Uyg'onish davrida qo'llanilib odat tusiga aylandi. Ma'lumki Dyurer yoshligida rassom Mantenni gravyurvsini ko'chirib ishlagan. Luvr, Ermitaj va bir qator muzeylarda Rubensning Mikelanjelo, Rafael, Julio Romano, Perudjino, Koravadjo, Andrea del Sarto, Girlandayo, Leonardo da Vinchi, Korredjo asarlaridan ko'chirilgan nusxalari saqlanmoqda.

Chizmatasvir nusxalarida tugallangan yoki qisqa muddatli qoralamalarda Rubens antik, Uyg'onish davri san'at asarlarida odam qomati qurilishini va uning harakatini, odam qomati harakatida kiymlardagi buklamlarini o'rganganligi ko'rinadi.

Keksa rassomlar asarlari me'rosida katta qiymatga ega bo'lgan sirlar mavjud. Engr 87 yoshida Jotto gravyurasidan nusxa ko'chirgan. Nima uchun bu ishni qildingiz degan savolga: "O'rganish uchun" deb javob qaytargan. Kartina va chizmatasvir asarlardan ko'chirilgan ko'p sonli nusxalarni Eduart Mane, Dega, Renuar va boshqalar bizga me'ros qilib qoldirganlar.

XVIII-asrda Rossiyada Badiy Akademiya tuzilishi bilan nusxa ko‘chirish o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. Bunda gravyura, rangtasvir, chizmatasvirlardan nusxa ko‘chirish puxta o‘ylangan reja asosida qat’iy amal qilingan. Keyingi asrlarda ham nusxa ko‘chirish shu tarzda davom ettirilgan. “Bryullov xaqida esdalik” kitobida shunday deb yozgan:

“Akademiya o‘qishni davom ettirib Velaskesning etyudidan yetti marta nusxa ko‘chirgan va kitob ushlagan monaxning bosh qismidan yigirma marta nusxa ko‘chirgan”.



**16.b-rasm. A.vanDeyk. “Gentilechi portreti”.**

Rus rassomlaridan Venesianov o‘n ikki yilga yaqin nusxa ko‘chirishga hayotini bag‘ishlagan. Shuningdek A.Ivanov, I.Repin, V.Serov va boshqalar ham nusxa ko‘chirib maxoratini oshirganlar.

“Kim nusxa ko‘chirishni eplasa, u ijod qilishni ham biladi” degan iborani Mikelanjelo aytgan deb hisoblaydilar. Nusxa ko‘chirish talant bilan bog‘liq. Nusxa

ko‘chirish bardoshlilikni, tartibni, katta qiziqishni, haqiqiy asl asarga muxabbatni talab qilgan. “Nusxa ko‘chirayotib kayf qil” - deydi Chenino Chenini, boshqacha aytganda nusxa ko‘chirayotib asl asar go‘zalligini his qil, qalbingdan o‘tkaz”. Eski Badiy Akademiya maktabida o‘quv nusxa ko‘chirishdan pedagoglar talabalarga maslaxat berib aktiv bo‘lishni tavsiya etib, “Agar imkon topsang asliga nisbatan yanada yaxshi qilib nusxa ko‘chir”-deganlar. Bunday yondoshishda ko‘r-ko‘rona emas balki, diqqat bilan qarashni talab qilgan. Nusxa ko‘chirish jarayoni nafaqat ko‘z va qo‘lni rivojlantirgan, balki ijodga yo‘naltirgan.



**16.c –rasm. Joze de Rivera. eskiz.**

Nusxa ko‘chirish orqali san‘atga bo‘lgan qiziqish oshadi va rassom sifatida o‘zini kashf qiladi.

Keksa rassomlar me‘rosini o‘rganish o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, nusxa ko‘chirish uchun namunalar kurs postanovka vazifalari bilan bog‘langan holda berilishi yaxshi natija beradi.

Buyuk rassomlar me'rosini o'rganish talabani badiy bilimni, madaniyatini, didini, chizmasvir milliy maktabini va uning ustalari xaqida bilimni oshiradilar. Talabani chizmasvirda har xil badiy usul va vositalar bilan tanishtirib, ularni amalda qo'llash bilimni oshiradi. Keksa rassomlar qog'oz, ko'mir, sangina, grafit, siyoh tush, akvarel kabi quruq va namli chizmasvir ashyolarini bir asarda jamlab bajarishni bilganlar, ashyolar xususiyatini tushunganlar. Puxta o'ylab tanlangan ashyo va uslub rassomga ijodiy g'oyani ochib berishda yordam beradi. Keksa rassomlar chizmasvir ashyolariga katta hurmat bilan qaraganlar, ulardan ko'p narsani o'rganish mumkin.

Nusxa ko'chirish aslini ko'r-ko'rona ko'chirish jarayonida bo'lmasligi kerak, aksincha ongli ravishda va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Nusxa ko'chirishda asliga qarab ko'chirish imkoni bo'lmasa, sifatli "faksimil" reproduksiyadan ko'chirish ham mumkin. Chizmasvirdan fotografiya nusxasi qanchalik yaxshi bo'lmasin, aslidek bo'la olmaydi.

Misol uchun Golbeyn va boshqa rassomlar chizmasvirini nafis tomonlarini fotografiya aslidek ko'rsata olmasligi mumkin. Chizmasvirda betakror go'zallikni, jozibalikni, ruxiyatni berishda "nimadir" yo'qoladi.

Agar 1-kurs dasturida odam boshini o'rganish bo'lsa, yaxshi bajarilgan bosh tasvirlaridan nusxa ko'chirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chizmasvirning ashyo va uslubiga, anatomik yaxshi ishlanganligiga, tus va nur-soya yechimiga diqqatni qaratish kerak.

Chizmasvir postanovkasi xarakteriga qarab, nusxa ko'chirish uchun tanlashda syujeti va mavzusi o'zgarishi mumkin. Yuqori kurslarda chizmasvir tanlash erkinroq bo'lishi mumkin. Bunda chizmasvirdan nusxa ko'chirish murakkabroq texnikada, ya'ni, ko'mir, sangina, pero, aralash texnikalarni tanlashga ruxsat beriladi. Nusxa ko'chirish uchun aslini tanlashda o'qituvchi yordami zarur.



***17.a-rasm. "Dovud" haykali boshining chizmasviri.***

Ko'pchilik talabalar qalamda ishlash texnikasini, nur-soya va tuslar yoyilmasidagi farqlarini yaxshi bilmaydilar, kontur chiziklarida jozibalikni izlashda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Naturadan chizmasvir ishlashda ba'zi kamchiliklarni o'z vaqtida tug'rilashga yo'naltirish zarur.

Keksa rassomlar asarlarini o'rganish shakllaridan biri bu o'qituvchining ustoxonada, kutubxonada, muzeylarda suhbat olib borishidir.

Har xil mavzuga bag'ishlangan chizmasvir badiiy ko'rgazmasi; ya'ni, portret, yalong'och va kiyimdagi qomatlar, manzara, keksa rassomlarning kartina uchun

ishlangan yordamchi chizmatasvirlari, chizmatasvir eskizlari, detallar (bosh, qo'l, oyoq), anatomiya chizmatasviri, hayvonlar chizmatasviri talabalar uchun juda foydali. Ko'rgazmada har xil chizmatasvir maktabi va ularning usta rassomlari ishlari bilan tanishish ham qiziqarlidir. Ular talabalarning yaxshi xotirasida qoladi.

Ta'lim muassasasi uslubiy jamg'armasida yaxshi chizmatasvir namunalaridan saralangan ishlar yig'ilgan bo'lib, o'quv chizmatasviri rivojlanishini ko'rsatadi. Jamg'armadagi ishlarda vaqti-vaqti bilan mavzuli ko'rgazma tashkil qilib o'qituvchilar hamkorligida uchrashuv va suxbatlar o'tkazilishi foydalidir. Keksa rassomlar ishlaridan nusxa ko'chirish va o'rganishda bajarilgan talabalar ishlarini har tomonlama qo'llab - quvvatlash zarur. Yaxshi bajarilgan chizmatasvir nusxasini jamg'armaga ajratib ko'rgazmalar tashkil qilish ham foyda beradi. Bu buyuk rassomlar ijodiga qiziqishni oshiradi albatta.

Buyuk rassomlar asarlaridan nusxa ko'chirib o'rganish chizmatasvir maxoratini oshirishga yordam berib, estetik didni tarbiyalaydi va umumiy badiiy madaniyatni boyitadi.

**Tayanch iboralar:** chizmatasvir, natyurmort, shakllar, uy anjomlari, kompozitsiya, tus, blik, shtrixlash.

#### **Savollar:**

1. Nusxa ko'chirish qanday amalga oshiriladi?
2. Nusxa ko'chirishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Nusxa ko'chirishda nimani o'rganish mumkin?
4. Nusxa ko'chirish usul amaliyotining mohiyati nima?
5. Nusxa ko'chirish amaliyoti qanday amalga oshiriladi?
6. Nusxa ko'chirishda nimalarga e'tibor berish kerak?
7. Nusxa ko'chirish qayerlarda bajarilishi mumkin?
8. Luvr, Ermitaj va bir qator muzeylarda kimlarning asarlaridan nusxalar saqlanmoqda?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev N.X. “Chizmatasvir”. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod – moliya, 2010-yil.
2. Abdirasilov S.F. “Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. –T.: . Ilm-Ziyo, 2011.
3. Abduraximov L.X. “Qalamtasvir”. O‘quv qo‘llanma. –T.: Lesson-Press 2021-yil.
4. Abdihamidov S.M. “Tasviriy va amaliy san’at (Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi)”. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Malik Print Co” MCHJ. Chirchiq-2021.
5. Aripova M. “Gips shakllarni chizmatasviri” O‘quv qo‘llanma. –T.: CHashma print, 2011
6. Jumaniyazov SH.R., Xaitov E.X. “Chizmatasvir”. O‘quv qo‘llanma. –T.: Nashr “INFO CFPITAL GROUP” 2018.
7. Mamatqulov I.Ch. “Qalamtasvir”. O‘quv qo‘llanma. –T.: Lesson-Press 2022-yil.
8. Muxammadiyeva Z.B. “Umumta’lim va kasb-hunar maktablarida tasviriy san’at fanlarida o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. “Lesson Press”. 2022-yil.
9. Muhammadiyeva Z.B. “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”. Uslubiy qo‘llanma. –T.: Lesson-Press 2023-yil.
10. Muratov X.X. “Qalamtasvir» O‘quv qo‘llanma . Ijod-print, 2020y.
11. Sadatov Ch.X. “Chizmatasvir”. O‘quv qo‘llanma. –T.: Lesson-Press 2022-yil.
12. Toshmurodov M. Chizmatasvir. “Noshir”. T.: 2012.
13. Xudayberganov R.A. “Kompozitsiya”. Shark. 2007y.
14. Kalonov A. Qoralama va xomaki chizgilar. “Tafakkur” T.: 2013.
15. IFORLI TUYG‘ULAR VODIYSI. Katalog. T.: 2006.
17. O‘zbekiston tasviriy san’ati. Moskva. “GALART” 2013.
18. Gilmanova N.V. Композиция в изобразительном искусстве. T.: 2014.
19. Рисунок. (Для ВУЗов). Москва. 1998.
20. “Fettin. Risunki”. Albom. Pekin. (Xitoy). 2010.

## GLOSSARIY

<b>T\r</b>	<b>O'zbekcha</b>	<b>Inglizcha</b>	<b>Izoh</b>
1	Akvarel	Watercolors	– tayyorlashda suvda parchalanish xususiyatiga ega modda, masalan gummiarabik moddasidan foydalanilgan bo'yoq turi. Odatda akvarel suv bilan qorilganda suv kabi tiniq holatga keladi va mo'yqalamda uzun dog'lar yordamida ishlanadi.
2	Oqbo'yoq (Belila)	White	– oq mineral bo'yoq. Odatda tarkibida kumush, temir, mis, titan kabi moddalar mavjud bo'ladi. Birinchi oq mineral bo'yoq – yog'li rassomlik san'ati uchun mo'ljallangan – qo'rg'oshin belilasi. U mustahkam, yaxshi quriydi va havo ta'siriga chidamli hossalarga ega. Qo'rg'oshin belilasining kamchiliklari ham bor: u zaharli, vaqti bilan vodorod sulfide ta'siridan rangi to'q va tiniqroq holatga keladi, yog'da sarg'ayadi.
3	Qog'oz	Paper	– tasviriy san'atda qog'oz ko'proq akvarel bilan ishlashda qo'llaniladi, bu yerda ortiqcha takrorlanishlardan qochib, faqat bir qancha mulohazalar bilan kifoyalanish mumkin.
4	Vatman	Whatman	– (angl whatman) – qalin qattiq qog'oz. Juda sifatli, yuzasi ga'dir – budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog'oz. Qog'oz nomi ingliz qog'oz korxonasi egasi J.Vatman
5	Grizayl	Grisaille	– (fran. Grisaille gris so'zidan olingan – kulrang). Bir rangli tasviriy san'at, bir rangli yozuv (monoxromiya), bitta rang yordamida ishlanadi, odatda kulrang yoki jigarranglardan foydalaniladi. Grizayl uslubi uskuna tasvirida, shuningdek interyerlarda ham keng qo'llaniladi. Grizayl klassitsizm san'atida relyef soya va nur tasviri yordamida yoritiladi.

6	Shu'la (blik )	Glare	– (nemis. – nigoh) soya va yorug`lik elementi. Buyumdagi eng yorug` nur tushgan, asosan jilolanib va yaltirab turgan qismi. Odatda bu dog` yorqinligiga ko`rabuyumning umumiy ko`rinishidan yaqqol farqlanib turadi.
7	Mo`yqalam	Brush	– dastgakkamaxkamlanganbirxildag`aljunlarto`pi, tekislikkabo`yoq, yelim , laksurtishuchunqo`llaniladi. Yunglihayvonlaryungidan (olmaxon, suvsar) vahayvonlarjunidantayyorlanadi. Foydalanishdasintetikmo`yqalamlarjudaqulay.
8	Cheklangan ranglar	limited flowerses	–rangtasvir ishlashni o`rganishning boshlang`ich bosqichlarida qo`shimcha ranglarni tayyorlashni o`rganish uchun mavjud barcha ranglar naboridan foydalanilmay, kam sonli bo`yoq ranglaridan foydalaniladigan ikki yoki uch xil rang.
9	Torshon qog`oz	Paper torshon	–torshon atamasi (fr. juda g`adir–budur yuza) – yuzaning yirik va mayda jilvirliligi xususiyatini anglatadi. Zichligi yuqori, yorqin oq rangda, kislotasiz, uzoq muddat saqlanish Rangtasvirga o`ziga xos jozibalorlik yuzasi jilvirli akvarel, guash, tempera va akril bo`yoqlarida rangtasvir ishlash uchun qo`llaniladigan maxsus qog`oz turi.
10	Kompozitsiya	Song	(lot.composition – tuzish) – badiiy asarni uning mazmuni va hususiyatiga ko`ra tuzish. Kompozitsiya asarga o`ziga hoslik va butunlik bahsh etuvchi badiiy shaklning muhim elementi hisoblanadi.
11	Geometrik jismlar	geometric bodies	– rangtasvirni o`rganishning boshlang`ich bosqichlarida natyurmort qo`yilmalari uchun o`quv jarayonida qo`llaniladigan to`g`ri shaklli (kub, shar, prizma, piramida, konus) gipsdan yasalgan

			jismlar to‘plami. O‘quv jihozi.
12	Konstruktiv tuzilish	design	– tasviriy san’atda shaklning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun barcha qismlari o‘rtasidagi munosabat, o‘zaro nisbatlarni qurish.
13	Perspektiva	Perspective	– (fran.perspective, lot.perspicio – aniq ko‘raman), tekislikdagi katta tanalar tasviri, ularning o‘z joy tuzilishi va joylashgan o‘rni, shuningdek kuzatuvchidan uzoqligi yetkazib beriladi.
14	Obraz	Image	– san’atda butun borliq hodisalarini tasvirlash shakli, butun borliqni badiiy tasvirlash shakli. Tasviriy san’atda obraz fikrning aniq, yaqqol tasviri.
15	Buyum tekisligi	Plane subject	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi
16	Natyurmort	French inanimate nature	–тасвир чизилаётган сath, мато, полотно, qog‘oz юзаси frantsuzcha–jonsiz tabiat.
17	Rangtasvir	converted using different paints picture books	–тасвир чизилаётган сath, мато, полотно, qog‘oz юзаси turli hil bo‘yoqlar yordamida ishlanadigan surat, asarlar.
18	Yarim soya	The penumbra	– yorug‘lik va soya elementi; yorug‘lik va chuqur soya orasidagi joyni egallovchi, predmet ustidagi yorug‘lik va soya siyqallashishi.
19	Yarim	Halftone	– predmetning yoritilgan bo‘lagining kam rangli ikkita yonma–yon ranglari orasidan o‘tuvchi rang. San’at asarlarida: badiiy asarni ifodalash vositasi.
20	Nisbat	Ratio	– bo‘laklar o‘lchami, bo‘laklarning bir biriga va bir butunning o‘lchamlariga mosligi. Tasviriy san’atda nisbatning ko‘plab turlari mavjud. Rassom nisbatning barcha turlari bilan ishlaydi. Ular nafaqat

			shakl va predmetlarning tuzilishini, balki asarning kompozitsion tuzilishini ham belgilaydi.
21	Kolorit	Color	– (ital.colorito, lot.color–bo‘yoq, rang) rasmdagi bo‘yoqlar mutanosibligi, ularning o‘zaro aloqasi, rang va uyg‘unligiga ko‘ra ranglarning mosligi. Iliq, sovuq va yorqin kolorit. Koloritning tashqi tasviri – asarda ranglarning yorqinligi va uyg‘unligi.
22	Kontrast	Contrast	(fran. – keskin farq, qarama–qarshilik) – tasviriy san’atda keng tarqalgan badiiy uslub, qarama–qarshi sifatlarni taqqoslash va ularni kuchaytirishga qaratilgan.
23	Munosabat, nisbat	Attitude, proportion	– asar yaratishda foydalanilgan natura elementlarining o‘zaro bog‘liqligi. Masalan: rangtasvirda tus va rang munosabati, har xil yorqinlik nisbati. Chizmatasvirda o‘cham va shakl nisbatlari. San’atda taqqoslash usuli bilan aniqlanadi.  Tus va rang munosabatalari kontrast, o‘tkir va engil nyuansli bo‘lishi mumkin.
24	Qoralama	Sketch	fransuzcha –exguisse – nabrosok (qoralama) – ijodiy g‘oyaning asar uchun bajarilgan tez bajarilgan chizgilari.
25	Eskiz	Outline	–тасвир чизилаётган сath, мато, полотно, qog‘ozyuzasi eskiz har xil usul (texnika)da bajarilishi mumkin. Eskiz bir necha variantda bajariladi va eng yaxshi deb topilgani asar uchun asos qilinib olinadi.
26	Chiziq	Sidebar	–тасвир чизилаётган сath, мато, полотно, qog‘oz yuzasi контур, абрис
27	Shakl	Form	(lotincha – forma – tashqi ko‘rinish) 1) tashqi ko‘rinish, qiyofa;

			2) tasviriy san 'atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytiladi. Tasviriy san 'atda badiiy forma – bu kompozitsiya tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatligi, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy g 'oya mujassamligidir.
28	Dastlabki rang (podmalevka)	First colour	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog`oz yuzasi ko'p qatlamli moybo 'yoqda ishlangan kartinaning eng avvalgi boshlang'ich bosqichi. Boshqa rangtasvir texnikasida ham podmalevka ishlatilishi mumkin. Podmalevka rangli yoki monoxramli (rangsiz, kulrang), bir tusli, yupqa rangli qatlamda yoki nisbatan quyuq bo'yoqda bajarilishi mumkin.
29	Faktura	Invoice, texture	(lotincha – factura– ishlov berish) 1) ashyo (material) ning xarakter xususiyati, naturada buyumning sirti va uning san 'at asaridagi tasviri (masalan, kartinada yoki naturada shisha ko'zaning yaltiroq sirti, yuzasi); 2) materialning ishlov berilganlik xususiyati, materialning xarakterli sifati (masalan, nafis tasviriy asar fakturasi – bu mezon (iz), bo'yoq qatlamining xususiyati. U silliq, g 'adir–budir, relefli va shu kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin, haykaltaroshlikda – ishlov berilgan tosh, yog'och va boshqalarning yuzasidir)
30	Alla prima	Alla prima	(lot– birinchi urinishdan) tasviriy san`atdagi rassomlik usuli, mohiyati shundaki, ishlanadigan tasvir hech bir yordamchi chizmalarsiz ishlanadi.
31	Soya–yorug`	Chiaroscuro	– yorug` va to`q ranglar aralashmasi, buyumning hajmi va formasini chiqarishda katta ahamiyatga ega. Uning asosini: Soya va yorug`, yarim yorug`,

			reflex, shu'li tashkil etadi. Soya va yorug' kompozitsion tuzilish va asar mazmunini ta'riflash vositalaridan biri hisoblanadi.
32	Axromatikranglar	Achromatic colors	–axromatikranglar – qar. Хроматические цвета
33	Xromatik ranglar	Chromatic colors	– bir–biridan asosiy sifati, va ko`rinishi bilan ajralib turadigan ranglar. Xromatik ranglarga – quyosh nurlari tushganda hosil bo`ladigan, quyosh nurlari spektroidagi ranglar. Ranglar spektri shartli ravishda “ranglar doirasi” da joylashadi. Bu doirada ranglar sovuqda issiqqa qarab ketma – ketlikda joylashadi.
34	Rang	Color	– rang tasvirning eng asosiy ish anjomlaridan biri hisoblanadi. Atrof muhitning rang – barang holda aks ettirilishi, naturaning muhim jihatlari ko`rsatilishida ranglar jilosi asosiy o`rinni egallaydi.
35	Rang kontrasti	Color contrast	– bir–biridan faqat tus jihatidan ajralib turadigan ranglarning birga qo`llanilishi. Ranglarning sovuq issiqligi kartina elementlarining ajralib turishida ta'sir ko`rsatadi.
36	Palitra	Palette	– (fran.palette) 1. Bo'yoqlarni aralashtirish va joylashtirish uchun ishlatiladigan katta bo'lmagan yopqa yog'och taxtacha; 2. Rassom yoki rangtasvirasarlari uchun ushbu rasmga xos bo'lgan ranglar mutanosibligi, ranglarxususiyati, majmuasi, jilosi.
37	Fazoviy planlar, perspektiva	Intensity cuing, airborneprospect	1) naturalarga qaraganimizda fazoga joylashgan buyumlar shartli ravishda maydonlarga bolinadi 2) kartina bo'sh lig'idagi tasvirning har xil darajadagi uzoqlashuvi. Odatda bir necha planlar farqlanadi: birinchi, ikkinchi, uchinchi yoki

			oldingi, oʻrta, uzoq planlari. Ularning soni har xil boʻlishi tasvirlanayotgan obyektga, ijodiy gʻoyaga bogʻliq; 3) modelirovkada, fazodahar xil joylashgan shakl qismlarini shakl planlari deb yuritiladi
38	Tasvir	Item image	– belgilangan obyektни tasvirlovchi buyum, obraz, rasm. Tasviriy sanʼatda yaratilayotgan asarlar (rasmda, kompozitsiyada va b.) haqiqiy dunyoning subyektiv tasviri hisoblanadi.
39	Tasviriy sanʼat	Art	– badiiy ijodning bir turi, badiiy obrazlarni tekislik va makonda namoyon etadi. Bu tushunchalar tasviriy sanʼat, grafika va meʼmorchilik, shuningdek arxitekturaning har xil turlarini birlashtiradi.
40	Obraz	Image	– sanʼatda butun borliq hodisalarini tasvirlash shakli, butun borliqni badiiy tasvirlash shakli. Tasviriy sanʼatda obraz fikrning aniq, yaqqol tasviri.
41	Karton	Cardboard	–fran.carton, ital.cartone, carta – qogʻoz. 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qogʻoz, oddiy qogʻozdan qalin. Qogʻozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u oʻzakka tushiriladi (mato, devor, yogʻoch yoki metal tekislik).
42	Yorugʻlik	Light	– tasviriy sanʼatda soya yorugʻ elementi. Naturada boʻlgani kabi, tasvirda ham bu atama eng yorugʻ qismlarini koʻrsatib berishda qoʻllaniladi.
43	Muvozanat		–oʻquv natyurmorti yoki kompozitsiya, tasvirining qismlari, ranglar, oʻlcham, shaklning oʻzaro mos kelishi, sath ogʻirligi mutanosibligi.
44	Ritm	Rhythm	–asar kompozitsiyasi tuzilishi xususiyatlaridan biri, kompozitsiya qismining ( buyum, shakl, naqsh boʻlaklari, rang va h.k...) bir tekisda navbat bilan qaytarilishi.

45	Modelirovka	Modeling	– (ital.–davolamoq) – badiiy amaliyotda: u yoki bu yorug‘likda relyef, tasvirlanayotgan predmet shaklini yetkazib berish. Rasmda modelirovka rang (nur va soya) yordamida amalga oshiriladi, o‘z navbatida shakllarning muntazam o‘zgarishi ham hisobga olinadi. Tasviriy san’atda shakl ranglar bilan shakllantiriladi, chunku bu yerda ranglarning barcha taraflari o‘zaro bog‘langan. Haykaltaroshlikda modelirovkada yasash jarayoni va uch o‘lchamli shakllarni ishlash tushuniladi.
46	Bo‘yoq	Paint	– rang bo‘yash vositalari tarkibining umumiy nomi, maishiy sohada foydalanishga mo‘ljallangan, predmetlarga surtilganda yoki bo‘ktirilganda u yoki bu rangni beradi. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra pigmentlar va ulardan tayyorlangan bo‘yoqlar mineral (noorganik tuzlar yoki metal oksidlari) va organik (o‘simlik va hayvonlarning birlashishi).
47	Rang surtmasi	Pap	– mo‘yqalam tortib bo‘yoq berish – asosga (mato, karton va boshqalar) tushirilgan bo‘yoqli mo‘yqalam izi. Mazok bilan ishlash texnikasi turli va u muallifning shaxsiy harakati, oldiga qo‘ygan vazifalari, u ishlayotgan material hususiyatlariga bog‘liq.
48	Xomaki reja	Sketch	– rassom tomonidan tez bajarilgan, katta bo‘lmagan o‘lchamdagi rassomlik, grafika va haykaltaroshlik san’ati asari.
49	Siluet	Silhouette	–XVII asr frantsuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush, narsalarning soyaga o‘xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg`a rangdagi qog`ozni kesib ishlab, boshqa rangdagi qog`oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda,

			Yaponiya va boshqa sharq mamlakatlarida, asrdan boshlab esa Evropada rivojlangan. Keng ma'noda narsa, bino turi shakllarining xarakterli ko'rinishidir.
50	Sovuq ranglar	Cool Flowerses	–qor, muz va sovuqlik taftini eslatuvchi ko'k, havorang va siyohrang tusli ranglar ko'lami
51	Iliq ranglar	Warm flowerses	–quyosh, olov, issiqlik taftini eslatuvchi sariq, qizil va zarg'aldoq tusli ranglar ko'lami
52	Yuvish	Blur	– muntazam suvdan foydalangan holda mo'yqalam bilan ishlash texnikasi, qiyin va tasviriy san'at effektlariga boy tush, akvarel va boshqalarda ishlangan rasmlarga ega bo'lish uchun qo'llaniladi.
53	Refleks	Reflex	– grafikada kamdam–kam, tasviriy san'atda: o'rab turgan obyektlardan biror–bir predmetga rang va nurning tushgan aksi. Bir butun qismlarining qiyin o'zaro aloqasi.
54	Ufq Chizig'I	Line of the horizon	–nigoh qarashi va uning izidan taasurotimiz paydo bo'ladigan, ko'pincha rassomning tasvirlanayotgan ko'rinishga qarash uchun tanlagan nuqtasi, ya'ni kartina tashqarisidagi qarash nuqtasiga bog'liq bo'ladi. Tomashabinning ko'z qarashi darajasida yotuvchi chiziq. – bu gorizont chizig'i deyiladi.
55	Uslub	Style	– muallifning ijod maktabida rassomlikning aniq bir yo'nalishiga xarakterli obrazli tizimi qat'iy birligi va tasvirlash usuli. Atama turli ma'nolarda qo'llaniladi, ko'pinch keng ma'noda qo'llaniladi.
56	Shakl	Form	– tashqi ko'rinish. Tasviriy san'atda forma hajmni, konstruksiyani hamda mutanosiblikni anglatadi.
57	Gamma	Gamma	– ranglar jilosi, ko'proqamaliysan'atda qo'llaniladigan birnechtar anlarning o'zarouyg'unligi. Issiq, sovuq, yorqin va boshqaxillarga ajratiladi.



58	Grafika	Graphics	<p>– (grek.graphike, grapho, yozaman, chizaman)</p> <p>1) Tasviriy san’at turi bo‘lib, asosiy tasviriy vositalar: qog‘ozga tushirilgan chiziqlar, shtrixlar, dog‘ va nuqtalar bilan rasm chiziladi. Grafika ikki turga bo‘linadi: tasviriy (rasm), muallif tomonidan chizilgan rasm va nashr qilingan: o‘yma naqsh, toshbosma.</p> <p>2) Asosi shunday rasmdan iborat bo‘lgan nashr qilingan badiiy tasvirlar (o‘yma naqsh, toshbosma). Ranglar grafikada yordamchi vazifasini bajaradi.</p>
59	O‘zgarish	Changing	<p>– bo‘yoq qatlamidagi o‘zgarish, shu sababli rasm yuzasining bir qismiga jilo berilmaydi, bo‘yoqlar o‘z yorqinligi va jarangini yo‘qotadi.</p>
60	Molbert	Easel	<p>– (nem.malbrecht – rassomlik san’ati uchun tokcha) – rassomlik san’ati uchun taxta yoki metal uskuna, turli balandlikda va turli nishablikda mato, karton yoki taxta bilan romlar qotiriladi.</p>
61	Motiv	Motive	<p>– 1) rassom tomonidan tasvir uchun tanlangan natura obyekt, kamdan–kam manzara. Motiv – bog‘liqlik, rasm yoki etyudning tasvir yoki rang holatini aniqlaydi.</p> <p>2) bezak san’atida – ko‘p marota takrorlanishi mumkin bo‘lgan ornament kompozitsiyasining asosiy elementi.</p>
62	Muvozanat	Balance	<p>–o‘quvnatyurmortiyokikompozitsiya, tasviriningqismlari, ranglar, o‘lcham, shaklningo‘zaromoskelishi, sathog‘irligimutanosisibli.</p>

63	Ijodiy eksperiment	Creative experiment	– (лот. – eksperimentum – tajriba, qo`llab ko`rish) ijodiy jarayonda kartina yaratish maqsadida izlanish, tadqiqot qilish, yangi usullarni qo`llash, sinab ko`rish.
64	Faktura	Texture	–(lot. Facture – qayta ko`rib chiqish, qurish) – badiiy asarni his qilish hossalri, butun borliqning haqqoniy tasviri vositasi sifatida qo`llanilgan.
65	Format	Format	– tasvir ishlanadigan yassi tekislik. Bo`yi va eni hisoblab chiqilgan, tasvir ishlashga moslangan bo`ladi. Format tanlash bajariladigan ishning umumiy ko`rinishi va kayfiyatdan kelib chiqiladi. Rasm formati doim kompozitsiyaga mos kelishi kerak.
66	Realizm	Realism	– san`atda: butun borliqning obyektiv tasviri. Ko`pgina san`at yo`nalishi va oqimlariga hos bo`lgan haqiqatga moyillikning namoyon bo`lishi. Ular aniq yoki noaniq namoyon bo`ladi, yoki umuman mavjud bo`lmaydi.
67	Manzara	Landscape	– tasviriy san`at janri, uning asosini yovvoyi yoki odam tasvirlagan tabiat tasviri hisoblanadi. Joylarning, arxitektura inshootlarining, dengiz va boshqalarning haqiqiy yoki hayoliy ko`rinishi. Boshqa janrlarning portret foni sifatida ham qo`llanishi mumkin.
68	Fon	Background	-(frantsuzcha - fond - tag, chuqurlik kismi) - naturada va tasviriy san`atda - shakllar ortida joylashgan muhit, tasvirda orqa plan. Tasviriy san`atda fon tasvirli yoki tasvirsiz bulishi mumkin.


69	Dekorativ	Decorative painting	
70	Qarash nuqtasi	Watchpoint	–rassom tomonidan tanlangan kartinaga tomashabinning nigohi yo‘naltirilayotgan nuqta.
71	Guash	Gouache	– (fran. Guache, ital. guazzo suv bo‘yoq‘i). 1. Tiniq bo‘lmagan bo‘yoq, suvda yelim (gummiarabik yoki dekstrin) va belil moddasini aralashmasi. Akvarelning bir turi sifatida paydo bo‘lgan. Guashli bo‘yoq rasm yuzasida qalin qatlam hosil qiladi. Belil bo‘lganligi sababli, guashda chizilgan rasm qurish jarayonida ocharadi va baxmalga o‘xshash mayin rangga aylanadi. Guash – qoplovchi, korpus bo‘yoq‘I, ya‘ni to‘q ranglarni och ranglar bilan qoplash hususiyatiga ega va aksincha.
72	Eskiz	Sketch	– (frans. esquisse)– rassom ishlamoqchi bo‘lgan asari yoki tasvirning oldindan qilingan taxminiy ishi.
73	Panglavha	Etude	– (frans. Etude – o‘rganib chiqish) naturani o‘rganib chiqish uchun ishlanadigan tasvir. Odatda katta san‘at asari yoki haykal yasash uchun qo‘llaniladi.
74	Animalizm	Animal	– (lot–jonivor, hayvonot) tasviriy san‘atda hayvonlar, jonivorlarni ishlash.
75	Kuchli yorug‘	Luminosity	– tasviriy san‘atda rangning yorug‘lik bilan yanada ko‘proq boyitilishi; oldidagi boshqa buyumlarning rangidan ajratib olishi; grafikada esa bir–biriga qo‘shni turgan predmet tonlarning bir–biridan ajralib chiqishi.
76	Qiyofa	Silhouette quite flat.	– naturada qomatning yoki predmetning umumiy ko‘rinishi. San‘at asarlarida: qomat deb ortiqcha detallar, ortiqcha hajmsiz turgan predmet yoki naturaga aytiladi.

77	Simmetriya	Symmetry	– predmet yoki kompozitsiya asarining shunday qurilishiki, bir xil turdagi qismlarning bir–biriga nisbatan parallel joylashishi, unda ixtiyoriy obyektning markaziy o`qidan bir xil uzoqlikdagi masofada joylashgan holati.
78	Syujet	Story	– tasvirdagi aniq bir mavzu yoki voqeaning ko`rsatib berilishi. Bitta mavzu bir necha marotaba qaytarilishi mumkin. Syujet tasviriy san`at janrlaridan maishiy, tarixiy va botal janrlarida ko`p uchraydi.
79	Mavzu	Topic	– (grek) – rassom rasmda o`z fikrini ifodalashi uchun zarur bo`lgan mavjud voqeliklar doirasi.
80	Asosiy rang	Main flowerses	–rangtasvirda boshqa ranglarni aralashtirib tayyorlab bo`lmaydigan, aksincha ular yordamida boshqa barcha ranglarni tayyorlash mumkin bo`lgan ranglar.
81	Natura	Nature	–rassom uzoq vaqt kuzatib ishlash jarayonida bevosita tasvirlash uchun tanlagan voqelikdagi ob'ektlar.
82	Kuzatish moslamasi	Framing mat	-tabiatda ko`rinishni tanlash, tasvirni asosga (qog`oz, karton, mato va h.k.) joylashtirish va kompozitsiya uchun tik, yotiq yoki kvadrat holatdagi formatlar tanlashga kartondan yasalgan maxsus ko`rish moslamasi juda qulay asbob hisoblanadi.  Eng oddiy kuzatish moslamasi sifatida qo`l barmoqlaridan ham foydalanishingiz mumkin.

# ILOVALAR



















## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB</b> .....	6
1.1. Chizmatasvir tarixi .....	6
1.2. Naturadan chizmatasvir ishlash .....	9
<b>II BOB</b> .....	11
2.1. Chizmatasvir uchun ashyolar .....	11
2.2. Yordamchi ashyolar .....	20
2.3. Chizmatasvir elementi va vositalari .....	25
2.4. Tus va faktura .....	30
2.5. Chizmatasvir ishlash metodi .....	38
2.6. Ko‘zni yo‘lga qo‘yish .....	42
<b>III BOB</b> .....	53
3.1. Oddiy natyurmort chizmatasviri .....	53
3.2. Odam boshini konstruktiv yechimi .....	56
3.3. Odam boshi suyagi va ekorshe orkali odam boshi yechimi .....	62
3.4. Odam boshining birlamchi qismlariga ishlov berish .....	63
3.5. Odam boshini uch ko‘rinishdagi chizmatasvir .....	64
3.6. Xarakterli odam boshi .....	67
3.7. Odam boshini yelka qismi bilan chizmatasviri .....	71
3.8. Psixologik ayol boshi .....	74
3.9. Tekshiruv vazifasi .....	77
<b>IV BOB</b> .....	81
4.1. O‘quv - ijodiy amaliyoti .....	81
4.2. Uzoq muddatli chizmatasvirdan keyin xotiradan ishlash ...	87
4.3. Chizmatasvirni o‘rganish jarayonida nusxa ko‘chirishning ahamiyati .....	89
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	95
<b>GLOSSORIY</b> .....	96
<b>ILOVALAR</b> .....	108

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Bozorov Asror Botirovich**

**CHIZMATASVIR**

“Bekshoh print servis” nashriyoti.

Termiz-2024

Bosh muharrir:	R.J.Nazarov.
Muharrir:	R.Shaimova.
Sahifalovchi:	S.E.Shoimova.

Nashriyot litsenziyasi № 013751

Bosishga 15.01.2024 yilda ruxsat etildi.

Qog’oz bichimi 84x108. Ofset qog’oz.


Times New Roman garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog’i 5,7 Adadi 100

Shartnoma № 54 “Bekshox print servis” nashriyoti.

Manzil:Termiz shahar “Novbog’ ” ko’chasi, 20-uy.

Tel: (+99891) 972-77-03



ISBN978-9910-733-51-2



9 789910 733512

8653

